**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA’LIMI KAFEDRASI**

# “MUSTAQILLIK VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR” FANI BO‘YICHA

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 100 000 – gumanitar soha

Ta’lim sohasi: 110 000 – pedagogika

Ta’lim yo’nalishi: 5111600- Miliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’lim yo’nalishi uchun

**ANDIJON – 2017**

Ushbu o'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Andijon davlat universiteti tomonidan _____ _________ 2017 yil ______ - sonli buyruq bilan tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:** O'.M.Muxtarov – ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi

SH.Amirxo'jaev - ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

**Taqrizchilar:** T.T. Madumarov – ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti, yuridik fanlari nomzodi.

O'.Q.Ubaydullaev - ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

O'quv uslubiy majmua "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi " kafedrasining 2017 yil "26" avgustdagi "1" – son yig'ilshida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri: __________ dotsent T.Madumarov**

O'quv uslubiy majmua Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti kengashining 2017 yil 27 avgustdagi 1 – son majlisida muhokama etildi va mahqullandi.

**Fakultet kengashi raisi: _____________ dotsent O'.Ubaydullaev**

**Kelishildi: O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i: _____ R.Mullajonov**

## Kirish

Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Mustaqillik va millatlararo munosobatlar" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari; Muhim yo'nalishi sifatida har bir davlat mustaqil rivojlanish yo'liga qadam qo'yar ekan o'z milliy manfaatlari tizimini aniq belgilab olishi, milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng asosiy tamoyillari hamda ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishi zarur. Ko'p millatliy davlatlarda istiqomat qiluvchi barcha ijtimoiy-etnik guruxlarning manfatlarini e'tiborga olish zarurligi, millatlararo munosabatlarning xamkorligini rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishda, umuminsoniy, umumbashariy muammolarni hal qilishda tobora muhim ahamiyat kasb etayotganligi.

Jamiyat hayotini tubdan yangilash borasidagi islohotlar sobitqadamlik bilan tadbiq etilayotgan hozirgi paytda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish va pirovard natijada ma'naviy barkamol komil insonni, erkin shaxsni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlari bo'lib qolmoqda.

## Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – Mustaqillik va millatlararo munosobatlar tushuncha va tamoyillarini har bir talaba qalbi va ongiga singdirish.

Fanning vazifasi – yosh avlodni – talabalarni yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash, milliy mafkura bilan qurollangan komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, yoshlarni komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyillari asosida kamol to'tirish, O'zbekiston taraqqiyoti va mustaqillikni mustahkamlashning mafkuraviy tamoyillari to'g'risidagi yaxlit nazariya ekanini talabalarga tushuntirish, yosh avlodda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yoshlarni jamiyatimizga yot, buzg'unchi va zararli g'oyalarga qarshi kurashishga, g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, kurashish mumkinligiga o'rgatish, ularda ogohlik va xushyorlik ko'nikmalarini hosil qilish.

"Mustaqillik va millatlararo munosobatlar" fani talabalarga demokratik, huquqiy, bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyati bar'o etishning qonuniyatlari, shu qonuniyatlarni qamrab olgan g'oyalar, o'ziga xos nazariy hamda amaliy muammolar yuzasidan maxsus dastur asosida ta'lim berishga bag'ishlangan.

## Fanni o’zlashtirishga qo’yiladigan talablar

Bakalavriat talabalari: “Mustaqillik va millatlararo munosabatlar” fanini o’rganish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida: – talaba Mustaqillik nima ekanligini anglab yetishi, Mustaqillikni rivojlantiradigan asosiy mezonlarni bilishi, ma’naviy va moddiy hayotning uyg’unligini, ma’naviy yuksalishda milliy g’oyaning rolini, ma’naviyatning jamiyat yangilanishida rolini, islohotlar hamda ularning mezonlarini tushunishlari va ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag’rikenglik haqida **tasavvurga ega bo’lishi;**

– talaba shaxs va jamiyatning “Mustaqillik va millatlararo munosabatlar” yuksalishi, uning kamoloti darajasi pirovard natijada millatning ma’naviy salohiyatini belgilashini nazarda tutib, ajdodlarimiz yaratgan benazir ma’naviy merosimizni har taraflama va chuqur o’zlashtirishi, uning mazmun mohiyatini va mafkura ‘oligonlari, mafkuraviy kurash singari tushunchalar to’g’risida **nazariy bilimlarga ega bo’lishi;**

- talaba hozirgi globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlarni bilishi, fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya bilan kurash olib borish lozimligi. Inson qalbiga yo’l to’ish, ma’naviy kamolot ekanligini va mamlakat ravnaqi yo’lida fidoiylik jasorat ekanligini anglab yetishi hamda mustaqillik g’oyalari to’g’risidagi **amaliy ko’nikmalarni egallashi;**

## Fanning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi

“Mustaqillik va millatlararo munosabatlar” fani eng avvalo o’quv rejasidagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar: “O’zbekiston tarixi”, “Falsafa”, “Milliy istiqlol g’oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillari”, “Etika”, “Estetika”, “Dinshunoslik”, “Madaniyatshunoslik”, pedagogika”, “Siyosatshunoslik” va boshqa fanlar va kurslar bilan o’zaro bog’liq. Mazkur fanlar shaxsning ma’naviy-intellektual kamolotida, ijtimoiy munosabatlarning ma’naviy-axloqiy asoslari kabi masalalarda bir- birini to’ldirib keladi.

## Fanning ishlab chiqarishdagi o’rni

Fan bo’lajak kadrlarni yuksak ma’naviy kamolot ruhida tarbiyalashga ijobiy tahsir o’tkazadi. Bu o’z navbatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalari rivojlanishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

## Fanni o’qitishda zamonaviy axborot va ‘edagogik texnologiyalar

“Mustaqillik va millatlararo munosabatlar” fani talaba yoshlarning mustaqil fikrlashini rag’batlantiradigan, ‘rezident Islom Karimov asarlarini qunt bilan o’qishi va o’zlashtirishi, ma’naviy sohadagi masala va muammolar bo’yicha erkin fikr yuritish qobiliyatini o’stiradigan yangi ‘edagogik texnologiyalar asosiga

quriladi. Fanni o’zlashtirish mobaynida interfaol usullarning turli shakllaridan, zamonaviy elektron texnika va vositalardan, ko’rgazmali qurollardan samarali foydalaniladi. Amaliy mashg’ulotlar mustaqillik yillarida qad tiklagan obidalar, tahmirlangan ziyoratgohlar, muzeylarga tashrif uyushtirish, ma’naviy meros va ma’naviy hayot bilan bog’liq joylarga, tabiat qo’yniga chiqish shaklida tashkil etiladi.

**“Mustaqillik va millatlararo munosabatlar**” fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konse’tual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**SHaxsga yo’naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o’z mohiyatiga ko’ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to’laqonli rivojlanishlarini ko’zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, mahlum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog’liq o’qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o’zida mujassam etmog’i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo’g’inlarini o’zaro bog’langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo’naltirilgan yondoshuv.** SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o’quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo’naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o’quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o’z-o’zini faollashtirishi va o’z-o’zini ko’rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga ehtiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obhektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo’llashni mustaqil ijodiy faoliyati tahminlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo’llash** - yangi kom’yuter va axborot texnologiyalarini o’quv jarayoniga qo’llash.

**O’qitishning usullari va texnikasi.** Mahruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, ‘inbord, ‘aradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O’qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, ‘olilog, muloqot hamkorlik va o’zaro o’rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O’qitish vositalari:** o’qitishning anhanaviy shakllari (darslik, mahruza matni) bilan bir qatorda – kom’yuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan o’erativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o’zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so’rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o’qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o’quv mashg’uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko’rinishidagi o’quv mashg’ulotlarini rejalashtirish, qo’yilgan maqsadga erishishda o’qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg’ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o’quv mashg’ulotida ham butun kurs davomida ham o’qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test to’shiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

**“Mustaqillik va millatlararo munosabatlar**” fanini o’qitish jarayonida kom’yuter texnologiyasidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo’yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kom’yuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog’idagi fanga oid saytlrdan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so’z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o’tkaziladi.

# 1. MAVZU: MUSTAQILLIK VA MILLATLARARO MUNOSOBATLAR TARAQQIYOTI FANI VA UNING MAQSADI, VAZIFALARI

## Reja:

1 Mustaqillik va millatlararo munosobatlar taraqqiyoti fanining maqsadi va vazifalari.
2. Millat tushunchasi, uning shakllanish tarixi, Millat va ruxiyat ushunchalarining birligi.
3. Milliy mentalitet tushunchasi. XX asr oxirlaridagi dunyo o‘zgarishlari va ularning millatlararo munosabatlarga ta’siri.
4. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarga berilayotgan e’tibor.

**Tayanch iboralar:** jamiyat, davlat, tuzum, demokratiya, huquq, bozor iqtisodiyoti, fuqarolik jamiyati.

Milliy hamda mintaqaviy xavfsizlik yoki umuman xavfsizlik hodisasi ilmiy muammo sifatida O‘zbekistonda faqat mustaqillikka erishilgandan keyin o‘rganila boshlandi. Ma’lumki, har bir davlat mustaqil rivojlanish yo‘liga qadam qo‘yar ekan o‘z milliy manfaatlari tizimini aniq belgilab olishi, milliy xavfsizlikni ta’minlashning eng asosiy tamoyillari hamda ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqishi zarur. Buning uchun milliy yoki mintaqaviy xavfsizlik qanday tamoyillarga asoslanishini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Xavfsizlik hodisasini geosiyosiy asosda tadqiq qilish O‘zbekistonda ilgari bo‘lmaganligi tufayli yetakchi davlatlarda bu borada olib borilgan izlanishlarga tayanishga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, milliy manfaat, milliy xavfsizlik mavzusi sobiq ittifoqning markaziy qismidagi maxsus tadqiqot markazlarida tegishli mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan. Barcha ittifoqdosh res’ublikalarda bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham ijtimoiy-siyosiy sohadagi olimlarning xavfsizlik masalalariga bo‘lgan ilmiy qiziqishi qat’iy cheklangan edi. Bunga sabab ittifoqdosh res’ublikalarning milliy manfaatlari yagona millat manfaatlariga bo‘ysundirilgan bo‘lib, har bir millatning o‘z milliy manfaatlari bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikr qattiq ta’qib etilgan. Bunday hatti-harakat kommunistik mafkuraga qarshi chiqish, ayirmachilik, xalq dushmanligi va hakozo tamg‘alar bilan ayovsiz qoralangan. Ilmiy jamoatchilik uchun milliy xavfsizlik va milliy manfaat mavzulari yo’iq mavzu bo‘lib, tadqiqotchilar o‘z milliy manfaatlarini chetlagan holda ittifoq manfaatini milliy manfaat sifatida tan olgani va ulug‘lagani uchun ilmiy darajaga ega bo‘lgan. Bir so‘z bilan aytganda o‘z milliy manfaatlarini qanchalik anglagan

bo‘lmasin, olimlar va tadqiqotchilar boshqa yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borishga majbur bo‘lganlar.

Ittifoqning ‘archalanishi oqibatida dunyo xaritasida Markaziy Osiyo mintaqasi geografik, siyosiy hamda iqtisodiy birlik sifatida qaytadan namoyon bo‘ldi. Bu paytda bir tomondan milliy davlatchilik shakllarining rivojlanishi kuzatilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Markaziy Osiyoning umumiy geosiyosiy mavqei, uning geoiqtisodiy salohiyati mavzusi ‘aydo bo‘ldi. Mintaqaga yetakchi kuchlarning qiziqishi kuchaydi. Bunday vaziyatda mintaqada ilgaridan manfaatlari bo‘lgan hamda bu yerda yangidan iqtisodiy manfaat shakllanayotgan yetakchi kuchlar Markaziy Osiyoni siyosiy jihatdan birlikda ko‘rishdan manfaatdor emasligi geosiyosiy qoidalar ‘rizmasi orqali tahlil qilinganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai-nazardan mintaqaviy xavfsizlik hodisasi faqat geosiyosiy qoidalar va jarayonlar kontekstida tadqiq qilinishi maqsadga muvofiqdir. Zero yetakchi kuchlar u yoki bu mintaqaga kirib borar ekan, avvalo geosiyosiy va geoiqtisodiy maqsadlardan kelib chiqishi tabiiy. Masalan mustaqillika erishgan Markaziy Osiyo res’ublikalari tabiiy zahiralarga g‘oyatda boy mamlakatlar hisoblanadilar. Ushbu boyliklarni jahon bozoriga olib chiqish uchun yetakchi davlatlar o‘rtasida raqobat boshlanganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Bu jarayonda mintaqadagi res’ublikalar o‘rtasida mavjud bo‘lgan barcha ziddiyatli omillar ishga solinishi mumkin. Ma’lumki, Markaziy Osiyo res’ublikalari bir nechta masalalar bo‘yicha o‘zaro qarama-qarshi ‘ozitsiyalarga ega. Ushbu omillarning zarur paytda tashqi kuchlar tomonidan ishga solinishi va buning uchun mintaqa res’ublikalarida turli guruhlar shakllantirilishi ham bugungi kunda sir emas.

Mintaqaviy xavfsizlik mavzusi Markaziy Osiyo kabi ‘olietnik xususiyatga ega, milliy chegaralar, suv taqsimoti kabi nozik masalalarda o‘zaro ziddiyatli ‘ozitsiyada bo‘lgan res’ublikalar uchun juda muhim va dolzarb mavzu hisoblanadi. Bu mavzuning tadqiq qilinishi nafaqat nazariy, balki ko’proq amaliy ahamiyatga egadir.

Mintaqaviy xavfsizlikning asrlardan beri shakllanib kelayotgan geosiyosiy qoidalarga tayangan taqdirda mustahkam asosga ega bo‘lishiga amin bo‘lish mumkin. Chunki har bir mintaqa o‘zining geosiyosiy mavqeiga bog‘liq holda juda jadal yoki nistabatan sust geosiyosiy ta’sirlashuvlar doirasida bo‘ladi. Shu jumladan Markaziy Osiyo mintaqasi ham o‘zining geosiyosiy ahamiyatigia ko‘ra qadimdan u yoki bu strategik kuchlarning geosiyosiy raqobati doirasida bo‘lib kelgan. Mintaqa geosiyosiy ahamiyatining yuksalish davrlarida bu yerda urush harakatlari avjiga chiqqan. Bunga Buyuk Iskandarning yurishlari, Arab xalifaligi davridagi yurishlar, Chingizxonning bosqinini misol keltirish mumkin. Mintaqa ulkan saltanat markaziga aylangan davrlarda esa boshqa o‘lkalarni o‘zining geosiyosiy ta’sir doirasiga tortgan. Bunga qadimgi davrlarda Chingiz bosqini va

Jaloliddin Manguberdining ozodlik uchun kurashlari, Temur saltanatining butun Yevroosiyo qit'asiga yoyilishi natijasida butun mintaqalarni o'z tarkibiga tortib borishini hamda Bobur saltatanatini misol keltirish mumkin. Markaziy Osiyoning XIX asrda Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, o'tgan asrda esa abadiy o'zaro ziddiyatlar botqog'ida qolishlari uchun sho'rolar tomonidan 'archalab yuborilishi, ular orasida murakkab chegaralar tortilishi va nihoyat 70 yil davomida boshqa davlat tarkibida bo'lganligi mintaqaning to'lig'icha tashqi ta'sir doirasida qolganligini yaqqol ko'rsatib berdi.

Masalan, '.'olyan 1937 yilda Uzoq SHarq janubidan asosan Qozog'iston, qisman O'zbekistonga ham, jami 9 ming xitoy, 1940 yilda G'arbiy Ukraina va Belo- russiyadan shu ikki res'ublikaga jami 61 ming 'olyak, 1944 yilda Qrim ASSRdan faqat O'zbekistonning o'ziga 182 ming qrim tatarlari, 42 ming grek, bolgar, arman va boshqa millat vakillari, Gruziyadan esa asosan O'zbekiston, shuningdek, Qozog'iston va Qirg'izistonga jami 92 ming mesxeti turklari ommaviy de'ortatsiya qilinganini qayd etadi[1]. Oqibatda mamlakatimizda ijgimoiy-siyosiy ko'p millatlilik chuqurlashib bordi.

Yangi asr bo'sag'asida ro'y bergan siyosiy jarayonlar dunyo xaritasida o'nlab yangi davlatlarni yuzaga keltirdi. Yevroosiyo qit'asida yangidan boshlangan geosiyosiy kurash Markaziy Osiyo hududini ham to'lig'icha qamrab oldi. Murakkab geosiyosiy jarayonlar kechayotgan bugungi davrda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash birinchi navbatda bir davlat yoki davlatlar birligi asosida milliy manfaatlar mutanosibligini shakllantirishni taqozo etadi. Hech bir davlat mintaqadagi boshqa davlatlardan ajragan holda yakka o'zi o'z xavfsizligini to'liq ta'minlay olmasligi tarixda ro'y bergan geosiyosiy jarayonlardan ko'p marotaba isbotlangan.

Geosiyosiy ta'limotning mumtoz tadqiqotlariga nazar tashlansa yer yuzidagi strategik raqobat asos e'tibori bilan Yervoosiyo qit'asining qirg'oq hududlaridan uning markaziy hududini egallashga qaratilgan. Bu xartland va rimland o'rtasidagi kurash, tellurokratiya va talassokratiya o'rtasidagi raqobat shaklida ro'y berib kelgan. Markaziy Osiyo «xartland» uchun olib boriladigan kurashda Janubiy Osiyodan kirib boriladigan yoki «rimland»ning Janubiy Osiyodagi qirg'oqlarini egallash uchun eng qulay yo'l hisoblanadi. G'arbiy Yevro'a, Rossiya hamda AQSh geosiyosatchilarining tadqiqotlarida ko'rsatilishicha Markaziy Osiyo hududi albatta u yoki bu geosiyosiy yetakchi davlatning milliy va iqtisodiy manfaatlari doirasiga kirgan. Shu nuqtai-nazardan ushbu mintaqada ro'y berayotgan geosiyosiy jarayonlar, davlatlarning tashqi siyosatlari albatta yetakchi davlatlarning tashqi strategiyasini hisobga olgan holda talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir. G'arb

[1] *Павел Палян.* **Не по своей воле. История и география принудительних миграций в СССР. М.: «Мемориал», 2001. — С. 245-248.**

tadqiqotchilarining ta’kidlashlariga koʻra Markaziy Osiyo mintaqasi Yevro’adagi Bolqon yarim oroli singari Yevroosiyo qit’asidagi strategik muvozanatning saqlanishi yoki buzilishiga jiddiy ta’sir koʻrsatuvchi hudud hisoblanadi. Boshqa soʻzlar bilan aytganda ushbu mintaqaning geosiyosiy ahamiyati faqat uning iqtisodiy imkoniyatlari bilan belgilanmaydi. Uning turli kuchlar manfaatlari tugunida joylashganligi masalaning eng muhim nuqtasi hisoblanadi.

Chunki Markaziy Osiyo dunyodagi yetakchi kuchlarning qit’a markazi uchun olib boradigan strategik raqobati doirasida joylashgan. Mintaqadagi davlatlarning geografik, siyosiy, iqtisodiy sharoiti hamda xususiyatlari ularni turli kuchlar ta’sir doirasiga kirib qolishiga sharoit yaratib bergan. Mamlakatlardagi tabiiy-boyliklar va ularning dunyo bozorlaridan uzoq masofada joylashganligi ularning tashqi hamkorlarga bogʻliq boʻlib qolishlariga olib keladi, oqibatda dadil tashqi siyosat yurgʻizishlariga xalal beradi.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik xalqaro terrorizmga qarshi kurash ‘aytida ayniqsa muhim ahamiyatga ega boʻldi. Yer yuzidagi eng qudratli davlatlar ishtirokida tuzilgan koalitsiya aynan keyingi yigirma yil ichida qit’adagi geosiyosiy toʻqnashuv oʻchogʻi boʻlgan Afgʻonistonda xalqaro terrorizmga qarshi kurash olib bordilar. AQSh kabi yetakchi davlatning mintaqa davlatlari bilan strategik hamkorlikni yoʻlga qoʻyishi mintaqaning strategik ahamiyatini oʻz-oʻzidan oshirib yubordi.

Shu nuqtai-nazardan Markaziy Osiyo xavfsizligi quyidagi asoslarga tayanadi:

1. Mintaqa atrofida kechayotgan jarayonlar geosiyosiy va geoiqtisodiy nuqtai-nazardan talqin qilinishi mintaqaviy xavfsizlik va tashqi strategiyani belgilashda muhim qurol boʻlib xizmat qiladi.

2. Markaziy Osiyo mintaqasi geografik jihatdan yadro quroliga ega boʻlgan qudratli davlatlar oʻrtasida joylashganligi uning geosiyosiy ahamiyatini keskin oshirib yuboradi.

3. Mintaqaning ulkan tabiiy zahiralari uni tashqi ta’sir doirasiga tortib boruvchi muhim geoiqtisodiy omil hisoblanadi.

4. Har bir mamlakat hamda butun mintaqa xavfsizligi faqat mintaqadagi davlatlarning oʻzaro hamkorligi asosida ta’minlanishi mumkin.

5. Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim omillaridan biri bu mintaqadagi davlatlar oʻzaro milliy manfaatlarning uygʻunligini anglash va tan olishdan iborat.

6. Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning navbatdagi omili xavfsizlik kategoriyasining boʻlinmas ekanligini toʻlaqonli anglash hamda tan olishdan iborat.

7. Mintaqaviy xavfsizlik turli darajadagi hamkorlik Tashkilotlari, bitimlari, shartnomalari va birlashmalari negizida mustahkamlanishi maqsadga muvofiqdir.

8. Markaziy Osiyo davlatlari qit'adagi yetakchi kuchlar bilan strategik muvozanatni o'rnatishda mintaqaning ichki hamkorlik tizimini bar'o etishlari zarurdir. Ushbu hamkorlik Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamkorligi kabi tizmining mustahkamlanishi tarzida bo'lishi mumkin.

9. Mintaqadagi biror bir davlatga yetkaziladigan siyosiy tazyiq mintaqadagi har bir davlat uchun baravar qabullanishi va talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir.

10. Mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratishning eng muhim omillaridan biri bu o'zaro manfaatli ichki iqtisodiy bozorni shakllantirishdan iboratdir.

11. Mintaqa davlatlari o'zaro qo'shma iqtisodiy loyihalar va korxonalar Tashkil etishda keng imtiyozlarni ishlab chiqishlari va hayotga tadbiq etishlari zarur.

12. Mintaqa davlatlari turli xalqaro Tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarga kirgan holda yer yuzidagi strategik muvozanatni o'rnatishda o'zaro birlashgan holda ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir.

13. Diniy va etno-hududiy jihatlarining muhimligini tan olish va etno-hududiy asosda ziddiyatlar va to'qnashuvlarga yo'l qo'ymaslik mintaqaviy xavfsizlikning muhim shartlaridan biridir.

14. Mintaqaviy xavfsizlikni o'rnatishda xalqlarning tarixiy, madaniy hamda diniy ildizlarining birligi hodisasiga urg'u berish hamda elatlararo munosabatlarning rivojlanishiga turtki berish maqsadga muvofiqdir.

15. Mintaqadagi tabiiy-zahiralar uchun olib boriladigan kurash jarayonida mintaqadagi suv taqsimoti, etno-hududiy hamda diniy omil bilan bog'liq turli muammolar muqarrar ravishda tashqi kuchlar tomonidan ishga solinishini e'tiborga olish zarur.

16. Mintaqada siyosiy tusdagi yangi Tashkilotlar tuzish emas, balki davlatlar o'rtasida imzolangan iqtisodiy, siyosiy va madaniy asosda qurilgan shartnomalarni rivojlantirish mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga yaxshi xizmat qiladi.

17.Davlatlar o'rtasida bojxona munosabatlari, o'zaro mol ayirboshlashda to'lanadigan boj, tranzit yuklar hamda yo'lovchilarning xavfsizligi masalalari o'zaro qat'iy muvofiqlashtirishni talab etadi.

18. Mintaqadagi elatlar o'rtasidagi etno-madaniy birlik natijasida ro'y beradigan tabiiy migratsiya jarayonlari huquqiy jihatdan o'zaro muvofiqlashtirishni talab etadigan muhim mavzulardan sanaladi.

## MAVZU BO'YICHA KO'RGAZMALI ELEMENLAR:

**Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari,**

**orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o‘zida mujassam etadigan g‘oyalar tizimidir**




## AMALIY MASHG’ULOT

### 1 MAVZU: MUSTAQILLIK VA MILLATLARARO MUNOSOBATLAR TARAQQIYOTI FANI VA UNING MAQSADI, VAZIFALARI

Milliy hamda mintaqaviy xavfsizlik yoki umuman xavfsizlik hodisasi ilmiy muammo sifatida O‘zbekistonda faqat mustaqillikka erishilgandan keyin o‘rganila boshlandi. Ma’lumki, har bir davlat mustaqil rivojlanish yo‘liga qadam qo‘yar ekan o‘z milliy manfaatlari tizimini aniq belgilab olishi, milliy xavfsizlikni ta’minlashning eng asosiy tamoyillari hamda ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqishi zarur. Buning uchun milliy yoki mintaqaviy xavfsizlik qanday tamoyillarga asoslanishini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Xavfsizlik hodisasini geosiyosiy asosda tadqiq qilish O‘zbekistonda ilgari bo‘lmaganligi tufayli yetakchi davlatlarda bu borada olib borilgan izlanishlarga tayanishga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, milliy manfaat, milliy xavfsizlik mavzusi sobiq ittifoqning markaziy qismidagi maxsus tadqiqot markazlarida tegishli mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan. Barcha ittifoqdosh res’ublikalarda bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham ijtimoiy-siyosiy sohadagi olimlarning xavfsizlik masalalariga bo‘lgan ilmiy qiziqishi qat’iy cheklangan edi. Bunga sabab ittifoqdosh res’ublikalarning milliy manfaatlari yagona millat manfaatlariga bo‘ysundirilgan bo‘lib, har bir millatning o‘z milliy manfaatlari bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikr qattiq ta’qib etilgan. Bunday hatti-harakat kommunistik mafkuraga qarshi chiqish, ayirmachilik, xalq dushmanligi va hakozo tamg‘alar bilan ayovsiz qoralangan. Ilmiy jamoatchilik uchun milliy xavfsizlik va milliy manfaat mavzulari yo’iq mavzu bo‘lib, tadqiqotchilar o‘z milliy manfaatlarini chetlagan holda ittifoq manfaatini milliy manfaat sifatida tan olgani va ulug‘lagani uchun ilmiy darajaga ega bo‘lgan. Bir so‘z bilan aytganda o‘z milliy manfaatlarini qanchalik anglagan

bo‘lmasin, olimlar va tadqiqotchilar boshqa yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borishga majbur bo‘lganlar.

Ittifoqning ‘archalanishi oqibatida dunyo xaritasida Markaziy Osiyo mintaqasi geografik, siyosiy hamda iqtisodiy birlik sifatida qaytadan namoyon bo‘ldi. Bu paytda bir tomondan milliy davlatchilik shakllarining rivojlanishi kuzatilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Markaziy Osiyoning umumiy geosiyosiy mavqei, uning geoiqtisodiy salohiyati mavzusi ‘aydo bo‘ldi. Mintaqaga yetakchi kuchlarning qiziqishi kuchaydi. Bunday vaziyatda mintaqada ilgaridan manfaatlari bo‘lgan hamda bu yerda yangidan iqtisodiy manfaat shakllanayotgan yetakchi kuchlar Markaziy Osiyoni siyosiy jihatdan birlikda ko‘rishdan manfaatdor emasligi geosiyosiy qoidalar ‘rizmasi orqali tahlil qilinganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai-nazardan mintaqaviy xavfsizlik hodisasi faqat geosiyosiy qoidalar va jarayonlar kontekstida tadqiq qilinishi maqsadga muvofiqdir. Zero yetakchi kuchlar u yoki bu mintaqaga kirib borar ekan, avvalo geosiyosiy va geoiqtisodiy maqsadlardan kelib chiqishi tabiiy. Masalan mustaqillika erishgan Markaziy Osiyo res’ublikalari tabiiy zahiralarga g‘oyatda boy mamlakatlar hisoblanadilar. Ushbu boyliklarni jahon bozoriga olib chiqish uchun yetakchi davlatlar o‘rtasida raqobat boshlanganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Bu jarayonda mintaqadagi res’ublikalar o‘rtasida mavjud bo‘lgan barcha ziddiyatli omillar ishga solinishi mumkin. Ma’lumki, Markaziy Osiyo res’ublikalari bir nechta masalalar bo‘yicha o‘zaro qarama-qarshi ‘ozitsiyalarga ega. Ushbu omillarning zarur paytda tashqi kuchlar tomonidan ishga solinishi va buning uchun mintaqa res’ublikalarida turli guruhlar shakllantirilishi ham bugungi kunda sir emas.

Mintaqaviy xavfsizlik mavzusi Markaziy Osiyo kabi ‘olietnik xususiyatga ega, milliy chegaralar, suv taqsimoti kabi nozik masalalarda o‘zaro ziddiyatli ‘ozitsiyada bo‘lgan res’ublikalar uchun juda muhim va dolzarb mavzu hisoblanadi. Bu mavzuning tadqiq qilinishi nafaqat nazariy, balki ko’proq amaliy ahamiyatga egadir.

Mintaqaviy xavfsizlikning asrlardan beri shakllanib kelayotgan geosiyosiy qoidalarga tayangan taqdirda mustahkam asosga ega bo‘lishiga amin bo‘lish mumkin. Chunki har bir mintaqa o‘zining geosiyosiy mavqeiga bog‘liq holda juda jadal yoki nistabatan sust geosiyosiy ta’sirlashuvlar doirasida bo‘ladi. Shu jumladan Markaziy Osiyo mintaqasi ham o‘zining geosiyosiy ahamiyatigia ko‘ra qadimdan u yoki bu strategik kuchlarning geosiyosiy raqobati doirasida bo‘lib kelgan. Mintaqa geosiyosiy ahamiyatining  yuksalish davrlarida bu yerda urush harakatlari avjiga chiqqan. Bunga Buyuk Iskandarning yurishlari, Arab xalifaligi davridagi yurishlar, Chingizxonning bosqinini misol keltirish mumkin. Mintaqa ulkan saltanat markaziga aylangan davrlarda esa boshqa o‘lkalarni o‘zining geosiyosiy ta’sir doirasiga tortgan. Bunga qadimgi davrlarda Chingiz bosqini va

Jaloliddin Manguberdining ozodlik uchun kurashlari, Temur saltanatining butun Yevroosiyo qit’asiga yoyilishi natijasida butun mintaqalarni o‘z tarkibiga tortib borishini hamda Bobur saltatanatini misol keltirish mumkin. Markaziy Osiyoning XIX asrda Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, o‘tgan asrda esa abadiy o‘zaro ziddiyatlar botqog‘ida qolishlari uchun sho‘rolar tomonidan ‘archalab yuborilishi, ular orasida murakkab chegaralar tortilishi va nihoyat 70 yil davomida boshqa davlat tarkibida bo‘lganligi mintaqaning to‘lig‘icha tashqi ta’sir doirasida qolganligini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Masalan, ‘.’olyan 1937 yilda Uzoq SHarq janubidan asosan Qozog’iston, qisman O’zbekistonga ham, jami 9 ming xitoy, 1940 yilda G’arbiy Ukraina va Belo- russiyadan shu ikki res’ublikaga jami 61 ming ‘olyak, 1944 yilda Qrim ASSRdan faqat O’zbekistonning o’ziga 182 ming qrim tatarlari, 42 ming grek, bolgar, arman va boshqa millat vakillari, Gruziyadan esa asosan O’zbekiston, shuningdek, Qozog’iston va Qirg’izistonga jami 92 ming mesxeti turklari ommaviy de’ortatsiya qilinganini qayd etadi[2]. Oqibatda mamlakatimizda ijgimoiy-siyosiy ko’p millatlilik chuqurlashib bordi.

Yangi asr bo‘sag‘asida ro‘y bergan siyosiy jarayonlar dunyo xaritasida o‘nlab yangi davlatlarni yuzaga keltirdi. Yevroosiyo qit’asida yangidan boshlangan geosiyosiy kurash Markaziy Osiyo hududini ham to‘lig‘icha qamrab oldi. Murakkab geosiyosiy jarayonlar kechayotgan bugungi davrda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash birinchi navbatda bir davlat yoki davlatlar birligi asosida milliy manfaatlar mutanosibligini shakllantirishni taqozo etadi. Hech bir davlat mintaqadagi boshqa davlatlardan ajragan holda yakka o‘zi o‘z xavfsizligini to‘liq ta’minlay olmasligi tarixda ro‘y bergan geosiyosiy jarayonlardan ko’p marotaba isbotlangan.

Geosiyosiy ta’limotning mumtoz tadqiqotlariga nazar tashlansa yer yuzidagi strategik raqobat asos e’tibori bilan Yervoosiyo qit’asining qirg‘oq hududlaridan uning markaziy hududini egallashga qaratilgan. Bu xartland va rimland o‘rtasidagi kurash, tellurokratiya va talassokratiya o‘rtasidagi raqobat shaklida ro‘y berib kelgan. Markaziy Osiyo «xartland» uchun olib boriladigan kurashda Janubiy Osiyodan kirib boriladigan yoki «rimland»ning Janubiy Osiyodagi qirg‘oqlarini egallash uchun eng qulay yo‘l hisoblanadi. G‘arbiy Yevro’a, Rossiya hamda AQSh geosiyosatchilarining tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha Markaziy Osiyo hududi albatta u yoki bu geosiyosiy yetakchi davlatning milliy va iqtisodiy manfaatlari doirasiga kirgan. Shu nuqtai-nazardan ushbu mintaqada ro‘y berayotgan geosiyosiy jarayonlar, davlatlarning tashqi siyosatlari albatta yetakchi davlatlarning tashqi strategiyasini hisobga olgan holda talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir. G‘arb

[2] *Павел Палян.* **Не по своей воле. История и география принудительних миграций в СССР. М.: «Мемориал», 2001. — С. 245-248.**

tadqiqotchilarining ta’kidlashlariga ko‘ra Markaziy Osiyo mintaqasi Yevro’adagi Bolqon yarim oroli singari Yevroosiyo qit’asidagi strategik muvozanatning saqlanishi yoki buzilishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi hudud hisoblanadi. Boshqa so‘zlar bilan aytganda ushbu mintaqaning geosiyosiy ahamiyati faqat uning iqtisodiy imkoniyatlari bilan belgilanmaydi. Uning turli kuchlar manfaatlari tugunida joylashganligi masalaning eng muhim nuqtasi hisoblanadi.

Chunki Markaziy Osiyo dunyodagi yetakchi kuchlarning qit’a markazi uchun olib boradigan strategik raqobati doirasida joylashgan. Mintaqadagi davlatlarning geografik, siyosiy, iqtisodiy sharoiti hamda xususiyatlari ularni turli kuchlar ta’sir doirasiga kirib qolishiga sharoit yaratib bergan. Mamlakatlardagi tabiiy-boyliklar va ularning dunyo bozorlaridan uzoq masofada joylashganligi ularning tashqi hamkorlarga bog‘liq bo‘lib qolishlariga olib keladi, oqibatda dadil tashqi siyosat yurg‘izishlariga xalal beradi.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik xalqaro terrorizmga qarshi kurash ‘aytida ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yer yuzidagi eng qudratli davlatlar ishtirokida tuzilgan koalitsiya aynan keyingi yigirma yil ichida qit’adagi geosiyosiy to‘qnashuv o‘chog‘i bo‘lgan Afg‘onistonda xalqaro terrorizmga qarshi kurash olib bordilar. AQSh kabi yetakchi davlatning mintaqa davlatlari bilan strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi mintaqaning strategik ahamiyatini o‘z-o‘zidan oshirib yubordi.

### *1 – Vaziyatli to’shiriq*

### “Mustaqillik va millatlararo munosabatlar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Mustaqillik tufayli O’zbekiston xalqi o’zini milliy-ma’naviy yangilanishda milliy istiqlol g’oyasiga tayanishga alohida ehtibor berdi. Mustabid tuzum davrida amal qilib kelingan, xalqimizning milliy-ma’naviy ruhiyatiga tamomila zid bo’lgan «kommunistik g’oya»dan voz kechildi. O’zbekiston xalqi o’z milliy g’oyasi negizlariga tayangan holda rivojlanish yo’lini tanladi. Uning o’ziga xos sabablari mavjud. Ular asosan quyidagilardan iborat:

Birinchidan. Mustaqillik tufayli mamlakatimiz xalqi o’ziga xos va mos rivojlanish yo’lini tanlash huquqiga ega bo’ldi. Bu esa xalqimizning tarixan qaror to’gan milliy-madaniy meroslarini, qadriyatlarini, ma’naviy-ruhiy olamini qayta tiklagan holda o’z kelajagini ko’rish va qurish imkoniyatini berdi.

Ikkinchidan. «mustabid» totalitar tuzum davrida jamiyat qurishining g’oyaviy asosi bo’lgan kommunistik mafkura targibotchilari mamlakatimiz xalqlari, xususan, o’zbek xalqi turmush tarzi, dunyoqarashi, tarixi, urf-odatlari, anhanalari va milliy xususiyatlarini hisobga olmasdan bizga begona va yot bo’lgan qadriyatlarni,

maqsadlarni singdirishga urinib kelgan. Buning asoratlaridan xalos bo'lishga qaratilgan ma'naviy ehtiyoj mavjud.
Uchinchidan: mahlumki har qanday davlat yohud jamiyat maqsadsiz yashay olmaydi. U rivojlanish uchun ma'naviy asos-larni belgilab oladi. Tarixiy maqsad xalqning milliy-ma'naviy g'oyalarida o'z ifodasini to'adi. SHu mahnoda o'zining mustaqil rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekistonda milliy g'oyani o'rganishga bo'lgan zarurat deb qaralishi lozim.
To'rtinchidan. jamiyat qurilishi tarixida har xil g'oyalar hukmronligi bo'lgan. G'oyaviy maqsadlar tufayli jamiyat hayotida turli xil voqealar ro'y bergan tabiiyki, ular turli xil oqibatlarni keltirib chiqargan. Demak g'oya bilan g'oyaning, maqsad bilan maqsadning, fikr bilan fikrning farqini bilish va anglash uchun ham milliy istiqlol g'oyasi-ni o'rganish zarur.
Beshinchidan. g'oyalar jamiyatdagi turli insonlar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, xalqlar, millatlar maqsadi, orzu intilishlari, hayotni idrok etish ko'nikma va malakalari, xulq-atvor ko'rinishlari, qadriyatlari manfaati bi-lan uzviy bogliq bo'ladi. U yoki bu g'oya qaysi manfaatni qan-day tamoyillarga asoslangan holda ifoda etishiga qarab bir-biridan farqlanadi, uning maqsadiga va qanday toya ekanligiga baho beriladi.
Oltinchidan. g'oyalar tahsir ko'lami bilan ham bir-biridan farqlanadi. Ayrim g'oya tarafdorlari mutlaq haqiqatni ehtirof etishga dahvo qilishi mumkin. Ular o'z maqsadlari-ni boshqa xalqlarning milliy xususiyatlarini hisobga olmasdan, qanday yo'l bilan bo'lmasin «singdirishga» urinadi. Demak bu borada har birimizdan ogohlik talab etiladi. Farzandlarimiz o'z xalqining, mamlakatining tarixini, milliy-madaniy merosini, qadriyatlarini to'tatmasligi, o'ziga xoslikni yo'qotmasligi uchun ham milliy g'oyani o'rganishi, bilishi kerak bo'ladi.

Savollar:

1. G'oya tushunchasi,mazmuni-moxiyati nimadan iborat?
2. G'oya va mafkuralarning inson va jamiyat xayotidagi axamiyati nimadan iborat?
3. Mustaqillik o'zbek halqiga nima berdi?
4. G'oya va mafkuraning uziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

## MAVZU BO'YICHA KEYSLAR TO''LAMI:

### Keys №1

### Aholi turli qatlamlarini g'oyaviy qurollantirish

***Fuqaro tarbiyasini tashkil etish.*** Ma'rifat'arvar adib Abdulla Avloniy «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo - saodat - yo

falokat masalasidir» deganlarida avvalo ***farzand*** tarbiyasini, ***avlod*** tarbiyasini, qolaversa ***millat tarbiyasini*** nazarda tutib aytgan edi.

Milliy istiqlol g'oyasini o'qitishdan ko'zlangan ***asosiy maqsad*** - zamon talablariga mos insonni tarbiyalashdan iborat. Buning uchun fuqarolarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, qadriyatlarni singdirish kerak:

1) Faol insonni tarbiyalashga ehtibor berish.
2) SHaxsning salohiyatini maksimal yuzaga chiqarish.
3) Har bir bola iqtidorini rivojlantirish.
4) Manfaatdorlikka ishontirish.
5) Muammolarni hal qilishga yo'naltirish.
6) SHaxs ijodiy fikrlashini yuksaltirish.
7) Nazariy fikrlarga amaliy shakllar berish.
8) Bilimlarni harakatga aylantirish.
9) ‘ragmativ fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash.
10) Mehnatga ishtiyoq uyg'otish, tirishqoq va serg'ayrat shaxsni tarbiyalash.
11) SHaxsni o'z ustida qunt bilan ishlashga o'rgatish.
12) O'z ishonchini qaror to'tirishdan manfaatdorlikka undash.
13) Milliy g'ururi baland, mashuliyatli, intizomli shaxsni rivojlantirish.
14) Kelajakka ishonch uyg'otish.
15) Milliy istiqlol mafkurasini yurakka yaqin g'oyalar orqali singdirish va h.k.

## MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI:

1. Islom Karimov tomonidan milliy-ma'naviy tiklanish konse'siyasining ishlab chiqilishi va uning mohiyati.
2. O‘zbekistondagi milliy-ma'naviy siyosatning mohiyati. Qanday milliy madaniy markazlarni bilasiz?
4. Milliy qadriyatlar, ularning millatlararo munosabatlarda tutgan o‘rni.

Adabiyotlar: A1. A3. A6.A13.A19.A20.A21.A36,A38,A39, D1. D3.D10.D11., Q1,Q4, Q15, E1,E2,E9.

## 2. MAVZU: O‘ZBEKISTON BAG‘RIKENGLIKNING TARIXIY ILDIZLARI

**Reja:**

1. Markaziy Osiyo mintaqasida Buyuk I’ak yo`li – mintaqalararo aloqa manbari.
2. Ilk o`rta asrlarda xalqaro vamadaniy aloqalar.
3. Rivojlangan va so`nggi o`rta asrlarda liniy bag`rikenglik.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida millatlararo munosabatlarni yoritilishi.

**Tayanch iboralar:** rivojlanish, yuksalish, barqarorlik, inqiroz, ‘arokandalik.

Insoniy fazilat an’analari qadimdanoq aynan Shars xalqlariga xos xususiyat bulib, u xozirgi davrgacha avlodlar tomonidan saqlanib, davom etib kelmoqda. IX asr oxiri X asrning birinchi yarmida yashab utgan mashxur olim Abu Nasr Farobiy uzining “Fozil odamlar shaxri ” kitobida shunday deb yozgan edi: “xaqiqiy saodatga erishish yulida bir-biriga yordamlashish uchun odamlarni birlashtiruvchi shaxar fozillar shaxridir va saodatga erishish uchun bir-biriga yordamlashish maqsadida birlashgan kishilar jamiyati — fozil jamiyatdir. Yaqin kishisi uchun va barcha shaxarlar yaxshi fazilatli bulishi uchun xech narsani ayamaydigan xalq, millat yaxshi fazilatli xalq, yaxshi fazilatli millatdir ”. Davlatimiz raxbari I.A. Karimov olimning mazkur g‘oyasi va ezgulik xaqidagi boshqa ku’lab g‘oyalarni davom ettirib quyidagilarni aytgan edi: “O‘zbekiston xalqining ku’chiligi o‘zining shaxsiy manfaatlarini emas, balki o‘z oilasi, qarindoshlari, yor-birodarlari va qo‘shnilarining sog‘ligi xamda farovonligi tug‘risida g‘amxurlik qilishni birinchi o‘ringa quyadi. Bu — insonning eng oliy ma’naviy fazilatidir. Bizning xalqimiz xech qachon o‘zini boshqa xalqlardan yuqori quygan emas. Boshqa millatlarga, boshqa dinlarning namoyandalariga munosib Xurmat, extirom kursatib kelgan.

Asrlar davomida shakllanib kelgan yaxshi fazilat va saxovat, mexmondustlik va mexr-muruvvat tuyg‘ulari o‘zbek xalqining yuksak ma’naviy xususiyatlaridir. Bu xususiyatlar eng qiyin tarixiy sinovlar vaqtida o‘zini namoyon etdi va xalqimiz bardamligining negizi buldi”.

Xalqimizning yaxshi fazilatlarining tarixiy ildizlarini urganishda “yaxshi fazilat ” tushunchasining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor berish kerak. Bu so‘zning tarixiy, falsafiy, siyosiy va ruxiy axamiyati mavjud. Ilm-fanda ku’chilik xollarda “yaxshi fazilat” tushunchasi “bag‘rikenglik” (“tolerantlik”) so‘zining sinonimq

sifatida ishlatiladi va turli tillarda so‘zning o‘zagini saqlab qolgan xolda talqin etiladi. Shu bilan birga yaxshi fazilat

-ku’ qirrali, keng miqyosli tushuncha bulib, o‘zaro xurmat, diqqat-e’tibor, saxovat, mexr-muruvvat, xalollik, xamnafaslik, qushnilari va yaqin kishilari qayg‘usiga xamdardlik, inson’arvarlikda namoyon buladi. Yaxshi fazilat xayvonot dunyosiga, tabiatga munosabatda xam kurinadi.

Yaxshi fazilatning tarixiy ildizlari qadim o‘tmishga borib taqalishini ta’kidlab o‘tmoq kerak. Ular mamlakatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy munosabatlar bilan, qadimiy savdo, karvon aloqalari bilan muayyan xududdagi axolining turmush sharoiti bilan, xarbiy-siyosiy vaziyatlarning xususiyatlari va axoli migratsiyasi (tarixiy kuchishi) bilan bog‘liqdir. Shu sababli biz mazkur jarayonlarga qisqacha tuxtalib o‘tamiz.

Dunyo xalqlari va mamlakatlari o‘zlarining tarixiy-madaniy rivojlanishi jarayonida turli moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratib, o‘ziga xos sivilizatsiyalarga asos solganlar. Sivilizatsiyalarning benixoya xilma-xilligi ular rivojlanish bosqichlariga bo‘linishi, avvalo, ijtimoiy-itstisodiy muxitning xususiyatlari bilan, iqlim sharoitlari, tabiiy-jugrofiy joylashish, xujalik yuritish usullari va shu kabi shart- sharoitlar bilan bog‘liq edi. Biz ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi xalqlarning va asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan axolining xududlararo munosabatlari qanday vujudga kelib, rivojlanganligi misolida ana shunday bog‘liqlikni kuzatishimiz mumkin. Tarixdan ma’lumki, xalqlar urtasidagi xilma-xil munosabatlar, xujalik yuritishning turli shakllari va moddiy-ma’naviy soxaning omillari g‘arbga nisbatan qadimiy Sharqda ancha erta ‘aydo bo‘lib, rivojlana boshlagan. Buning uchun qadimgi va o‘rta asr dunyo tarixini esga olishning o‘zi kifoya qiladi. Ana shu tarixdan ma’lumki, xujalik yuritishning muayyan shakllarini, kundalik turmushning ba’zi urf-odatlari, an’analarini Fa’b xalqlari Sharq xalqlaridan urganganlar.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, xalqlar o‘rtasidagi doimiy tarixiy-madaniy aloqalar jarayoni va mexnat taqsimoti ishlab chiqarishning umumiy xajmini va qo‘shimcha maxsulotni ko’paytirishni ta’minlagan, bu esa fikrimizcha extiyojlar tizimini chigallashtirgan. Bu jarayon o‘z navbatida bora-bora sinflarga bulinish va xalqlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy va tarixiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi Meso’otamiya madaniyati va Xindistondagi Xara’’a madaniyati kabi Sharqdagi ibtidoiy sivilizatsiyalar bilan bevosita bog‘liq ravishda shakllandi va rivojlanib bordi. Ikki mashxur sivilizatsiya oralig‘ida joylashgan O‘rta Osiyo, Sharq xalqlarini iqtisodiy va madaniy jixatdan bir butun qilib birlashtirdi va ular o‘rtasida turli munosabatlarni rivojlantirishda katta axamiyatga ega bo‘ldi.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotining barcha davrlarida turli qabilalar, xalqlar, etnoslar oʻrtasidagi oʻzaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar totuv qushnichilik, mexr-muruvvat va saxovat tamoyillariga asoslangan ‘aytlarda gurkirab rivojlanib kelganligini ta’kidlamoq kerak.

Bizning diyorimizda yashagan qadimiy xalqlar ham bu jarayondan chetda qolmaganlar va ularning mexr-muruvvat sifatlari qadim tarixga borib taqaladi. Insoniy fazilatlarning tarixiy ildizlari, yuqorida aytilganidek, madaniy va iqtisodiy munosabatlarning ravnaqi, qadimiy yullarning rivojlanishi va sivilizatsiya markazlarining vujudga kelishi bilan bevosita bogliqdir. Dastlabki tarixiy-madaniy va iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi xamda rivojlanishi xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida mazkur sivilizatsiyaning ilk xususiyatlari sifatida ishlab chiqarish va madaniyat soxasidagi yutuqlar keng ommalashganligiga aloxida e’tibor bermoq kerak, xalqlar esa aloqalarni kengaytirishdan va oʻz yutuqlarini boshqa markazlarga ommalashtirishdan manfaatdor bulganlar.

Xozirgi tarixiy-falsafiy, ruxshunoslik (psixologiya) adabiyotida va ilmiy-ommabop kitoblarda nisbiy rivojlangan jamiyat shaklini “sivilizatsiya ” deb atash odat bulgan. Ana shu ta’rifga koʻra, sivilizatsiyali jamiyat ijtimoiy madaniyat taraqqiyotining eng yuksak namunasi (etaloni) bulib xizmat qilishi mumkin. Bu jamiyat bir vaqtlar iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tartib va qabul etilgan siyosiy barqarorlikning muayyan darajasiga erishmagan boshqa jamiyatga qarama-qarshi quyilgan edi. Sivilizatsiyaning birinchiligi yoki ikkinchiligiga qaramay, u umumiy etnik xususiyatlari bilan birlashgan moddiy madaniyatni yaratadigan va muayyan qadriyatlar tizimiga qarab ish tutadigan, dexqonchilik va xunarmandchilik bilan shugʻullanadigan, shaxarlar ‘aydo etadigan ijtimoiy organizmlar tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichidir.

Oʻzbekistonda sivilizatsiyaning shakllanib rivojlanishida, bagʻrikenglik an’analarining mustaxkamlanib kuchayishida, savdo- sotiq va aloqa yullarining axamiyati katta buldi. Qadimiy yullar muammolariga oid tadiqotlar XIX asrning ikkinchi yarmidan shu kungacha davom etmoqda. Ana shu tadqiqotlar Oʻzbekiston sivilizatsiyasi butun Sharq sivilizatsiyasi bilan bevosita bogʻliq ekanligini uzil-kesil tasdiqlab berdi.

Oʻrta Osiyo qadimiy yullarini urganish uchun ku’gina tadiqotlar oʻtkazildi. Masalan XIX asrning oxirlari va oʻtgan asrning boshlarida tadiqotchilar oʻrta asr mualliflarining asarlaridan Balxdan Kesh va Samarqandgacha boʻlgan sadimiy va boshqa yunalishlardagi yullarni bayon etilganini to’dilar. Tadqiqot ma’lumotlarining kursatishicha, ayrim qadimiy yullaridan oʻrta asrgacha foydalanib kelingan.

O‘lkamiz xududida yashagan eng qadimiy xalqlar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi ko‘hna yozma manbalarda shu xududlarda istiqomat qilgan axolining iqtisodiy va madaniy aloqalari tug‘risida yetarlicha tuliq ma’lumot bayon etilmagan. Shu sababli arxeologiya, etnografiya va antro’ologiya soxasidagi izlanishlarning ma’lumotlari g‘oyat axamiyatlidir

Miloddan avvalgi 3-ming yillikka kelib O‘rta Osiyo xududlari Meso’otamiya, Xindiston, Eron kabi yuqori sivilizatsiyali mamlakatlar bilan xam o‘zaro munosabatlar o‘rnatgan edi. Zarafshonning yuqori oqimida joylashgan Sarazm qadimgi madaniyat yodgorliklarida xind sivilizatsiyasi ashyolariga o‘xshash buyumlar: chitnoq toshdan yasalgan bezaklar, so’ol idish namunalari to’ilgan. Shu o‘xshashliklarga qarab, ikkala xudud o‘rtasida o‘zaro munosabatlar mavjud bo‘lganligini qayd etish mumkin. Shuni aniq aytish kerakki, miloddan avvalgi 2-3-ming yilliklarda O‘rta Osiyo janubida yashagan axoli Meso’otamiya va Eron xalqlari bilan, markaziy xududlarning axolisi esa, asosan, Xindiston bilan bevosita aloqada bo‘lgan. 2-ming yillik o‘rtalarida ichki va tashqi savdo bilan shug‘ullangan Meso’otamiya savdogarlari uchun Meso’otamiya va qushni davlatlar buyicha yul ko‘rsatkich-xaritalar bo‘lganligi ma’lumotlar borligini ta’kidlash darkor.

Shu davrda o‘rta dengiz irqiy qiyofasiga va o‘z moddiy madaniyatiga ega bulgan xalqlar migratsiya jarayonlari ta’sirida maxalliy axoliga yaqinlashganlar. O‘zbekiston xududi (Chust, Dalvarzin, So’olli, Jarquton, Mullali)dagi jez davri yodgorliklari va janubi-g‘arbiy Tojikiston (Shersoy, Makanimar), Janubiy Turkmaniston (Oltinte’a, Namozgox), shimoliy Afg‘oniston va shimoliy Eron madaniyat yodgorliklari aynan shundan dalolat beradi. 2-ming yillikning oxiri va 1- ming yillikning boshlaridagi migratsiya jarayonlari kuchayishi natijasida O‘rta Osiyoning katta xududida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Shu davrda shimoldan kelgan kuchmanchi Andronovo madaniyati qabilalari maxalliy axoli bilan qo‘shilib keta boshlab, dexqonchilik bilan shug‘ullanish uchun qulay yerlarga joylashdilar xamda o‘troq xayot tarziga o‘ta boshladilar.

Binobarin, qadimiy shaxar axolisining soni va bu shaxarlar joylashgan yerni aniqlash juda maroqli va baxsli masaladir. Agar Xozirgi vaqtda o‘rta asrlar, mustamlakachilik davri, sovet davri va mustaqillik davri shaxarlari axolisining soni tug‘risida muayyan tadqiqotlar o‘tkazilgan va aniq natijalar olingan bo‘lsa, qadimgi shaxarlar axolisining sonini aniqlash vazifalari yetarlicha urganilmagan. Qadimgi shaxarlar axolisining soni tug‘risidagi dastlabki ma’lumotlar xorijiy olimlarning tadqiqotlari natijasida aniqlandi. Jumladan, G. Chaed shaxarsozlikning asosiy belgilari xaqida ga’irib, besh ming va undan ko’proq kishi yashagan manzilgoxlarni shaxar deb xisoblashni taklif qildi. G.Frankfort maxsus tadqiqotlar natijasida Meso’otamiya qadimiy shaxarlari axolisining

zichligi 1 gektarga 400 kishini tashkil qilar edi, degan xulosaga keldi. V. M. Masson mazkur siyosiy taxlil xulosalariga tayanib, Kaynubadshoxda (Tojikiston) taxminan 2000 kishi, Zarte'ada (O'zbekiston) taxminan 6.500 kishi yashagan bulishi mumkin, degan royani ilgari surdi. Ammo, tadqiqotchi o'z g'oyasini to'la-to'kis asoslab bermagan va bu xususdagi o'z shubhasini aytgan.

Bir vaqtlar qadimgi o'lkamiz xududida yashagan axolining nomi bizga malum emas O'rta Osiyo axolisi tug'risidagi dastlabki ma'lumotlar Sharqiy Yunon-Rim manbalarida tilga olinadi.

Yunon tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Yevrosiyo katta xududida yashagan qabilalar “skiflar” degan umumiy nom bilan atalgan. Gerodot ularga yuqori baxo berib, “bu xalq o'zining qadimiyligi jixatidan Misrliklardan qolishmaydi ” deb yozgan. O'sha zamondagi boshqa bir tarixchi — 'liniy O'rta Osiyo xududida yana 20 ga yaqin qabila mavjudligini eslatadi. Yozma manbalarda skiflarning ikki yirik qabilasi: saklar va massagetlar bulganligi xam qayd etiladi.

Bexistun kitoblarida saklar uch turga (xaumavarka, tigraxauda, tiay-tara daraya)ga bulinadi. Massagetlar turrisida Xam turli fikrlar bor: ular maxalliy chorvador va jangovor jangchi bo'lganlar. Ammo, bu xalq va qabilalar aynan qaysi irqqa mansubligi xaqida yozma ma'lumotlar yo'q.

“Avesto”da o'lkamiz xududida yashagan qadimiy qabilalar xaqida ba'zi ma'lumotlar berilgan. Shunga binoan, jamiyat a'zolari o'sha paytda 4 qismga bulingan, ularning birinchisi uy, oilaviy jamiyat bulib “nmana” yoki “dmana”, ikkinchi qarindoshlik jamiyati — “vis”, uchinchi qabila — “zantu”, turtinchisi qabilalar ittifoqi — “daxro ” deb atalgan. Yashtlarning uchinchi bobida bunday deyilgan: “biz Mitra xudosiga ibodat qilamiz, xech kim unga yolg'on ga'irishga xaqi yo'q: agar uyda oila boshlit, urug' oqsoqoli, qabila va davlat boshlig'i yolronchi bo'lsa

-jaxli chiqqan Mitra oilani, urug'i, davlatni va uning boshliqlarini yo'q qilib tashlaydi”.

“Avesto ’da rahbariyat tizimiga oid ma'lumotlarga ko'ra viloyat “Daxyu” deb, uning boshlig'i esa “Daxyuopati” deb atalgan. Davlatni boshqaruvchi kishi “Kavi ” yoki “Sastar ” deb atalgan.

Ammo bu manbada shaxarlar va qishloqlarning xokimlari xaqida ma'lumot yo'q. “Avesto” qadimgi jamiyatni uch tabaqaga bo'ladi. Bu tabaqalar — qoxinlar, xarbiylar, chorvadorlar va Xunarmandlardir. Shu manbadagi turli ma'lumotlarga qarab muloxaza yuritganda qadimiy shaxarlarda zargarlik, kulolchilik, tukuvchilik va temirchilik kasblari rivojlangan.

O'lkamiz xududida miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmida yashagan turli xalqlar qadimgi sharqiy eroniy til va laxjalarda ga'lashganlar,

ularning etnik qiyofasi va tillari bir-biriga yaqin bo‘lgan. Shu sababli surdlar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, saklar va massagetlar qardosh xalqlar bo‘lib, bir-birlarini yaxshi tushunganlar. Ayniqsa, dexqonlar va o‘troq qabilalarning moddiy va ma’naviy madaniyati, shaxar toifasidagi xujalik va madaniyati o‘xshash darajada bo‘lgan.

G’arbda mutafakkirlarning eng ko’zga ko’ringan vakili ‘ost’ozitivizmning yirik namoyondalaridan biri ingliz fayla-sufi Karl Poperdir. O’z vaqtida uning juda ko’p shov-shuvlarga sabab bo’lgan, 1943-1944 yillarda chop etilgan “Ochiq jamiyat” asarida, u tarixning qandaydir umumqonuniyat asosida taraqqiy etishini va umuminsoniyat tarixini inkor qiladi. Uning jamiyat tarixiga bo’lgan nuqtai nazari shundan iboratki: “insoniyatning yakka, umumiy qonuniyatga bo’ysunuvchi tarixi yo’q, faqatgina inson hayotining turli jabha(aspekt)lari bilan bog’liq cheksiz tarixlar mavjud va ularning ichida siyosiy hokimiyat tarixi alohida ahamiyatga ega”[3].

Poperning fikricha, jamiyat taraqqtiyotida “hech qanday tarixiy qonuniyatlar bo’lishi mumkin emas”. Jamiyat tarixi deganda, avvalo siyosiy xokimiyat tarixiga ko’proq ehtiborni qaratish lozim. Biroq siyosiy hoki-miyat tarixi, bu albatta dunyo tarixi emas. U mavjud tarixlarning bir qismi xolos.

Bugungi kunda millat’arvarlik davlat siyosati shakllanishiga tahsir qiluvchi omillar mohiyatidan kelib chiqib, ko’pgina davlatlar xorijdagi vatandoshlarga siyosiy jihatdan o’zlari yashayotgan davlatning keng ommasiga tahsir etish va iqtisodiy jihatdan mamlakatga moliyaviy yordam berishga qodir kuch sifatida qarashligini tahkidlash zarur.

Davlatlarning xorijda yashovchi dias’oralariga strategik zaxira sifatida qarashini quyidagi holat ham tasdiqlaydi. Masalan, bugungi kunda dunyoning 140 dan ortiq mamlakatida koreyslar istiqomat qilmoqda. Koreya o’zining dunyodagi geosiyosiy mavqei va siyosiy-madaniy tahsirini mustahkamlashda ana shu omilga alohida ehtibor bermoqda. Jumladan, mutaxassislar “Global Korean Community” (“Xalqaro koreyslar hamjamiyati”) tashkilotining tuzilganini ham shu niyat bilan bog’lashmoqda[4].

---

[3] К.Поппер. Открытое общество и его враги. М., 1992, Т.2, с.312

[4] *Хан ‘В.* Корейское межаународное сообшество: утопия или перспектива // “Корё синмун’ 30 июня, 2002.

## MAVZU BO’YICHA KO’RGAZMALI ELEMENLAR:




## AMALIY MASHG’ULOT:

## 2. MAVZU: O‘ZBEKISTON BAG‘RIKENGLIKNING TARIXIY ILDIZLARI

Insoniy fazilat an’analari qadimdanoq aynan Shars xalqlariga xos xususiyat bulib, u xozirgi davrgacha avlodlar tomonidan saqlanib, davom etib kelmoqda. IX asr oxiri X asrning birinchi yarmida yashab utgan mashxur olim Abu Nasr Farobiy uzining “Fozil odamlar shaxri ” kitobida shunday deb yozgan edi: “xaqiqiy saodatga erishish yulida bir-biriga yordamlashish uchun odamlarni birlashtiruvchi shaxar fozillar shaxridir va saodatga erishish uchun bir-biriga yordamlashish maqsadida birlashgan kishilar jamiyati — fozil jamiyatdir. Yaqin kishisi uchun va barcha shaxarlar yaxshi fazilatli bulishi uchun xech narsani ayamaydigan xalq, millat yaxshi fazilatli xalq, yaxshi fazilatli millatdir ”. Davlatimiz raxbari I.A. Karimov olimning mazkur g‘oyasi va ezgulik xaqidagi boshqa ku’lab g‘oyalarni davom ettirib quyidagilarni aytgan edi: “O‘zbekiston xalqining ku’chiligi o‘zining shaxsiy manfaatlarini emas, balki o‘z oilasi, qarindoshlari, yor-birodarlari va qo‘shnilarining sog‘ligi xamda farovonligi tug‘risida g‘amxurlik qilishni birinchi o‘ringa quyadi. Bu — insonning eng oliy ma’naviy fazilatidir. Bizning xalqimiz xech qachon o‘zini boshqa xalqlardan yuqori quygan emas. Boshqa millatlarga, boshqa dinlarning namoyandalariga munosib Xurmat, extirom kursatib kelgan.

Asrlar davomida shakllanib kelgan yaxshi fazilat va saxovat, mexmondustlik va mexr-muruvvat tuyg‘ulari o‘zbek xalqining yuksak ma’naviy xususiyatlaridir. Bu xususiyatlar eng qiyin tarixiy sinovlar vaqtida o‘zini namoyon etdi va xalqimiz bardamligining negizi buldi”.

Xalqimizning yaxshi fazilatlarining tarixiy ildizlarini urganishda “yaxshi fazilat ” tushunchasining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor berish kerak. Bu so‘zning

tarixiy, falsafiy, siyosiy va ruxiy axamiyati mavjud. Ilm-fanda ku’chilik xollarda “yaxshi fazilat” tushunchasi “bag‘rikenglik” (“tolerantlik”) so‘zining sinonimq sifatida ishlatiladi va turli tillarda so‘zning o‘zagini saqlab qolgan xolda talqin etiladi. Shu bilan birga yaxshi fazilat

-ko’p qirrali, keng miqyosli tushuncha bulib, o‘zaro xurmat, diqqat-e’tibor, saxovat, mexr-muruvvat, xalollik, xamnafaslik, qushnilari va yaqin kishilari qayg‘usiga xamdardlik, inson’arvarlikda namoyon buladi. Yaxshi fazilat xayvonot dunyosiga, tabiatga munosabatda xam kurinadi.

Yaxshi fazilatning tarixiy ildizlari qadim o‘tmishga borib taqalishini ta’kidlab o‘tmoq kerak. Ular mamlakatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy munosabatlar bilan, qadimiy savdo, karvon aloqalari bilan muayyan xududdagi axolining turmush sharoiti bilan, xarbiy-siyosiy vaziyatlarning xususiyatlari va axoli migratsiyasi (tarixiy kuchishi) bilan bog‘liqdir. Shu sababli biz mazkur jarayonlarga qisqacha tuxtalib o‘tamiz.

Dunyo xalqlari va mamlakatlari o‘zlarining tarixiy-madaniy rivojlanishi jarayonida turli moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratib, o‘ziga xos sivilizatsiyalarga asos solganlar. Sivilizatsiyalarning benixoya xilma-xilligi ular rivojlanish bosqichlariga bo‘linishi, avvalo, ijtimoiy-itstisodiy muxitning xususiyatlari bilan, iqlim sharoitlari, tabiiy-jugrofiy joylashish, xujalik yuritish usullari va shu kabi shart- sharoitlar bilan bog‘liq edi. Biz ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi xalqlarning va asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan axolining xududlararo munosabatlari qanday vujudga kelib, rivojlanganligi misolida ana shunday bog‘liqlikni kuzatishimiz mumkin. Tarixdan ma’lumki, xalqlar urtasidagi xilma-xil munosabatlar, xujalik yuritishning turli shakllari va moddiy-ma’naviy soxaning omillari g‘arbga nisbatan qadimiy Sharqda ancha erta ‘aydo bo‘lib, rivojlana boshlagan. Buning uchun qadimgi va o‘rta asr dunyo tarixini esga olishning o‘zi kifoya qiladi. Ana shu tarixdan ma’lumki, xujalik yuritishning muayyan shakllarini, kundalik turmushning ba’zi urf-odatlari, an’analarini Fa’b xalqlari Sharq xalqlaridan urganganlar.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, xalqlar o‘rtasidagi doimiy tarixiy-madaniy aloqalar jarayoni va mexnat taqsimoti ishlab chiqarishning umumiy xajmini va qo‘shimcha maxsulotni ko’paytirishni ta’minlagan, bu esa fikrimizcha extiyojlar tizimini chigallashtirgan. Bu jarayon o‘z navbatida bora-bora sinflarga bulinish va xalqlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy va tarixiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi Meso’otamiya madaniyati va Xindistondagi Xara’’a madaniyati kabi Sharqdagi ibtidoiy sivilizatsiyalar bilan bevosita bog‘liq ravishda shakllandi va rivojlanib bordi. Ikki mashxur sivilizatsiya oralig‘ida joylashgan O‘rta Osiyo, Sharq

xalqlarini iqtisodiy va madaniy jixatdan bir butun qilib birlashtirdi va ular o‘rtasida turli munosabatlarni rivojlantirishda katta axamiyatga ega bo‘ldi. Insoniyat jamiyati taraqqiyotining barcha davrlarida turli qabilalar, xalqlar, etnoslar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar totuv qushnichilik, mexr-muruvvat va saxovat tamoyillariga asoslangan ‘aytlarda gurkirab rivojlanib kelganligini ta’kidlamoq kerak.

Bizning diyorimizda yashagan qadimiy xalqlar ham bu jarayondan chetda qolmaganlar va ularning mexr-muruvvat sifatlari qadim tarixga borib taqaladi. Insoniy fazilatlarning tarixiy ildizlari, yuqorida aytilganidek, madaniy va iqtisodiy munosabatlarning ravnaqi, qadimiy yullarning rivojlanishi va sivilizatsiya markazlarining vujudga kelishi bilan bevosita bogliqdir. Dastlabki tarixiy-madaniy va iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi xamda rivojlanishi xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida mazkur sivilizatsiyaning ilk xususiyatlari sifatida ishlab chiqarish va madaniyat soxasidagi yutuqlar keng ommalashganligiga aloxida e’tibor bermoq kerak, xalqlar esa aloqalarni kengaytirishdan va o‘z yutuqlarini boshqa markazlarga ommalashtirishdan manfaatdor bulganlar.

Xozirgi tarixiy-falsafiy, ruxshunoslik (psixologiya) adabiyotida va ilmiy-ommabop kitoblarda nisbiy rivojlangan jamiyat shaklini “sivilizatsiya ” deb atash odat bulgan. Ana shu ta’rifga ko‘ra, sivilizatsiyali jamiyat ijtimoiy madaniyat taraqqiyotining eng yuksak namunasi (etaloni) bulib xizmat qilishi mumkin. Bu jamiyat bir vaqtlar iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tartib va qabul etilgan siyosiy barqarorlikning muayyan darajasiga erishmagan boshqa jamiyatga qarama-qarshi quyilgan edi. Sivilizatsiyaning birinchiligi yoki ikkinchiligiga qaramay, u umumiy etnik xususiyatlari bilan birlashgan moddiy madaniyatni yaratadigan va muayyan qadriyatlar tizimiga qarab ish tutadigan, dexqonchilik va xunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan, shaxarlar ‘aydo etadigan ijtimoiy organizmlar tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichidir.

Binobarin, qadimiy shaxar axolisining soni va bu shaxarlar joylashgan yerni aniqlash juda maroqli va baxsli masaladir. Agar Xozirgi vaqtda o‘rta asrlar, mustamlakachilik davri, sovet davri va mustaqillik davri shaxarlari axolisining soni tug‘risida muayyan tadqiqotlar o‘tkazilgan va aniq natijalar olingan bo‘lsa, qadimgi shaxarlar axolisining sonini aniqlash vazifalari yetarlicha urganilmagan. Qadimgi shaxarlar axolisining soni tug‘risidagi dastlabki ma’lumotlar xorijiy olimlarning tadqiqotlari natijasida aniqlandi. Jumladan, G. Chaed shaxarsozlikning asosiy belgilari xaqida ga’irib, besh ming va undan ko’proq kishi yashagan manzilgoxlarni shaxar deb xisoblashni taklif qildi. G.Frankfort maxsus tadqiqotlar natijasida Meso’otamiya qadimiy shaxarlari axolisining zichligi 1 gektarga 400 kishini tashkil qilar edi, degan xulosaga keldi. V. M.

Masson mazkur siyosiy taxlil xulosalariga tayanib, Kaynubadshoxda (Tojikiston) taxminan 2000 kishi, Zartepada (O‘zbekiston) taxminan 6.500 kishi yashagan bulishi mumkin, degan royani ilgari surdi. Ammo, tadqiqotchi o‘z g‘oyasini to‘la-to‘kis asoslab bermagan va bu xususdagi o‘z shubhasini aytgan.

Bir vaqtlar qadimgi o‘lkamiz xududida yashagan axolining nomi bizga malum emas O‘rta Osiyo axolisi tug‘risidagi dastlabki ma’lumotlar Sharqiy Yunon-Rim manbalarida tilga olinadi.

Yunon tarixchilarining ma’lumotlariga ko‘ra, Yevrosiyo katta xududida yashagan qabilalar “skiflar” degan umumiy nom bilan atalgan. Gerodot ularga yuqori baxo berib, “bu xalq o‘zining qadimiyligi jixatidan Misrliklardan qolishmaydi ” deb yozgan. O‘sha zamondagi boshqa bir tarixchi — Pliniy O‘rta Osiyo xududida yana 20 ga yaqin qabila mavjudligini eslatadi. Yozma manbalarda skiflarning ikki yirik qabilasi: saklar va massagetlar bulganligi xam qayd etiladi.

Bexistun kitoblarida saklar uch turga (xaumavarka, tigraxauda, tiay-tara daraya)ga bulinadi. Massagetlar turrisida Xam turli fikrlar bor: ular maxalliy chorvador va jangovor jangchi bo‘lganlar. Ammo, bu xalq va qabilalar aynan qaysi irqqa mansubligi xaqida yozma ma’lumotlar yo‘q.

O‘lkamiz xududida miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmida yashagan turli xalqlar qadimgi sharqiy eroniy til va laxjalarda ga’lashganlar, ularning etnik qiyofasi va tillari bir-biriga yaqin bo‘lgan. Shu sababli surdlar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, saklar va massagetlar qardosh xalqlar bo‘lib, bir-birlarini yaxshi tushunganlar. Ayniqsa, dexqonlar va o‘troq qabilalarning moddiy va ma’naviy madaniyati, shaxar toifasidagi xujalik va madaniyati o‘xshash darajada bo‘lgan.

G’arbda mutafakkirlarning eng ko’zga ko’ringan vakili ‘ost’ozitivizmning yirik namoyondalaridan biri ingliz fayla-sufi Karl Poperdir. O’z vaqtida uning juda ko’p shov-shuvlarga sabab bo’lgan, 1943-1944 yillarda chop etilgan “Ochiq jamiyat” asarida, u tarixning qandaydir umumqonuniyat asosida taraqqiy etishini va umuminsoniyat tarixini inkor qiladi. Uning jamiyat tarixiga bo’lgan nuqtai nazari shundan iboratki: “insoniyatning yakka, umumiy qonuniyatga bo’ysunuvchi tarixi yo’q, faqatgina inson hayotining turli jabha(as’ekt)lari bilan bog’liq cheksiz tarixlar mavjud va ularning ichida siyosiy hokimiyat tarixi alohida ahamiyatga ega”[5].

Poperning fikricha, jamiyat taraqqtiyotida “hech qanday tarixiy qonuniyatlar bo’lishi mumkin emas”. Jamiyat tarixi deganda, avvalo siyosiy

[5] К.Поппер. Открытое общество и его враги. М., 1992, Т.2, с.312

xokimiyat tarixiga ko'proq ehtiborni qaratish lozim. Biroq siyosiy hoki-miyat tarixi, bu albatta dunyo tarixi emas. U mavjud tarixlarning bir qismi xolos.

Bugungi kunda millat'arvarlik davlat siyosati shakllanishiga tahsir qiluvchi omillar mohiyatidan kelib chiqib, ko'pgina davlatlar xorijdagi vatandoshlarga siyosiy jihatdan o'zlari yashayotgan davlatning keng ommasiga tahsir etish va iqtisodiy jihatdan mamlakatga moliyaviy yordam berishga qodir kuch sifatida qarashligini tahkidlash zarur.

Davlatlarning xorijda yashovchi dias'oralariga strategik zaxira sifatida qarashini quyidagi holat ham tasdiqlaydi. Masalan, bugungi kunda dunyoning 140 dan ortiq mamlakatida koreyslar istiqomat qilmoqda. Koreya o'zining dunyodagi geosiyosiy mavqei va siyosiy-madaniy tahsirini mustahkamlashda ana shu omilga alohida ehtibor bermoqda. Jumladan, mutaxassislar "Global Korean Community" ("Xalqaro koreyslar hamjamiyati") tashkilotining tuzilganini ham shu niyat bilan bog'lashmoqda[6].

### *2 – Vaziyatli to'shiriq*

O'zbekistonda bag'rikenglikning tarixiy ildizlari

Foyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va ehtiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. Foyasi yetuk, ehtiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoiy insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqi-mizning SHiroq va To'maris, S'itamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzand-lari - buyuk g'oya sohiblaridir.

Ming yillar o'tsa ham, buyuk ajdodlarimizning matonati va qahra-monligi xalqning xotirasidan o'chmaydi. CHunki ular yuksak g'oyalar - Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu-urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar. Ahmad Yassaviy 60 yildan ziyod umrini yer ostida o'tkazganida ham, Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g'oya tufayli gulxan alangasida ham o'z ehtiqodidan qaytmagan, Nasimiyni tovonidan so'ysalar ham, ishqi ilohiy deb jon bergan.

---

[6] *Хан 'В.* **Корейское межаународное сообщество: утопия или перспектива // "Корё синмун' 30 июня, 2002.**

Jahon tarixidan, jumladan xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulug'vor g'oya kerak ekaniga ko'plab misollar to'iladi.

Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida ‘aydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi.

Insoniyatga «O'zini anglamoq buyuk saodat» ekanligini anglatgan Suqrot ham, «xalqni yakqalam qildim», deya qoniqish hissini tuygan Navoiy ham, Hindiston va ‘okiston ozodligi yo'lida umrini baxshida aylagan Maxatma Gandi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasi bo'lgan ulug' insonlardir.

Milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarni to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan ya'oncha taraqqiyot modelini olaylik. Ya'on milliy mafkurasi «Milliy davlatchilik tizimi» (kokutay), «Fuqarolik burchi», «Ya'on ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylik», «fidoyilik», «vatan'arvarlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat», «modernizatsiya» kabi g'oya va tushunchalar ushbu mamlakatning bugungi kunda erishgan yuksak natijalarga ‘oydevor bo'ldi.

Mafkuraviy mustaqillikka erishish ham taraqqiyotning muhim omillaridan biri. Mustaqillik mafkurasi, milliy uyg'onish millatning o'z tarixi va taqdirini chuqur tushunishi, milliy ongi o'sishi, milliy qadr-qimmatini asrashi, milliy g'urur, vatan'arvarlik tuyg'usi kuchayishi bilan bog'liqdir.

Savollar:

1. G'oyava mafkura, milliy g'oya va milliy mafkura tushunchalarining o'zaro nisbatini qanday tushunasiz?
2. G'oya va mafkura tushunchalarining ontologik va gnoseologik jihatlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
3. Insoniyat tarixi - g'oyalar tarixidir», «Mafkura - istiqlolning yaratuvchisidir» degan tavsiflarning mazmun-mohiyatini qanday tushunasiz?

## Keys №2

## Milliy g'oyani ommaga tushunarli tarzda yetkazish, qurollantirish, shakllantirish *omillari*

Milliy g’oyani ommaga tushunarli tarzda yetkazish, qurollantirish, shakllantirish, to’g’ri idrok qilish malakasini hosil qilish uchun quyidagi ***omillarga ehtibor bermoq zarur:***

1. Yoshlarga ehtiborni yanada kuchaytirish kerak. ***«Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatiga o’tish»*** g’oyasi qathiy tizim doirasida amalga oshishini taqozo etadi. Tarbiya muassasalari deb nomlanuvchi ko’plab jamoat tashkilotlari xususan, «Mahalla», «Oila» jamoatchilik markazi va boshqalar ta’lim muassasalaridan ajralib qolgan. Xamkorlik, hamjihatlikni ta’minlash kerak.

2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi bo’yicha o’qitish texnologiyasi o’zgartirilishi lozim.

3. Darsliklar, xususan mafkura tarbiyalovchi darsliklar (falsafa, tarix, sotsiologiya, dinshunoslik, siyosatshunoslik, «O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti», madaniyatshunoslik, psixologiya, pedagogika va boshqalar) talaba yoshlari qiziqtira olmayapti. Ba’zi darsliklarda qaytaruvlar ko’p.

4. Ilg’or ma’rifatchilar armiyasi kerak. Ular o’sha qishloq o’qituvchisidan tortib, akademik va rahbarlardir. Ular tayyorgarlikdan o’tgan bo’lishi, maxsus mashg’ulotlar yordamida metodik tayyorgarlikdan xabardor bo’lishi, nima haqida, qanday ga’irishligini bilishi lozim.

5. Aholi zich joylashgan hudud, mahallalar, ta’lim-tarbiya muassasa-larida ehtibor bilan ishlar tashkil etilsa, to’g’ri yo’lga qo’yilgan bo’lsa, odamlar bir-biridan tahsirlanib, sog’lom, yangi fikrlarni qabul qilaveradi.

6. Odatlarning shakllanish muddati va bartaraf etish vositalariga, masalan, vahhobiylik, hizbut-tahrirlikka moyil odamlar to’’langan joylar-ning odat, ko’nikmalarini bilish.

7. Yangi odatlarning odamlar hayot sharoitlari va turmush darajasiga mosligi.

8. Yangi g’oyalarning odamlar tabiati va ruhiyatiga mosligi.

## MAVZU BO’YICHA NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mustaqillik yillarida milliy ma’naviyatning tiklanishi va rivojlanishida Islom Karimovning xizmatlari.

2. Ma’naviyat va madaniyat, ularning o‘zaro munosabati.

3. Millatchilik uning namoyon bo‘lishi va salbiy oqibatlari.

4. Millatchilikning siyosiy tusda ‘aydo bo‘lishi, uning xavfli tomonlari.

5. Tajovuzkor millatchilikning shovinizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, irqchilik, fashizm singari yovuz g‘oyalar bilan bog‘liqligi.

6. Markaziy Osiyo mintaqasida XX asr oxirlaridagi vaziyat, uning millatlararo munosabatlarga ta’siri.

7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida millatlararo munosabatlarning yoritilishi.

Adabiyotlar: A1. A14. A17.A19.A20.A21.A28,A38,A39, D1. D3.D10.D11., Q1,Q4,Q5, Q15, E1,E3,E9.

**3 Mavzu: Milliy madaniyatlar va milliy tillarning erkin rivojlanishi uchun shart sharoitlarning yaratilishi. O'zbekiston Respublikasi davlat tili to'g'risidagi Qonun va uning hayotga tadbiq etilishi**

**Reja;**

**1.** Milliy madaniyat va milliy tilning baynalminal tarbiyadagi roli.

**2.** Milliy madaniyat va milliy til rivojlanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi.

**3.** O'zbekiston Respublikasi Davlat tili to'g'risidagi Qonun-baynalminal tarbiya samaradorligini oshirish vositasi.

**Tayanch iboralar:** Vatan, til, qadriyat, oila, mahalla, millat, madaniyat.

Milliy madaniyatlar va milliy tillar jamiyat ta-raqqiyotining eng muhim omillaridandir. Sobiq Sovet Ittifoqi — ko'p millatli davlat edi. Har bir millat va elat o'z madaniyati, o'z tili, o'z tarixi, o'z qadr-qimmatiga egadir. Millatlarning tinch va totuv yashashi, bir-biriga hurmat va izzat bilan qarashi, ko'tarinkilik bilan mehnat qilishi, mamlakat rahbariyatiga. munosabati birinchi navbatda mamlakatning, tuzumning, rahbariyatning shu millat va elatlarning madaniyati va tillariga munosabati yuritadigan siyosatiga bog'liqdir. Qaerdaki milliy madaniyat va milliy til kamsitilsa, xo'rlansa, o'sha yerda milliy nizolar milliy norozilik va to'qnashuvlar 'aydo bo'lishi tabiiy holdir. Qaerdakn milliy madaniyat va milliy til to'talsa, o'sha yerda har qanaqa

baynalminal tarbiya samarasiz, chunki madaniyati, tili kamsitilgan xalq xalqlar do'stligi va xamkorlik to'g'risidagi fikrlarni o'ziga singdirmaydi.

Demak, milliy madaniyatlar va milliy tillar to'g'risida fikr yuritarkanmiz, boshdanoq shu narsani bilib olish kerakki, milliy tilga va milliy madaniyatga bo'lgan hurmat, ularning erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni. yaratib berish, ularning haqiqiy taraqqiyotiga erishish baynalmilal tarbiyaning zaruriy shartidir. Baynalmilal tarbiya sohasida biz yo'l qo'ygan eng katta va eng jiddiy kamchiliklardan biri shundan iboratki, biz baynalmilal tarbiya deganda, uning hamma millatlar uchun umumiy bo'lgan tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish, ulardagi umumiy tomonlar va xislatlarga e'tiborni kuchaytirishnigina tushunganmiz. Holbuki, bay-nalmilal tarbiya millat taraqqiyotiga e'tibor, milliy madaniyat va milliy tilning rivojiga axamiyatni oshi-rishdan boshlanishi kerak. Har bir millat va elat o'zining haqiqiy erkinligani sezsa, o'z tili, madaniyatini, urf-odatlarini har tomonlama rivojlantira olsa, uniig boshqa millatlarga, uni quvvatlab turgan atrofi-

dagi xalqlarga hurmati, hamkorlik istagi o‘sib boradi.

Ko’p millatli davlatda millatlararo munosabatlar, ularning uyg‘unligi yoki keskinligi ko’p jihatdan davlat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatga bog‘liq. Milliy siyosat sohasidagi davlat tomonidan qo‘yilayotgan qadamlar o‘z mazmuni, ta’sir kuchi va oqilona tuzilganligiga qarab yo millatlararo munosabatlarning yaxshilanish yoki kes-kinlashish tomon o‘zgarishiga olib keladi. Bu tadbirlar ayniqsa madaniyat va tilga tegashli bo‘lsa, millat va elatlarning har tomonlama rivojiga xizmat qiladi. Buning o‘z boisi bor. Millat to‘g‘risida so‘z borganda biz odatda birinchi navbatda uning o‘ziga xos madaniyati va jahonda yakkayu yagona bo‘lgan tilini tushunamiz. Milliy madaniyatlar bir-biriga yaqindir, ular doimo bir-birla-rini boyitadilar, ko’p milliy umumiy tomonlarga ega-dirlar. Lekin, shu bilan birga hech vaqt ikki o‘zaro farqsiz, bir xil milliy madaniyatni to’ib bo‘lmaydi. Har bir milliy madaniyat shuning uchun ham millat uchun bebaho, sevimli va jonajonki, u millatning dvdini, yaratuvchilik daxrsini, insonning eng nozik hislarini va tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qiladi. Milliy mada-niyat deganda biz shu millatning tarixi, adabiyoti, tasviriy san’ati, xalq og‘zaki ijodi, fani, axloqi, falsafasi, maorifi, sahna san’ati an’analaryuga tushunamiz.

Milliy madaniyat va milliy til bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Milliy madaniyat o‘z ifodasini milliy til orhaligina to’a oladi.

Madaniyat umumbashariy voqeadir. Madaniyat insoniyatni boshqa moddiy olamdan ajratib turadi. Lekin, bundan madakiyat barcha mintahalarda, xalqlarda bir xil ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Atrofdagi rang-barang olamni har bir xalq o‘zicha idrok etadi, o‘z ongida o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Nima uchun? Chunki, atrof tabiatni, moddiy borliqni har bir millat, elat o‘zi yashab turgan muayyan sharoit ta’sirida qabul qiladi, o‘zi kundalik hayotda to‘qnash keladigan voqealar, hodisalar, jarayonlar ta’sirida o‘rganadi, biladi. Atrof-olamni chopl-sahroda yashaydigan xalq ma’lum bir tarzda, Afrikaning tro’ik o‘rmonlarida yashaydigan boshqa qabila yana boshha tarzda, Tinch okean o‘rtasidagi kichkina orolda yashovchi aholi esa butunlay boshqa bir tarzda habul qiladi. Ularning har biri tabiat atroflaridagi joni-vorlar, o‘zlari bilgan o‘simlik olami, eshitayotgan tovushlar — bularning hammasi har xildir. Bu omillarga jamiyat taraqqiy etgani sari millatning, elatning ongli faoliyati, tafakkur kuchi, o‘z tarixi, ma’naviy va ruhiy hayotining o‘ziga xos tomonlari ta’sir qiladi, millatning soni va salmog‘i ham ma’lum o‘rin egallaydi. Ana shu omillarning hammasi millatning, elatning madaniyati, moddiy hayoti va ruhiy-ma’naviy faoliyatiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatib, natijada milliy madaniyat tusho‘nchasi ‘aydo bo‘ladi va u hech bir vaqt boshqa milliy madaniyatlarni takrorlamaydi. Ularga faqat ozmi-ko’pmi o‘xshash bo‘lishi mumkin.

Bu omillardan tashqari milliy til ham bu jarayonda ma’lum o‘rin tutadi. Atrof-borliqning har bir millat tomonidan o‘ziga xos tarzda idrok etilishi shu millatning tilida aks etadi, o‘z ifodasini to’adi. Har bir til o‘z lug‘at boyligi yordamida o‘z ifodasini to’adi. Har bir til o‘z lug‘at boyligi yordamida o‘z atrofidaga narsalarning xususiyatlari, qirralarini ifoda etadi. Leksn, yuqorida aytib o‘tganimizdek, har bir millat bu borliqni o‘ziga xos tarzda aks ettirgani va anglagani sababli bu xususiyat tilda ham o‘z ifodasini to’masdan iloji yo‘q. Olamning inson ongida aksi, in’ikosining asosiy, muhim jixatlari hamma millatlar va elatlarda bir xil; shu bilan bir qatorda har bir xalqda bu in’ikos, bu o‘ziga xos tomonlarga egadir. Bu o‘ziga xos tomonlar milliy tidda uning lug‘at boyligi orqali o‘z ifodasini to’adi.

Bu masalaga batafsil to‘xtalishimizning sababi, milliy til bilan milliy madaniyatning bogliqligi tabiiy, uzviy va zaruriydir. Ya’ni milliy madaniyat faqat milliy til yordamidagana o‘zining to‘la ifodasini to’a oladi. Boshqa tillaryordamida, ya’ni tarjima orqali milliy madaniyatning asosiy goyalarini, obrazlarini, yo‘nalishlarini ifodalash mumkin va kerak. Ammo milliy madaniyatni boshqa til orqali ifodalash yetarli, deyish bir tomonlama bo‘ladi. Boshqa til to‘g‘risidagi shu g‘oyaga uzoq yillar davomida amal qilganimiz uchun asta-sekin milliy tomonlar, qirralar, xislatlar o‘chib, so‘nib bora boshladi, o‘zbek milliy madaniyatidagi o‘ziga xoslikni yo‘qotib qo‘ya boshladik, og‘zaki nutqimiz yil sayin qashshoqlanib boraverdi, milliy madaniyat degan tushuncha o‘z mazmunini yo‘qotib, oddiy rasmiy so‘zlarga aylanib qoldi.

Milliy til milliy madaniyat uchun shakl beradi, uning mazmunini ifodalash uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi. Milliy madaniyat esa milliy tilga mazmun beradi, ya’ni milliy moddiy va ma’naviy-ruhiy madaniyat o‘zining rang-barang qirralari, jilolarini ifodalovchi vositaga muhtoj. Bu vosita — milliy tildir. Shuning uchun milliy madaniyat milliy tilning rivojisiz mavjud bo‘la olmaydi, milliy til esa faqat milliy madaniyatda o‘z suyanchig‘i va harakatlantiruvchi kuchini to’adi.

Xalq o‘zini erkin va ozod sezishi uchun, birinchi navbatda uning milliy madaniyati o‘z taraqqiyoti uchun zaruriy shart-sharoitlarga ega bo‘lishi kerak. Milliy madaniyat biqiqlikda, tushkunlikda bo‘lib, kamsitilsa, millat bag‘rida asta-sekin norozilik, qoniqmaslik holatlari ‘aydo bo‘lishi tabiiydir. "Nima uchun bunday bo‘laya’ti, bu holatning ildizi qaerda? Buni o‘zgartirish mumkinmi? Bu o‘zgartirishning yo‘li qaerda?" degan savollar tug‘ila boshlaydi. Bu savollarga javob hammavaqt ham to‘g‘ri va adolatli bo‘lavermaydi. Birovlar aybni yuqoridagilarga qo‘yadi, ba’zilar zsa aybni o‘z atrofida yashab turgan boshqa millat vakillariga ag‘daradilar.

1986 yilda Olma-Otadagi voqealardan boshlangan millatlararo to‘qnashuvlar, turli xil nizolar va qonli mojarolar hamon davom etmooda. Millatlararo munosabatlardagi bu keskinliklar Tallinda va Kishinevda, Tbilisida va Bokuda,

Dushanbada va O‘shda, Farg‘ona va Namangan fojialarining sabablari aniqlanganda, har gal bu voqealarning zaminida madaniyat masalalari ham borligi ma’lum bo‘ldi. Uzoq yillar davomida milliy madaniyatlarga nisbatan ma’muriy-buyruqbozlik siyosati amalga oshirildi. Bir tomondan haraganda o‘tgan yillar milliy madaniyatlarning ravnaqi uchun imkoniyatlar ochib berdi: jumhuriyatlarda, masalan, minglab maktablar, o‘nlab oliy bilimgoxlar, Fanlar akademiyasi, ilmiy tadqiqot markazlari, minglab kutubxonalar ochildi va muvaffaqiyatli ishlab bordi. Shu bilan birga, milliy yozuvimiz bir necha marta o‘zgartirildi va bu narsa xalq ongida juda salbiy taassurot qoldirdi. Yil sayin milliy tillarda chiqayotgan adabiyot salmog‘i, sifati, soni millatlararo munosabatlarni rus tilida chop etilayotgan adabiyotga qaraganda kamayib boraverdi. Milliy teatr-larning re’ertuari mafkuraga bo‘ysundirildi va shuning natijasida hashshoqlashib ketdi. Oliy bilimgohlarning ish tartibi va o‘quv. rejasi markazdan belgilangan yagona tartibga bo‘ysundirildi, ko’p sun’iy narsalar milliy madaniyatlarga zo‘ravonlik bilan qo‘shildi va biriktiril-di, millatning ilgorliga yoki qoloqligining yagona me-zoni Ovro‘‘o madaniyatiga yaqinliga, deb tushunildi. Ko’p tadbirlar millatimizning ensasini qotirmasdan iloji yo‘q edi, uni kamsitar va hattoki haqorat qilar edi. Davrga, yuqoridan berilgan ko‘rsatmalarga butun jamiyat hayotini msxxlashtirish shu darajaga borib yetdiki, Uzbekistondek suveren, ya’ni mustaqil sovet sotsialistik jumhuriyatning davlat madhiyasi "Assalom, rus xalqi, buyuk og‘amiz" degan so‘zlardan boshlanadi. Holbuki, jahondagi bironta milliy gimn yoki davlat gamnida boshqa bir millatga sajda bilan murojaat hilinmagan! Milliy davlat madhiyamizning yana o‘ziga xos ajib tomonlari bor: jahondagi hamma milliy va davlat madhiyalaridan farqli o‘laroq, uning matnida uch marta "Lenin" so‘zi takrorlanardi, ikki marta esa "partiya" so‘zi aytib o‘tilardi. V. I. Lenin Toshkentda biror marta ham bo‘lmaganiga qaramay, uning markaziy muzeyi fili-ali ochildi. Holbuki, ayni paytda O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi alohida binoga ega bo‘lolmay tor imoratda siqilib, ta’mirlash ishlariga mablag‘ to’a olmaya’ti. Mana shunday faktlar xalq ommasiga salbiy ta’sir etmasdan iloji yo‘q. Lekin millatlar va elatlarni kamsitish va xo‘rlash ayniqsa milliya tillarga nisbatan olib borilgan siyosatda juda yaqqol ko‘rindi. 30-yillgrga qadar bu sohada nisbatan to‘g‘ri siyosat yuritildi. O‘sha davrda milliy alifbolar tartibga solinib, 48 millat va elat uchun birinchi marta milliy alifbo yaratildi. Barcha milliy jumhuriyat, milliy viloyat va nohiyalar milliy tillarda o‘qish-o‘hitish ishlarini olib boruvchi ming-minglab maktablar, o‘rta va oliy bnlimgoxlar ochildi, o‘qish kitoblari, darsliklar, badiiy va ilmiy-ommz-bo’ adabiyot, ro‘znoma va jaridalar chiqa boshladi. Lekkin 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, milliy tillarga nisbatan bo‘lgan siyosat tubdan o‘zgara boshladi. Ga’ shundaki, o‘ttizinchi yillarning o‘rtasiga kelib, mamla-katimizda sotsializm asosan g‘alaba qozondi, ezuvchi sinflar yo‘q qilindi, jamiyat faqat do‘stona sinflardangina iborat

bo‘lib qoldi, degan xulosa chiqarildi. Shu asosda, endi kommunizm tomon yo‘l olish navbatdagi vazifamiz ekanligi xalq ongiga singdirila boshlandi. Kommunizmda esa hammaga ma’lumki, "sinfiy va milliy farqlar bo‘lmaydi". Shunday ekan, millatlarni asta-sekin bir-biriga qo‘sha boshlash kerak, degan shior ostida ehtiyotkorlik bilan ish boshlab yuborildi. Bu masala, ya’ni millatlarning bir-biriga qo‘shilib ketishi masalasi, I. V. Stalinning partiya XVI sezdida, 1930 yildagi ma’ruzasida "asoslandi" va nazariy qoidaga aylantirildi.

Milliy res’ublikalarda «millatchilikka» qarshi kurashning ikkinchi davri 1943-1947 yillarni o’z ichiga oladi. Bu davrda asosan fa- shistlar bosqinidan ozod qilingan mintaqalarda natsistlar bilan hamkorlik qilganlarni fosh etish bayrog’i ostida «millatchi» unsurlarga qarshi kurashni kuchaytirish partiya tashkilotlari oldiga asosiy vazifa qilib qo’yildi. Bu VKP(b) Markaziy Komitetining ana shunday mazmundagi 2 ta qaror va 2 ta murojaatida o’z ifodasini to’di.

Bu davrda feodal-patriarxal o’tmishni ideallashtirish, tarix- ni xolis yoritmaslik, bu jarayonda millatchilik og’ishlariga yo’l qo’yish, o’tmish qoldiqlari, mahalliychilik elementlariga, milliy mahtsudlikka qarshi kurashish, reaktsion anhanalar va urf-odatlarni ulug’lashga yo’l qo’ymaslik, bunday hodisalarni baholashda sinfiy yondashuvni ta’minlash zarurligi uqgirib kelindi.

Bunday dahvat masalan, KPSS Markaziy Komitetining 1963 yil 9 a’reldagi “Toshkent shahar partiya komitetining rahbar kadrlar bilan olib borayotgan g’oyaviy-tarbiyaviy ishlari haqida”gi va 1972 yil 8 avgustdagi “Toshkent shahar partiya komitetida rahbar kadrlarning markscha-lenincha o’quvlari va iqtisodiy ta’limi haqida”gi qarorlarida ham o’z ifodasini to’di. Xususan, ularda mahalliychilik, milliy kalondimog’lik va mahdudlik, reaktsion anhanalar va marosimlarni maqtashdek millatchilik ko’rinishlariga ayovsiz kurashish, ayrim shaxslar va hodisalarni baholashda sinfiylik ‘ozitsiyasidan chekinayotgan ziyolilarga ‘rintsi’ial baho berish zarurligi uqgiriladi[7]. Mazkur davrda «millatchilik» ko’rinishlarining oldini olishga qaratilgan ko’rsatmalar KPSS Markaziy Komitetining 17 ta qarori, rezolyutsiyasida o’z ifodasini to’di.

Millatlar va milliy tillarning qo‘shilib ketishi nazariyasini amalga oshirishi uchun ketma-ket qator tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Bular asosan quyvdagalardan iborat: a) 1938 yil 13 fevralda SSSR Vazirlar sho‘rosi va VKP(b) Markaziy Komitetining barcha jumhuriyatlarda rus tilini majburiy o‘qitish to‘g‘risidaga qarori qabul qilindi. Rus tilini o‘rgatish uchun ajratilgan soatlar miqdori 10—15 yil davomida 450 soatdan 1600—1800 soatgacha olib chiqildi. Bu esa o‘rta maktabdagi o‘quv ‘rogrammasishshg o‘rta hisobi bilak 14,8 foizini tashkil qiladi. Bunday keskin o‘zgarish rus tilida o‘qitiladigan maktablarning imtiyozini

[7] *В.И.Ленчн,* **КПСС о борьбе с национализмом (документм и материалш). - М.: «Политиздат», 1985. — С. 231, 240.**

juda oshirib yubordi, chunki ular shu 14,8 foiz vaqtlarini zamonaviy yanga fanlaryai o‘rganishga. bag‘ishlashlari mumkin edn. Undan tashqari, bu qaror milliy tillarning lenincha tenglik asoslariii qo‘‘ol ravishda buza boshladi; b) Ayni vaqtda hamma partiya va sovet tashkyalotlari uchun birinchi darajali masala rus tilida chuqur o‘rganish masalasi ekan. Milliy tillar esa ikkinchi darajali mavzu bo‘lib qoldi. Shunday ekan, milliy maktablarda va ruscha maktablarda milliy tillarni o‘qitishga sovuqqonlik bilan qaray boshladilar. Milliy tillarni mustaqil jumhuriyatlarda maktabning yuqori sinflarida o‘qitmay ho‘yishdi, millatlararo tilni esa o‘rta maktab ‘rogrammalari bo‘yicha birinchi sinfdan to o‘ninchi sinfgacha o‘qitildi va o‘qitilmoqda; v) Uchinchidan, milliy jumhuriyatlarda barcha firqa va sho‘ro muassasalarinikg faoliyati, ish yuritishlari, majlislar, yig‘ilishlar, muhokamalari, murojaatlari millatlararo tilga asta-sekin ko‘chirildi. Majlislarda o‘z milliy tilida so‘zga chiqish yoki rahbariyatga milliy tilda ariza bilan murojaat qilish favqulodda hol deb qaraladigan bo‘lib qoldi; g) To‘rtinchidan, esa shu o‘zgarishlarning ta’sirida milliy tillarda chop etiladigan ro‘znoma va jaridalarning mavqei, o‘rni ‘asaya boshladi.

1939—1940 yillarda milliy tillarning ko’p qismiga yana bir nihoyatda og‘ir zarba berildi: 1927—1930 yillarda arab an’anaviy alifbosidan lotin yozuviga ko‘chirilgan bir necha o‘n millat va elatlar endi rus yozuvi asosidagi alifboga ko‘chishlari kerak bo‘ldi. Shuning natijasida asrlar davomida arab alifbosidan foy-dalanib kelgan o‘zbeklar, ulardan tashqari yana tatarlar, ozarbayjonlar, qozoqlar va boshqa xalqlar o‘n ikki yil ichida o‘z o‘tmishlaridan, o‘zlarining yozma meroslaridan mahrum bo‘lib qoldilar. Bu xalqlar orasida hahiqiy manqurtlar avlodi yuzaga kelib, ular faqat rus grafikasida bosilgan adabiyotnigana o‘qiy oladilar. Ular uchun Dante, Moler va Sofokl qanchalik uzoq bo‘lsa, o‘zimizning Navoiy, Mashrab, Furqat va Muqimiylar ham shunchalik uzoqdalar. Lekin Yevripid va Dantelar boshqa olam, boshqa xalqlar vakillari bo‘lib, ularni yetarli darajada tushunmaslik mumkin. Ammo o‘z milliy shoir-larimizni xorijiylardek o‘qishimiz ajablanarli holdir. Masalan, nima uchun Navoiy "Qading nihrliga jon gulshanim chaman qilgal" deydi? Uning ma’nosi nima? Arab yozuvini bilgan kitobxon tushunadiki, "jon" so‘zidagi qaddi tik "alif" harfi niholga o‘xshash. Bu baytida Navoiy ma’shuqa qomatini ana shu "jon" so‘zidagi alifga hiyoslagan va "alif", "jon" gulshani bag‘rida joylashgani singari, sening alif va nihol yanglig‘ qomating ham mening bag‘rimda bo‘lsa, deydi. Shu misoldan ko‘rinadiki, bizning milliy faxrimiz bo‘lgan she’riyatimiz 1940-yildan o‘qigan avlod uchun butunlay notanish dunyodir. Bu — milliy tillarga qarshi qaratilgan beshin-chi zarba bo‘ldi.

Oltinchi zarba asosan Rossiya federatsiyasida yashaydigan o‘nlab millat va elatlarga qarshi yo‘naltirildi: 50—60-yillar davomida tatarlar, chuvashlar, boshqirdlar, buryatlar, yoqutlar, mordvalar, marilar, komilar, hakaslar, chukchalar,

udmurtlar va boshqa millat va elatlar asta-sekii rus tilvda o‘qitila boshlandi. Ya’ni ularning mshshiy — ona tillari o‘zining asosiy vazifasini bajar-may qo‘ydi. Shuning natijasida, birinchidan, bu xalqlarning orasida o‘z millatining tili, madaniyati va tari-xini yuzaki biladigan yoki umuman zamon talabi darajasida bilmaydigan manqurt avlod o‘sib yetildi. Ikkinchidan esa bu millat va elatlarning qa’rida milliy tillarga nisbatan bo‘layotgan adolatsizliklarni ko‘rib, norozi bo‘layotganlarning soni va salmog‘i o‘sib bordi. 1960—1985 yillar orasida Rossiya Federatsiyasida muxtor jumhuriyat, viloyat va okruglardagi asosiy tub aholining tilida kitoblar chop etish deyarli ikki baravar kamaydi. Mustaqil jumhuriyatlarda esa kitob nashr etish milliy tillarda 17 foizga kamaydi. Xuddi shu davr ichida rus bo‘lmagan aholining soni deyarli 40 foiz o‘sganligani ko‘zda tutsak, milliy tillarda kitob chiqarish juda sezilarli darajada kamayib ketganini ko‘ramiz.

Biz bu yerda yuqorida sanab o‘tilgan oltita sabab bilan cheklanamiz. Holbuki, yana qo‘shimcha sabablar ham bir qancha. Bularning asosiylari xususida to‘xtaldik, xolos. Bu sabablar milliy madaniyatlar va milliy tillarning baynalmilal tarbiyadagi rolini, mavqeini, o‘rnini, ta’sir kuchini juda sezilarli ravishda ‘asayishiga olib keldi. Baynalmilal tarbiya targ‘ibotchilari minbarlardan bir narsa ga’irishsa, millat va elatlar esa hayotda, amaliyotda butunlay boshqa narsalar bo‘layotganini ko‘rib turibdilar. Shuning natijasida baynalmilal tarbiyaning xalq orasida obro‘si tushib ketdi, chunki targ‘ibot bilan hayot o‘rtasida uzilish ‘aydo bo‘ldi va tobora chuqurlashib bordi. Hozirgi vaqtda, jamiyatimizda bu boradagi mavjud ahvol yuqoridaga barcha yo‘l qo‘yilgan xatolar tuzatilishi lozimligani talab etadi va kun tartibiga qo‘yadi.

Ko’p millatli sobiq sovet davlatining rivojlanishi ikki qarama-harshiliklarga nihoyatda boy jarayon. Bu davlat sotsializm qurish kabi olijanob maqsadni ko‘zlab, ish boshladi. Tabiiyki, sotsialistik shior va dasturlarni amalga oshirish yo‘lida o‘tgan yillar ichida juda ko’p o‘zgarishlar amalga oshirildi. Hamma millatlar va elatlar teng huquqli deb e’lon qilindi, ularning madaniyati, milliy tillari, an’analari va urf-odatlarining erkin rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib berildi. Yuqorida ta’kydlab o‘tganimizdek, milliy o‘lkalarda milliy jumhuriyatlar, muxtor jumhuriyatlar, viloyatlar va okruglar tashkil qilindi, xalq maorifi, matbaa, milliy adabiyot, sahna san’ati va madaniyatning boshqa tarmoqlari sohasida biroz bo‘lsada sezilarli darajada o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Lekin jamiyatimiz fojiasi shundan iborat bo‘ldiki, o‘zgarishlar bilan bir qatorda ko’p millatli mamlakat hayotida noto‘g‘ri qo‘llangan, bir tomonlama manfaatlarni ko‘zlagan holda amalga oshirilgan siyosat, pirovard nati-jada millatlararo munosabatlarning o‘sha darajada kes-kinlashuviga, turli nizolarning tug‘ilishiga olib keldi. Ulug Vatan urushida g‘alabaga erishilgach, mamlakat 1946—1951 yillar davomida xalq xo‘jaligini tikladi, 1952—1960 yillarda esa jamiyat xavfsizligini

ta’minladi, 1961 yildan keng miqyosda kommunizm qurish ishlari amalga oshirila boshlandi. Mamlakatimizda esa bir tomondan demokratik va inson’arvar jamiya-g qura-yotganimiz to‘g‘risida ro‘znoma va jaridalarda, kitoblarda yozish odat tusiga kirdi, ikkinchi tomondan esa jamiyatda hahiqiy demokratik va inson’arvar fuqaroga qarshi ish olib borildi, yuz minglab va millionlab erkin, demokratik fikr yurituvchilar yo o‘z vatanidan haydab chiqaril-dilar, yo ruhiy kasal deb, maxsus kasalxonalarda yillab sahlandilar yoki mamlakatimizning shimoliy va sovuq o‘lkalariga surgun qilindilar. Undan tashqari matbuotda, radio va televidenieda, erkin tanqidiy fikr ustidan juda. qattiq nazorat o‘rnatildi. Buning natijasida hahiqatni xalqdan va xalqaro jamoatchilikdan yashirish odatgana emas, qonun tusiga aylandi. Davlat xavfsizligi mahkamalarida "xalq dushmanlari"ni va "siyosiy jihatdan shubhali" fuqarolarni "fosh qili’Gning o‘ziga xos rejalari ham tuzilib, izchil tarzda ish olib borildi.

Adabiy, ilmiy, siyosiy, ‘edagogik va boshqa adabiyotlar, tasviriy san’at sahna san’ati va madaniyatning boshqa sohalari faqat yutuq va muvaffaqiyatlarimizni bo‘rttirib ko‘rsatishga, kamchiliklarimizni yashirishga, partiyaning "dono rahbarligi"ni maqtashga xizmat qildilar.

Har bir shoir, rassom, kom’ozitor va boshqa san’at vakillari rahbarlarni ko‘kka ko‘taradigan asar yozishi shart edi. Ijod qilmaslik uving "shubhali shaxs"ligidan, yetarli darajada vatai’arvar emasligidan darak berardi. Dozirgi vaqtda milliy madaniyat va milliy tillarni rivojlantirish sohasidaga eng asosiy vazifa — ma’naviy hayotimiz va milliy tilimizning taraqqiyoti uchun yangi istiqbollar ochishdir. O‘zbek teatr va kino madaniyati xalqimizning zamonaviy talablariga javob bera oladigan asarlar yarata olmayotganligi hammamizga ma’lum. Bunday muhit va natijaning sababi turg‘unlik davrvdagi ish usullari bo‘ldi. Adabiyotimiz, teatr va kinematografiya sohasida ijodiy quvvat va mustaqil fikr emas, siyosiy ko‘rsatma, qaror, tavsiyalar birinchi o‘ringa qo‘yildi. Erkin ijod o‘rniga siyoSatga bo‘ysunish.yuqoridan tushirilgan turli ko‘rsatmalarga moslashish asosiy ish metodiga aylandi. Sotsialistik qoida va asoslarni har bir madaniyat arbobi o‘zicha tushunadi, o‘zicha hayotga tatbiq etadi. Ayniqsa, madaniyat arboblari serqirra hayotni badiky yo‘l bilan aks ettirishda qaysi vaziyatda va nima deynshlari kerakligani harorlar, tavsiyalar hamda ko‘rsatmalar orqali ilgarvdan belgilab qo‘yish mumkin emas. Bu — ijod erkinligini ochiqdan-ochiq bo‘g‘ish bo‘ladi, Afsuski, biz uzoq yillar davomida ana shunday bo‘g‘ish yo‘li ta’sirida bo‘ldik va erkin ijod vakillariga, madaniyat arboblariga juda katta zarba berdik, ularni sotsialistik realizm qafasida tutdik. Navoiy, Hamza, Abdulla Qodiriy asarlari o‘zbek adabiyotiga ana shu "oltin" qafas yetib kelgunga qadar yozilgan edi. Ulardan so‘ng o‘zbek adabiyotida faqat ikkita ism ‘aydo bo‘ldi — Oybek va Abdulla Qahhor. Holbuki, haqiqiy sotsializm sharoitlarida milliy adabiyotimizda o‘nlab

yorqin talantlar ‘aydo bo‘lishi mumkin edi. Afsuski, bunday bo‘lmadi, chunki mavjud tuzum ularni bo‘g‘di, o‘sishga yul bermadi. Bunday bo‘g‘ish siyosati qanday amalga oshirilganini va qanday natijalarga olib kelganini milliy adabiyotimiz misolida ko‘rish mumkin: Oybek navbatdagi maf-kuraviy majlisdagi asossiz tanqiddan so‘ng ruhan tushkunlikka tushdi va talaffuz qobiliyatini yo‘qotdi; Abdulla Qahhor o‘ylaganini aytgani uchun uning nomini aytish taqiqlandi; Abdulla Ori’ov o‘z she’rlarida ko’p rahbarlarying tushunchasiga sig‘maydigan fikrlarni aytgani uchun zimdan ta’qibga tushib, o‘n yildan ortiq tushkunlik iskanjasida bo‘ldi va bu hol uning ijodiy faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Maqsud Shayxzoda ko’p fikrlarini ochiq bayon eta olmay, mangulik sari otlandi. Bu kabi misollarni ko’plab keltirish mumkin. Biz faqat shu xulosa bilan cheklanamizki, mabodo stalinizm va turg‘unlik yillarida taqiqlangan, shu sababli yozuvchilar uyushmalarida, jaridalarning tahririyatlarida, partiya markazqo‘mida taxlanib yotgan qo‘lyozma romanlar, ‘ovestlar, hikoyalar, ‘esalar, sherlar, esdaliklar, ilmiy tadqiqot asaryaari va boshqalarni yig‘sa, bularning hajmi chop etilgan asarlardan ko’p marta ortiqligini ko‘ramiz. Masalan, bir hikoyada zavodda yuqlovchi o‘zbek yigiti o‘z ustozidan o‘zib ketadi. Buni o‘zgartiring‘, deyishadi muallifga, hikoyangaz xalqlar do‘stligiga ‘utur yetkazadi, chunki o‘zbek ishchisi rus ustozidan oshib ketishi mumkin emas. U intvlsin, harakat qilsin, o‘z ustoziga yetib olish yo‘llarini qidkrsin, lekin yetib olmasin, ana shunda to‘g‘ri bo‘ladi, deyishgan muallifga. "Agar o‘z ustozidan o‘zib ketib, unga o‘z tashakkurini bildirsachi?". Yo‘q, mumkin emas deb javob berishgan mafkura rahbarlari. Holbuki, o‘sha rus ustoz ishchi bu hikoyaning mazmunini bilganda, u bechora o‘zbek adabiyotining "jonkuyarlari" uni qanday noqulay ahvolga solganlarining guvohi bo‘lganidz edi, balki o‘sha darajada ajablangan bo‘larmidi.

O‘ttizinchi yillarning o‘rtalarvdan boshlab milliy tillar millat hayotining asosiy sohasidan,— sanoat, temir yo‘llar va havo yo‘llari, moliyaviy sistema, davlat xavfsizligidan siqib chiqarila boshlangan. 80-yillarning boshlariga kelib, bu sohadz deyarli to‘la ravishda millatlararo munosabatlar tilida ish yuritilgan, Natijada milliy tillarda sanoat, texnika. trans’ort, moliya ishlari, davlat xavfsizligiga tegashli so‘zlar, iboralar, atamalar ishlatilmagan, milliy tillarning rivojlanishiga katta ‘utur yetkazilgan. Bundan tashqari bu sohalarda millatlararo muloqot tilini bilmagan kishilar ishga kirishi va o‘z ishida turg‘un ravishda mehnat qilishi qiyin bo‘lgan. Shuning natijasida, sanoat, texnika, trans’ort, moliya va davlat xavfsizligi sohalarida o‘zbeklar, umuman yerli millat vakillari kam bo‘lgan va hozirda ham ahvol o‘zgargani yo‘q. Shunday ekan, milliy ishchilar sinfi va uning salmog‘ini oshirish, yuqori malakali, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan milliy ishchilar sinfini shakllantirish uni har tomonlama kamol to’tirish jiddiy masalaligicha turibdi. Bu sohalarda milliy tillarga o‘rin berilmas ekan va bu sohada qatiy burilishga

erishmas ekanmiz, o'zbek millati "qishloqi" va "savdogarlar hamda osh'azlar millati"ligicha qolaveradi.

2. Milliy tillarni kamsitish SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) Markaziy komitetining 1938 yil 13 fevradda jumhuriyatlarda rus tilini majburiy o'qitish to'g'risidaga harori chiqqandan so'ng yanada kuchaydi. Bu qaror milliy tillarning teng huquqliligini ochiqdan-ochiq buzdi va millatlararo tilni imtiyozli darajaga ko'tardi. Qarordan shu narsa ma'lum bo'ldiki, mamlakatda sotsializm ishini mustahkamlashda, jumhuriyatlarning hamkorligani kengaytirishda, fan va texnika yutuqlarini o'zlashtirib olishda, milliy jumhuriyatlardagi yoshlarni sovet qo'shini safida xizmatga tayyorlashda rus tili alohida rol o'ynar va bu tilning o'rnini hech qanday boshqa til bosa olmas ekan. Rus tilining shu ijobiy tomonlarini ko'zda tutab, unn SSSR xalqlariga majburan o'qitish o'rinli bo'ladi, deyiladi qarorda. Bu xato qaror oqibatida, birinchidan, aholini millatlararo tildan bezdirishgacha olib keldi, ikkinchvdan esa, milliy maktablarda ona tili va adabiyot fani o'qitilishining sifati 'asayib ketishiga sababchi bo'ldi. Biz yuqorida ta'kqslab o'tgashshizdek, mishshy tillarning kamsitilishiga ko'pchilik muxtor jumhuriyat va viloyatlarda o'qish-o'qitish ishlarining millatlararo aloqa vositasi bo'lmsh' talga ko'chirilishi, qator xatrgarning alifbo almashtirilsh'i natijasida o'z milliy o'tmishidan uzilib qoli'sh, jumhuriyatlarda milliy tillarni ruscha maktablarda o'qitilishining o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yilgani sababli, nochor ahvolda ekanliga ham sababchi bo'ldi.

**MILLIY MUNOSABATLARDAGI MUAMMOLARNI**; 3 turga bo‘lish mumkin: 1) Milliy tengsizlik, ya’ni bir millatni 2-sidan ustivor deb bilish natijasida kelib chiљadigan muammolar (“imtiyozli” millat va “ezilgan” millat) 2) Turli millatlar iљtisodiy va madaniy taraљљiyotidagi tengsizlik oљibatida kelib chiљadigan muammolar 3) Millatlararo dushmanlik, o‘zaro shubha, mojarolar va to‘љnashuvlar natijasida kelib chiљadigan muammolar.

## AMALIY MASHG’ULOT:

### 7.Mavzu: Millatlararo munosabatlarning madaniy-ma’naviy omillari.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda sanoat va xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida ko’plab yangi tarmoq va korxonalar qurib ishga tushiriddi. Ko’plab muhandislar, ilmiy va madaniy ziyolilar tayyorlandi. Milliy jumhuriyatlar o‘rtasida va ular bilan mamlakatning markaziy sanoat rayonlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar rivojlanib bordi.

Ma’lumki, iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va ularni chuqurlashtirish ijtimoiy mexnat taqsimoti, ishlab chiqarish ixtisoslashuvini kengaytirish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va rsgionlar xo‘jaliganing ixtisoslashuvidan keng foydalanish har bir joydagi tabiiy va iqtisodiy shartsha-roitlarni hamda mehnat resurslarini hisobga olgan holda, sanoat, qishloq xo‘jaliganing qisqa muddatlarda eng kam mexnat va boshqa vositalar sarflash, pirovard natijada ko’proq iqtisodiy samara berish qobiliyatiga ega bo‘lgan tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan Boltiqbo‘yi davlatlarida

metallurgaya uchun zarur foydali qazilmalar yo‘h. Shuning uchun ham sano’atning bu tarmog‘i unchalik rivoj to’madi. Shunga ko‘ra xam Litva, Latviya va Estoniya sanoati metall sig‘imi emas, balki mehnat sigimi yuqorig bo‘lgan tarmoqlar — elektronika, radiotsxnika, elektrotexnika, asbobsozlik, aloqa vositalari va hisoblash texnikalari ishlab chiqarishga ixtisoslashdi.

Xususan, “rusiyzabon aholi”ga “okku’antlar” sifatida qarash odatiy bir holga aylangan. Bundan tashqari ularni ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan mumkin qadar chetlatish, turli noqulayliklar yaratish orqali ko’chib ketishga majbur qilish asosiy strategik maqsad kdlib belgilangan. Masalan, Latviyada doimiy yashovchi rusiyzabon aholining katta qismi, garchand ularning mutlaq ko’pchiligi shu yerda tug’ilib katta bo’lgan bo’lsada, fuqarolikka ega emas. Bu ularning siyosiy huquqlari doirasining tabiiy ravishda torayishiga olib kelmoqtsa.

SHuningdek, Latviyada 2004 yildan maktablarda ta’limning faqat latish tilida olib borilishi qonunan belgilab qo’yilganini, oliy ta’lim esa 1999 yildan buyon faqat latish tilida olib borilayotganini ham tahkidlash zarur. Estoniyada esa 2007 yildan maktab ta’limini to’liqeston tiliga o’tkazish mo’ljallanmoqda[14].

### *7 – Vaziyatli to’shiriq*

## Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-g’oyaviy asoslari

Globallashuv - turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlari o’rtasidagi o’zaro tahsir va bog’liqlikning kuchayishidir. Frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi tahrifida globallashuv jarayonining 3 o’lchovli ekaniga urg’u beriladi: 1. Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon. 2. Globallashuv - jahonning gomogenlashuvi (bir jinsli) va universallashuvi jarayoni. 3. Globallashuv - milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni

«Ommaviy madaniyat» tushunchasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida g’arb mamlakatlarida ‘aydo bo’ldi. «Ommaviy madaniyat» insonning intim xoxishlarini va ko’proq lazzatlanish g’oyasini targ’ib etishga asoslanadi.
XX asrning 50 – 60 yillarida qadriyat sifatida qaraldi.

«Ommaviy madaniyat» ning ko’ngilxushlik g’oyasi insonni ma’naviy

---

[14] *В.Летров.* **Прибалтика: десять лет после “оккупации”. // «Аргументм и фактм», №27, 2002.**

tubanlik sari yetaklaydi. Individualizm lotincha so'z bo'lib, bo'linmas demakdir. Ushbu g'oya negizida shaxsning jamoadagi avtonomiyasi, uning o'z manfaatlarini boshqalardan alohida, hatto ustun qo'yish, o'z qobig'iga o'ralib yashashiga asoslangan qarashlari tashkil etadi. Egotsentrizm individualizm qarashlariga yaqin, insonning o'z maqsadlarini hamma narsadan ustun qo'yishi, o'z huzur – halovoti yo'lida hech narsadan ta' tortmasligi, nimadan foyda kelsa, shunga mukkasidan ketishlik, o'zi va faqat o'zini o'ylash kayfiyati egotsentrizmga xos holat.

'oligon - (grek. serqirra). Mafkuraviy 'oligon deb, odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan g'oya yoki mafkurani mablag', ham zamonaviy texnik vositalar bilan kuchlantirib, moddiy va ma'naviy tashviqot qurollarini ishga solib, dunyodagi axborot va fikr oqimini o'z foydasi yo'lida boshqarib turadigan g'oyaviy markazga aytiladi.

Immunitet – lotincha (immunitatis) so'zidan olingan bo'lib, biror narsadan xalos , ozod va forig' bo'lish, qutilishni, muayyan kasallikni qo'zg'atuvchi virusga, dardga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini (masalan, inson tanasi immuniteti) bildiradi. "Immunitet" so'zining mahnosi organizmning doimiy ichki barqarorligini saqlash uning turli xususiyatlarga va tahsirlaridan himoyalanishi, qarshilik ko'rsatishi, rezistentligini bildiradi. SHuningdek, u daxlsizlik mahnosini ham anglatadi, (masalan, de'utatlik immuniteti, di'lomatik immuniteti).

Savollar:

1. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash usullarini tushuntiring?
2. "Ommaviy madaniyat"ning salbiy ko'rinishlari nimalardan iborat?
3. "Mafkuraviy 'oligon" tushunchasi, uning namoyon bo'lishning qanday xususiyatlari bor?
4. O'zbekistonda rasmiy tan olingan diniy konfessiyalar faoliyatining millatlararo totuvlikni ta'minlashdagi roli qanday?

## Keys №7
## Mafkuraviy monitoring

Milliy g'oya va milliy mafkura milliy va umuminsoniy g'oyalarning yaxlit tizimi sifatida xalqimizni g'oyaviy jihatdan mushtarak maqsad yo'lida birlashtiruvchi kuch bo'lib quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Demak, mafkuraviy monitoring tufayli:

1. O’zligimizni anglash, milliy, diniy, ma’naviy qadriyatlarimizni joyiga qo’yib, ularni yangi sifat bosqichiga ko’tarib, tahsirchanligini oshiradi.

2. Milliy maqsadlarimizni hozirgi zamon umumbashariy talablar bilan uyg’unlashtiradi.

3. Islom dini iymon, ehtiqod, axloq va ma’rifat aqidasi ekanligidan kelib chiqib, «Olloh qalbimizda, yuragimizda» tamoyiliga safarbar etadi.

4. Milliy g’oya va ehtiqodimiz dushmanlariga qarshi mafkuraviy kurashish, fuqaroda Vatan tuyg’usi - «Men O’zbekistonlikman» degan iftixor tushunchasini shakllantiradi.

5. Jismoniy sog’lom, zamonaviy tafakkurga ega bo’lgan avlodni tarbiyalaydi.

6. Milliy qadriyatlarimizni, urf-odat, anhanalarimiz mohiyatini oshirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik va siyosiy-g’oyaviy barqarorlikni tahminlaydi.

## NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mintaqaviy ma’naviyatga nimalar kiradi.
2. Markaziy Osiyo xalqlari milliy ma’naviyatining shakllaninish jarayonlari.
3. Ma’naviy barkamol, komil insonning asosiy fazilatlariga nimalar kiradi
4. Umuminsoniy ma’naviyatni qanday tushunasiz.
5. Tasavvuf va uning ma’naviy jihatlari.

Adabiyotlar: A1. A12. A17.A18.A22.A24.A36,A38, D3.D10.D11., Q1,Q4, Q15, E1,E2,E9.

## 8.Mavzu: Ijtimoiy-etnik guruxlar va milliy siyosat

**Reja:**

1. Millatlararo munosabatlarning rivojlanishida jamiyatdagi demokratik tamoyillarning ustunligi, davlatning oqilona milliy siyosati, tashqi siyosati tobora muxim axamiyat kasb eta borishi.

2. Mustaqil milliy davlat tuzish, millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilashga erishishi, mustaqil tashqi siyosat olib borishi.

3. Xalqaro tashkilotlar ichida faol qatnashish millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning siyosiy omillarini oshib borishi.

4. Mustaqillik sharoitida O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi ijtimoiy etnik guruxlar o‘rtasida xamjixatlik, uyg‘unlikni mustaxkamlash. Ko’p millatli Res’ublika aholisining xorijiy mamlakatlar, qardosh millatlar bilan do‘stona munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan siyosati va tadbirlarning samarasi.

**Tayanch iboralar:** -tenglikni inkor etish, bir millatni yuqori qo‘yish, imtiyoz yaratish, o‘zgalarni mensinmaslik, inqiroz.

O‘zbekiston davlatchiligining tiklanishi va rivojlanishidagi beqiyos o‘rni va ahamiyatini yuksak baholaymiz. Va shu asnoda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadga erishish, ya’ni yurtimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirishda Konstitutsiyamizning mustahkam ‘oydevor bo‘lib kelayotganini mamnuniyat bilan e’tirof etamiz. Bugun O‘zbekistonimiz bosib o‘tgan mustaqil taraqqiyot yo‘lini xolisona baholar ekanmiz, o‘tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o‘sish sur’atlari, aholi farovonligining yildan-yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro‘-e’tiborining tobora yuksalib borayotgani – bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo‘yilgan, chuqur va ‘uxta o‘ylangan maqsad, ‘rinsi’ va normalarning hayotbaxsh samarasi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Qisqacha aytganda, biz tanlagan va “o‘zbek modeli” deb nom olgan mamlakatimizning taraqqiyot yo‘li naqadar to‘g‘ri ekanini bugun hayotning o‘zi yaqqol tasdiqlab bermoqda. Biz o‘z umrini o‘tab bo‘lgan mustabid, buyruqbozlik va rejali-taqsimot tizimidan qanchalik uzoqlashganimiz sari, milliy taraqqiyot

modelimizning asosini tashkil etadigan tamoyil va normalarning nechog‘lik to‘g‘ri ekaniga bo‘lgan ishonchimiz shu qadar ortib bormoqda. Bu tamoyillar, birinchi navbatda, hayotimizni mafkuradan to‘la xoli qilish, kommunistik qoli’ va qarashlardan voz kechish, qonunning hamma uchun ustuvor bo‘lishi, davlatning bosh islohotchi rolini o‘ziga olishi, inqilobiy emas, aksincha, tadrijiy taraqqiyot yo‘lidan rivojlanish, ya’ni islohotlarni “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang” degan ‘rinsi’ asosida izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish, shuningdek, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi qoidalarni o‘z ichiga oladi.Ana shu tamoyillarga amal qilgan holda, biz o‘tgan davr mobaynida haqiqatan ham juda katta tarixiy yutuqlarga erishdik va bu bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Biz erishgan ulkan marralarning eng muhimi – eski tizimdan butunlay voz kechib, mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish yo‘lidan dadil borayotganimiz va bu jarayonning hech qachon ortga qaytmaydigan qat’iy va izchil tus olganidir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda odamlarimiz, ularning ijtimoiy ongi, hayotga munosabati tobora o‘zgarmoqda, vatandoshlarimizning siyosiy yetukligi, yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik hissi oshib bormoqda. Va aynan shularning barchasi mamlakatimizning taraqqiyot va farovonlik yo‘lidan izchil rivojlanib borishini, yangi marralarni qo‘lga kiritishimizni ta’minlayotgan qudratli harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, amalga oshirgan ishlarimizni e’tirof etgan holda, biz bir haqiqatni esdan chiqarishga haqqimiz yo‘q, deb o‘ylayman: ya’ni, hayot hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi. Bosib o‘tgan yo‘limizni va mamlakatimizning dunyoda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar jarayonida tutgan o‘rnini xolis va tanqidiy baholar ekanmiz, biz erishgan yutuqlarimizga mahliyo bo‘lib qolmasligimiz, ortiqcha havolanish va xotirjamlik tuyg‘usiga berilmasligimiz zarur. Bugun biz yashayotgan globallashuv va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur islohotlar va modernizatsiya yo‘lidan tinimsiz va qat’iyat bilan rivojlanib borish natijasida o‘z oldimizga qo‘ygan istiqbolli maqsadlarga – taraqqiy to’gan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta’minlashga erisha olamiz. ‘arlamentimiz ‘alatalarining shu yil 12 noyabrda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisida bayon etilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konse’siyasi”da aynan ana shu vazifalar o‘rtaga qo‘yilganini ta’kidlash joiz.

Quyidagi masalalar bizning eng muhim ustuvor yo‘nalishlarimizga aylanishi darkor:

– davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga qaratilgan konstitutsiyaviy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ya’ni hokimiyatni tashkil

qiladigan ‘rezident – davlat boshlig‘i, qonunchilik va ijro hokimiyati o‘rtasida muvozanat va barqarorlikni yanada mustahkamlash, sud tizimining mustaqilligi va liberallashuvini kuchaytirish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish;

– axborot sohasida fuqarolar va inson huquqlarining kafolatlarini, saylov erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini takomillashtirish;

– demokratik qadriyatlar va insonlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning amalda muhim omiliga aylanishi zarur bo‘lgan fuqarolik institutlarini, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xususan, mahallaning huquq va vakolatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash; – faqat keng miqyosli iqtisodiy islohot va o‘zgarishlarni biz tanlagan, o‘zini amalda to‘la oqlagan taraqqiyot modeliga hamohang ravishda davom ettirish iqtisodiyotimizning barqarorligi va zarur rivojlanish sur’atlarini, hayotimiz sifatini oshirish, dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallash imkonini beradi.O‘z-o‘zidan ravshanki, biz oldimizga qo‘yayotgan bunday murakkab va ulkan vazifalarni amalga oshirish uchun ancha vaqt, balki yillar talab qilinadi va buni biz o‘zimizga yaxshi tasavvur etishimiz lozim.

Yoshlarda siyosiy-huquqiy yetuklik va g‘oyaviy kurashchanlik fazilatlarini shakllantirish jamiyat tubdan yangilanayotgan, turmush tarzimiz jiddiy ravishda o‘zgarayotgan bir paytda muhim ahamiyatga ega. Biroq, inson qalbi, hissiyoti, tuyg‘usi va ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan bu murakkab jarayonda eng avvalo insonning o‘zi kim, u qanday jonzot, inson fenomeni nimalardan iborat?, - degan savollarga javob to’mog‘imiz lozim.

Inson – butun mohiyati bilan ijtimoiy hodisa. U qanchalik xususiy, alohida qadriyat bo‘lmasin, o‘z fe’l-atvori, qarashlari, jamiyatda tutgan o‘rni va ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqligi jihatidan umumiydir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, biz alohida voqelik sifatida har bir insonning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini, o‘tkazadigan ta’sirini e’tiborga olmog‘imiz lozim.

Inson ijtimoiy tabiatiga ko‘ra, o‘z turmush tarzini o‘zi yo‘lga qo‘yadi, o‘zini-o‘zi boshqaradi. O‘y-xayollari, orzu-umidlari va maqsadlarini ro‘yobga chiqarish jarayonlari orqali mavhum holatlarni real voqelikka aylantiradi. Yaxshilik va yomonlik, saxiylik va baxillik, muhabbat va nafrat inson olamining butun mohiyatini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, inson o‘zini o‘zi muvofiqlashtirib turadigan, o‘zini o‘zi tiklaydigan, o‘zini o‘zi yo‘lga soladigan, shakllantiradigan murakkab, oliy darajadagi yaxlit tizimdir. Ana shu holatning o‘zi har bir insondan ma’naviy barkamollikka, ruhiy tozalik va axloqiy yetuklikka uzluksiz ravishda intilib yashashni taqozo etadi.

Voqea-hodisalarga befarqlik, jamiyat ishiga aralashmaslik, o‘z istiqboliga va iqboliga loqaydlik har qanday odamning insoniy imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi, faol hayotiy ‘ozitsiya barxam to’adi, kishida ruhiy siniqlik, ma’naviy tushkunlik, tobelik va mutelik illatlari chuqur ildiz otadi, natijada ruhiy jihatdan mayib-majruh, ma’naviy jihatdan noshud-notavon kishilar jamiyati shakllanishi mumkin.

Siyosiy-huquqiy yetuklik va g‘oyaviy kurashchanlik fazilatlariga ega bo‘lgan har qanday shaxs ana shunday illatlardan forig‘, jamiyatda o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lgan inson sifatida o‘zini namoyon etadi. Bunday fuqaro ma’naviy jihatdan qudratli, axloqiy jihatdan barkamol, ma’rifiy jihatdan yuksak saviyali, o‘zini, hayotini, oilasini va yaxlit jamiyatni asray biladigan, himoya qila oladigan, uni rivojlantirishga qodirlik salohiyatiga ega bo‘ladi.

Har qanday shaxs alohida va betakror qadriyat, individual voqelik. Vatan esa qadriyat sifatida undan ustun turadi. Chunki har bir shaxs o‘zi uchun qadriyat, Vatan esa butun bir millat, xalq, uning butun o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan oliy qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun hamma narsadan ustun turadi. Mafkuraviy-g‘oyaviy kurashchanlik individual va umumiy qadriyatlarning xaloskori, himoyachisi bo‘lib, g‘oyaviy kurashchanlik tuyg‘usiga aylanmog‘i lozim.

Mafkuraviy-g‘oyaviy kurashchanlikni hosil qilishning asosiy ko‘rinishlari eng avvalo yurt tinchligini saqlash, tarixiy xotiraga egalik hissi, Vatanga sadoqat, o‘zlikni anglash tuyg‘ularida o‘z aksini to’adi. Bunday fazilatga ega bo‘lgan shaxs eng avvalo mustaqil fikrlaydigan, o‘z kuch va imkoniyatlariga qat’iy ishonadigan, islohotlar mohiyatini chuqur tushungan va mustaqillikni oliy qadriyat darajasida anglagan odamdagina ‘aydo bo‘lishi mumkin. Bunday shaxs “Ana shu Vatan meniki. Vatan bu-men. Chunki shu Vatanda, shu aziz tu’roqda ajdodlarim hoki yotibdi, ularning muqaddas ruhi mening jismimda, jonimda, qonimda yashaya’ti, uni asrash, avaylash va kelgusi avlodga bus-butunligicha yetkazish mening o‘tmish ajdodlarim oldidagi burchim, kelgusi avlodlar oldidagi muqaddas vazifam”, degan fikr bilan yashaydi.

Kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo‘lgan shaxsda tabiiy ravishda immunitetning faol holati, g‘oyaviy kurashchanlik tuyg‘usi o‘zini yorqin namoyon etadi. Bunday odam bezovta-yu beorom, behalovat yashaydi. G‘oyaviy kurashchanlik fazilatlari eng avvalo tajovuzkor tahdidlarga, ma’naviy-mafkuraviy kurashlarga tayyorlik, globallashuvning salbiy ko‘rinishlariga murosasizlik, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning mohiyatini chuqur anglash, madaniyatlararo integratsiya yoki “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi tura oladigan aniq g‘oyaviy va mafkuraviy tayanchga ega bo‘lmog‘i lozim.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- Milliy g‘oyaning tub mazmun-mohiyatini, uning jamiyat hayotidagi dolzarbligini yanada to‘laroq tushuntirish;
- Yoshlar ongida ozod shaxs va erkin fuqaroning asosiy jihatlarini shakllantirgan holda ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish;
- Mafkuraviy immunitetning mazmun-mohiyati va uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlari bilan yoshlarni kengroq tanishtirish;
- Dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasi, unda kechayotgan g‘oyaviy kurashlardan ko‘zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish;
- Yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg‘ularini yanada mustahkamlash;
- Yoshlarda tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini mustahkamlagan holda ularda o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish;
- Yoshlarda ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi turli xil xatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Globallashuvning mazmun-mohiyatini yoritgan holda bu jarayonning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini tahlil qilish;
- Dinning asl inson’arvarlik mohiyatini asrash, uning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo‘naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta’minlash;
- Davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini hamda uning amaliy natijasi bo‘lmish, qaror to’gan diniy bag‘rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish;
- Turli millat va din vakillari orasida totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning hozirjavobligi va ta’sirchanligini oshirish;
- Fikr qaramligi, tafakkur qulligi, manqurt tushunchalarining mazmun-mohiyatini, ularning jamiyat hayotidagi zararli jihatlarini tarixiy-badiiy asarlar orqali tushuntirib berish;
- Sog‘lom fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida safarbar qilishga, navqiron avlodda vatan’arvarlik tuyg‘usi, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga keng e’tibor berishdan iborat.

Zamonaviy ilmiy siyosiy tahlillarda globallashuv va yoshlar dunyoqarashi tushunchasi tobora ko’p ishlatilishi yuz bermoqda. Ammo mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish mavzusi doirasidagi ilmiy muammolarni tadqiq etishning rivojlanish bosqichlari, uning o‘zbek milliy siyosiy-

falsafiy maktabida tutgan o‘rni, rivojlanishga xos belgilari, xususiyatlari va qonuniyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan va ko’plab dolzarb ilmiy muammolar, uning mukammal texnologiyasi borasidagi masalalar Res’ublikamizning ilmiy jamoatchiligida o‘ta muhim ilmiy muammolar bilan bog‘liq holda hali o‘z yechimini to‘liq to’magan.

Siyosiy-huquqiy va mafkuraviy-g‘oyaviy kurashchanlik fazilatlarini shakllantirishda – har bir ozod shaxs va erkin fuqaro uchun ob’ektiv bilimlarga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega.

Res’ublikamizda shuningdek, milliy o’zlikni saqlab qolish, milliy-madaniy ehgiyojlarni qondirish, etnik qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish bilan bog’liqjarayonlarga, yaqin o’gmishdagidan farqli o’laroq, millatchilikning o’sishi deb emas, balki tabiiy-tarixiy jarayon sifatida qaralayotganini ham tahkidlash zarur. Zero, “har qanday milliylik yagona va qardoshlarcha birlashgan insoniyatning yo’lidagi to’siq emas, balki uning boyligidir. Millat ijtimoiy emas, balki tarixiy masaladir, mavhum ijgimoiy holat emas, balki aniq madaniy muammodir”[15].

O’zbekistonda tug’ilib o’sgan, mahalliy bo’lmagan millatlar vakil- lari ham o’zlarining shu zaminga mustahkam bog’langanliklarini his qiladilar. SHuning uchun ham so’rovda ishtirok etganlarning 55,9% et- notarixiy vatanlariga “xotirjamlik bilan” munosabatda bo’lishlari- ni, chorak foizdan ortiqrog’i esa tarixiy yurtida to’liq baxtli bo’lib ketishiga ishonmasligini, chunki O’zbekistonda hamma narsasi — uyi, oilasi, farzandlari, ishi, do’stlari, kelajakka ishonchi borligini, ularni yo’qotishni istamasligini qayd etgan[16].

## SEMINAR MASHG’ULOTLARI:

### 8.Mavzu: Ijtimoiy-etnik guruxlar va milliy siyosat

O‘zbekiston davlatchiligining tiklanishi va rivojlanishidagi beqiyos o‘rni va ahamiyatini yuksak baholaymiz. Va shu asnoda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadga erishish, ya’ni yurtimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirishda

[15] *Бердяев Н.* **Судьба России. — М.: «Мнсль», 1990. — С. 84.**
78
'ЛР1Г

[16] **Қаранг: Информационно-аналитический отчет результатов социологического оп- роса: “Многонациональньж Узбекистан”. — Т.: 2000. — С. 6, 9-10**

Konstitutsiyamizning mustahkam ‘oydevor bo‘lib kelayotganini mamnuniyat bilan e’tirof etamiz. Bugun O‘zbekistonimiz bosib o‘tgan mustaqil taraqqiyot yo‘lini xolisona baholar ekanmiz, o‘tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o‘sish sur’atlari, aholi farovonligining yildan-yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro‘-e’tiborining tobora yuksalib borayotgani – bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo‘yilgan, chuqur va ‘uxta o‘ylangan maqsad, ‘rinsi’ va normalarning hayotbaxsh samarasi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Qisqacha aytganda, biz tanlagan va “o‘zbek modeli” deb nom olgan mamlakatimizning taraqqiyot yo‘li naqadar to‘g‘ri ekanini bugun hayotning o‘zi yaqqol tasdiqlab bermoqda. Biz o‘z umrini o‘tab bo‘lgan mustabid, buyruqbozlik va rejali-taqsimot tizimidan qanchalik uzoqlashganimiz sari, milliy taraqqiyot modelimizning asosini tashkil etadigan tamoyil va normalarning nechog‘lik to‘g‘ri ekaniga bo‘lgan ishonchimiz shu qadar ortib bormoqda. Bu tamoyillar, birinchi navbatda, hayotimizni mafkuradan to‘la xoli qilish, kommunistik qoli’ va qarashlardan voz kechish, qonunning hamma uchun ustuvor bo‘lishi, davlatning bosh islohotchi rolini o‘ziga olishi, inqilobiy emas, aksincha, tadrijiy taraqqiyot yo‘lidan rivojlanish, ya’ni islohotlarni “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang” degan ‘rinsi’ asosida izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish, shuningdek, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi qoidalarni o‘z ichiga oladi.Ana shu tamoyillarga amal qilgan holda, biz o‘tgan davr mobaynida haqiqatan ham juda katta tarixiy yutuqlarga erishdik va bu bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Biz erishgan ulkan marralarning eng muhimi – eski tizimdan butunlay voz kechib, mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish yo‘lidan dadil borayotganimiz va bu jarayonning hech qachon ortga qaytmaydigan qat’iy va izchil tus olganidir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda odamlarimiz, ularning ijtimoiy ongi, hayotga munosabati tobora o‘zgarmoqda, vatandoshlarimizning siyosiy yetukligi, yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik hissi oshib bormoqda. Va aynan shularning barchasi mamlakatimizning taraqqiyot va farovonlik yo‘lidan izchil rivojlanib borishini, yangi marralarni qo‘lga kiritishimizni ta’minlayotgan qudratli harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, amalga oshirgan ishlarimizni e’tirof etgan holda, biz bir haqiqatni esdan chiqarishga haqqimiz yo‘q, deb o‘ylayman: ya’ni, hayot hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi. Bosib o‘tgan yo‘limizni va mamlakatimizning dunyoda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar jarayonida tutgan o‘rnini xolis va tanqidiy baholar ekanmiz, biz erishgan yutuqlarimizga mahliyo bo‘lib qolmasligimiz, ortiqcha havolanish va xotirjamlik tuyg‘usiga berilmasligimiz zarur. Bugun biz yashayotgan globallashuv va tobora

kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur islohotlar va modernizatsiya yo‘lidan tinimsiz va qat’iyat bilan rivojlanib borish natijasida o‘z oldimizga qo‘ygan istiqbolli maqsadlarga – taraqqiy to’gan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta’minlashga erisha olamiz. ‘arlamentimiz ‘alatalarining shu yil 12 noyabrda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisida bayon etilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konse’siyasi”da aynan ana shu vazifalar o‘rtaga qo‘yilganini ta’kidlash joiz.

Quyidagi masalalar bizning eng muhim ustuvor yo‘nalishlarimizga aylanishi darkor:

– davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga qaratilgan konstitutsiyaviy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ya’ni hokimiyatni tashkil qiladigan ‘rezident – davlat boshlig‘i, qonunchilik va ijro hokimiyati o‘rtasida muvozanat va barqarorlikni yanada mustahkamlash, sud tizimining mustaqilligi va liberallashuvini kuchaytirish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish;

– axborot sohasida fuqarolar va inson huquqlarining kafolatlarini, saylov erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini takomillashtirish;

– demokratik qadriyatlar va insonlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning amalda muhim omiliga aylanishi zarur bo‘lgan fuqarolik institutlarini, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xususan, mahallaning huquq va vakolatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash; – faqat keng miqyosli iqtisodiy islohot va o‘zgarishlarni biz tanlagan, o‘zini amalda to‘la oqlagan taraqqiyot modeliga hamohang ravishda davom ettirish iqtisodiyotimizning barqarorligi va zarur rivojlanish sur’atlarini, hayotimiz sifatini oshirish, dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallash imkonini beradi.O‘z-o‘zidan ravshanki, biz oldimizga qo‘yayotgan bunday murakkab va ulkan vazifalarni amalga oshirish uchun ancha vaqt, balki yillar talab qilinadi va buni biz o‘zimizga yaxshi tasavvur etishimiz lozim.

Yoshlarda siyosiy-huquqiy yetuklik va g‘oyaviy kurashchanlik fazilatlarini shakllantirish jamiyat tubdan yangilanayotgan, turmush tarzimiz jiddiy ravishda o‘zgarayotgan bir paytda muhim ahamiyatga ega. Biroq, inson qalbi, hissiyoti, tuyg‘usi va ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan bu murakkab jarayonda eng avvalo insonning o‘zi kim, u qanday jonzot, inson fenomeni nimalardan iborat?, - degan savollarga javob to’mog‘imiz lozim.

Inson – butun mohiyati bilan ijtimoiy hodisa. U qanchalik xususiy, alohida qadriyat bo‘lmasin, o‘z fe’l-atvori, qarashlari, jamiyatda tutgan o‘rni va ijtimoiy

taraqqiyotga bog‘liqligi jihatidan umumiydir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, biz alohida voqelik sifatida har bir insonning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini, o‘tkazadigan ta’sirini e’tiborga olmog‘imiz lozim.

Inson ijtimoiy tabiatiga ko‘ra, o‘z turmush tarzini o‘zi yo‘lga qo‘yadi, o‘zini-o‘zi boshqaradi. O‘y-xayollari, orzu-umidlari va maqsadlarini ro‘yobga chiqarish jarayonlari orqali mavhum holatlarni real voqelikka aylantiradi. Yaxshilik va yomonlik, saxiylik va baxillik, muhabbat va nafrat inson olamining butun mohiyatini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, inson o‘zini o‘zi muvofiqlashtirib turadigan, o‘zini o‘zi tiklaydigan, o‘zini o‘zi yo‘lga soladigan, shakllantiradigan murakkab, oliy darajadagi yaxlit tizimdir. Ana shu holatning o‘zi har bir insondan ma’naviy barkamollikka, ruhiy tozalik va axloqiy yetuklikka uzluksiz ravishda intilib yashashni taqozo etadi.

Voqea-hodisalarga befarqlik, jamiyat ishiga aralashmaslik, o‘z istiqboliga va iqboliga loqaydlik har qanday odamning insoniy imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi, faol hayotiy ‘ozitsiya barxam to’adi, kishida ruhiy siniqlik, ma’naviy tushkunlik, tobelik va mutelik illatlari chuqur ildiz otadi, natijada ruhiy jihatdan mayib-majruh, ma’naviy jihatdan noshud-notavon kishilar jamiyati shakllanishi mumkin.

Siyosiy-huquqiy yetuklik va g‘oyaviy kurashchanlik fazilatlariga ega bo‘lgan har qanday shaxs ana shunday illatlardan forig‘, jamiyatda o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lgan inson sifatida o‘zini namoyon etadi. Bunday fuqaro ma’naviy jihatdan qudratli, axloqiy jihatdan barkamol, ma’rifiy jihatdan yuksak saviyali, o‘zini, hayotini, oilasini va yaxlit jamiyatni asray biladigan, himoya qila oladigan, uni rivojlantirishga qodirlik salohiyatiga ega bo‘ladi.

Har qanday shaxs alohida va betakror qadriyat, individual voqelik. Vatan esa qadriyat sifatida undan ustun turadi. Chunki har bir shaxs o‘zi uchun qadriyat, Vatan esa butun bir millat, xalq, uning butun o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan oliy qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun hamma narsadan ustun turadi. Mafkuraviy-g‘oyaviy kurashchanlik individual va umumiy qadriyatlarning xaloskori, himoyachisi bo‘lib, g‘oyaviy kurashchanlik tuyg‘usiga aylanmog‘i lozim.

Mafkuraviy-g‘oyaviy kurashchanlikni hosil qilishning asosiy ko‘rinishlari eng avvalo yurt tinchligini saqlash, tarixiy xotiraga egalik hissi, Vatanga sadoqat, o‘zlikni anglash tuyg‘ularida o‘z aksini to’adi. Bunday fazilatga ega bo‘lgan shaxs eng avvalo mustaqil fikrlaydigan, o‘z kuch va imkoniyatlariga qat’iy ishonadigan, islohotlar mohiyatini chuqur tushungan va mustaqillikni oliy qadriyat darajasida anglagan odamdagina ‘aydo bo‘lishi mumkin. Bunday shaxs “Ana shu Vatan meniki. Vatan bu-men. Chunki shu Vatanda, shu aziz tu’roqda ajdodlarim hoki yotibdi, ularning muqaddas ruhi mening jismimda, jonimda, qonimda yashaya’ti, uni asrash, avaylash va kelgusi avlodga bus-butunligicha yetkazish mening o‘tmish

ajdodlarim oldidagi burchim, kelgusi avlodlar oldidagi muqaddas vazifam”, degan fikr bilan yashaydi.

Kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo‘lgan shaxsda tabiiy ravishda immunitetning faol holati, g‘oyaviy kurashchanlik tuyg‘usi o‘zini yorqin namoyon etadi. Bunday odam bezovta-yu beorom, behalovat yashaydi. G‘oyaviy kurashchanlik fazilatlari eng avvalo tajovuzkor tahdidlarga, ma’naviy-mafkuraviy kurashlarga tayyorlik, globallashuvning salbiy ko‘rinishlariga murosasizlik, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning mohiyatini chuqur anglash, madaniyatlararo integratsiya yoki “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi tura oladigan aniq g‘oyaviy va mafkuraviy tayanchga ega bo‘lmog‘i lozim.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- Milliy g‘oyaning tub mazmun-mohiyatini, uning jamiyat hayotidagi dolzarbligini yanada to‘laroq tushuntirish;
- Yoshlar ongida ozod shaxs va erkin fuqaroning asosiy jihatlarini shakllantirgan holda ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish;
- Mafkuraviy immunitetning mazmun-mohiyati va uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlari bilan yoshlarni kengroq tanishtirish;
- Dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasi, unda kechayotgan g‘oyaviy kurashlardan ko‘zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish;
- Yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg‘ularini yanada mustahkamlash;
- Yoshlarda tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini mustahkamlagan holda ularda o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish;
- Yoshlarda ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi turli xil xatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Globallashuvning mazmun-mohiyatini yoritgan holda bu jarayonning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini tahlil qilish;
- Dinning asl inson’arvarlik mohiyatini asrash, uning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo‘naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta’minlash;
- Davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini hamda uning amaliy natijasi bo‘lmish, qaror to’gan diniy bag‘rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish;

- Turli millat va din vakillari orasida totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning hozirjavobligi va ta’sirchanligini oshirish;
- Fikr qaramligi, tafakkur qulligi, manqurt tushunchalarining mazmun-mohiyatini, ularning jamiyat hayotidagi zararli jihatlarini tarixiy-badiiy asarlar orqali tushuntirib berish;
- Sog‘lom fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida safarbar qilishga, navqiron avlodda vatan’arvarlik tuyg‘usi, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga keng e’tibor berishdan iborat.

Zamonaviy ilmiy siyosiy tahlillarda globallashuv va yoshlar dunyoqarashi tushunchasi tobora ko’p ishlatilishi yuz bermoqda. Ammo mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish mavzusi doirasidagi ilmiy muammolarni tadqiq etishning rivojlanish bosqichlari, uning o‘zbek milliy siyosiy-falsafiy maktabida tutgan o‘rni, rivojlanishga xos belgilari, xususiyatlari va qonuniyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan va ko’plab dolzarb ilmiy muammolar, uning mukammal texnologiyasi borasidagi masalalar Res’ublikamizning ilmiy jamoatchiligida o‘ta muhim ilmiy muammolar bilan bog‘liq holda hali o‘z yechimini to‘liq to’magan.

### *8 – Vaziyatli to’shiriq*

### Tafakkur o’zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g’oyaning roli

**Tafakkur** – (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – ‘redmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o’rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, yahni qonuniy bog’lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi.

Milliy mafkura - millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo’lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g’oyaviy asrash, ta’minlashga qaratilgan qarashlar tizimi.

«Milliy mafkura»ni faqat bitta millat yoki xalqning mafkurasi, deb tushunish to’g’ri emas. U muayyan jamiyat yoki davlatning umumiy mafkurasi mahnosini ham anglatadi. CHunki «milliy» sifati «millat» so’zidan kelib chiqqan bo’lib, nafaqat muayyan etnik birlik, balki «davlat» mahnosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, «milliy daromad», «milliy qurolli kuchlar» birikmalarida u aynan, «davlat» so’zining mahnodoshi sifatida ishlatiladi.

Milliy istiqlol g’oyasining hayotbaxshligi taraqqiyotning o’zbek modelini amalga oshirishda yaqqol namoyon bo’ladi.

Bizning bosh strategik maqsadimiz - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat bar’o etishdir. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, ko’pmulkchilikka va ular o’rtasidagi raqobatga

tayanadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo’lib, bu huquq davlat tomonidan kafolatlanadi.

Ko’pmulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotini joriy qilish orqali yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qathiy nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarni ta’minlash - davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o’tish va ularni amalga joriy qilishning tayyor andozasi yo’q. Bizning mamlakatimiz iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi, qazilma boyliklari va iqlim sharoiti, tabiiy resurslari, xalqimizning mentaliteti, aholi tarkibi va o’sishi biror mamlakatnikiga aynan o’xshamaydi. Boshqa davlatlarda yaxshigina samara beradigan taraqqiyot modeli bizda hech qanday natija bermasligi ham mumkin edi. Tanlab olingan bu yo’l hamda unga xos milliy istiqlol g’oyasining strategik maqsadlari jamiyat hayotining iqtisodiy sohasidagi jarayonlarni o’zida aks ettiradi.

Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini mustahkamlash istagi- umumiy taqdir va kelajak, O’zbekistonda yashaydigan barcha fuqarolarning ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlashni nazarda tutadi. Bu sohada ham hayotni yanada yuksak ‘og’onaga ko’tarilishga dahvat etadi. Bugungi hayotiy, zarurat ana shuni taqozo etmoqda. Har bir kishining farovonligi xalq farovonligi va faoliyatining asosidir.

Savollar:

1. Bozor munosabatlariga o’tishning inson tafakkuriga tahsiri qanday?
2. Taraqqiyotning milliy modellari va ularning mazmun mohiyatini tushuntiring?
3. “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini qanday tushunasiz?
4. Milliy o’zlikni anglash va ma’naviy yuksalishning strategik va taktik vazifalari nimalardan iborat?

## Keys №8

## Milliy g'oya va milliy mafkuraning tarbiyaviy tamoyillari

Mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini baholash mezonlari ko'pincha milliy g'oya va milliy mafkuraning tarbiyaviy tamoyillariga bog'liq bo'ladi. Bu tamoyillarga quyidagi jarayonlarni kiritish mumkin:

1) Tushuntirishda va bayon etishda oddiylik va lo'ndalik mavzuni yanada oydinlashtiradi.

2) Talab va taklifni doimiy nazorat ostiga olish.

3) Ongga tahsir etishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.

4) Ziyolilar mavqeini oshirish.

5) Turli bilimlarga ega bo'lgan ishtiyoqni qo'llab-quvvatlash.

6) Ommaviy axborot vositalarida xalq ruhiyatiga yaqinlashtirilgan yangi mafkuraviy materiallarni ko'paytirish, doimiy «aks tahsir» tamoyi-liga amal qilish. («Ta'lim va tarbiya» jurnali. 2000. № 1-2, 40-bet).

O'zbekiston Respublikasi 'rezidentining 2006 yil 25 avgustdagi «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarorida tahkidlanganidek, Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, anhana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

### NAZORAT SAVOLLARI:

1. Turli millat kishilarining ijtimoiy ongi va uning millatlararo munosabatlarning rivojiga ta'siri.
2. Madaniy-ma'naviy hayotning globallashuvi jarayonining moxiyati va xususiyatlari.
3. Millatlarning, madaniyatlarning bir-biriga ta'siri turli xalqlarning, turli millat kishilarining ma'naviy-ahloqiy boyishiga xizmat qilishi.
4. Millatchilik uning namoyon bo'lishi va salbiy oqibatlari.
5. Millat va ruxiyat tushunchalarining birligi.

Adabiyotlar:A1.A14.A23.A25.A27.A31.A35,A38,A39,D2.D11.Q5,Q15,Q18, E1,E2,E3,E9.

## 9.Mavzu: O‘zbekiston Xalqaro munosabatlar tizimida.

**Reja:**

**1.** O‘zbekiston va BMT munosabatlari.

**2.** Dunyodagi yetakchi mamlakatlar bilan o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish – mintaqaviy xavfsizlik asosi.

**3.** O‘zbekistonning NATO bilan «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturi doirasida hamkorligining natijalari.

**Tayanch iboralar:** jahon hamjamiyati, BMT, mamlakatlar, umuminsoniyat manfaatlari, tor doiradagi manfaatlar.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xalqaro Tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo‘lini tanladi va og‘ishmay shu yuldan bormoqda.

O‘zbekiston Reslublikasi o‘zining hohish-irodasi va taklifiga ko‘ra 1992 yil 2 martda jahondagi eng nufuzli xalqaro Tashkilot- Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. O‘zbekiston BMT Nizomini, xalqaro huquqiy me’yorlarni, davlatlararo muomala qoidalarini, shuningdek, BMT tarkibiga kiruvchi xalqaro Tashkilotlar talablariga rioya qilishini bildirdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to‘la teng huquqli a’zosi bo‘ldi.

Mamlakatimiz ‘rezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo‘lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27 sentabrda qilgan ma’ruzasi O‘zbekistonni jahonga ko‘hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O‘zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo‘yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo‘yicha bir qator takliflarni o‘rtaga qo‘ydi.

1993 yil fevralda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasi va BMT rahbarlarining sa’y-harakatlari natijasida BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi mamlakatimizda BMTning Taraqqiyot dasturi, qochoqlar ishi bo‘yicha oliy qo‘mita komissari, Jahon sog‘liqni saqlash Tashkiloti, Aholi joylashish jamg‘armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, Bolalar jamg‘armasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o‘z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. 1993-1997 yillarda BMT vakolatxonasiga boshchilik qilgan Xolid Malikning faol ishtirokida O‘zbekistonda ko’plab xalqaro tadbirlar o‘tkazildi. Chunonchi, Toshkentdagi BMTning qochoqlar ishi bo‘yicha oliy qo‘mitasi komissarining

vakili tojik qochoqlarni yurtiga qaytarish, ularga BMTning inson’arvarlik yordamini yetkazish bo‘yicha katta tadbirlarni amalga oshirdi. 1994 yil oktabrning boshlarida BMT vakolatxonasining yordami va ishtirokida Toshkentda bo‘lgan jahon sayyohlik Tashkilotining *«I’ak yo‘li»* xalqaro yig‘ilishi jahon sayyohlik va tijorat ishlarida O‘zbekistonning mavqeini yanada ko‘tardi.

O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida o‘z ifodasini to’di. O‘zbekiston ‘rezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasi minbaridan turib so‘zlagan nutqida Markaziy Osiyoni Yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish g‘oyasini ilgari surgan edi. O‘zbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida BMT doirasyadagi ixtisoslashgan Tashkilotlar bilan hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Jumladan, uning BMT homiyligida ta’lim, fan va madaniyat bilan shug‘ullanuvchi xalqaro Tashkilot — YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 183 davlat a’zo bo‘lgan YuNESKOning bosh maqsadi — barcha xalq-lar kelajagining umumiyligi asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish, hozirgi zamon muammolarini yanada chuqurroq o‘rganishga ko‘maklashishdan iborat. YUNESKO har yili o‘z faoliyati doirasida jahonda 150—200 yirik tadbir o‘tkazadi. YUNESKO har bir davlatdagi ilg‘or tajribalarni o‘rganuvchi va boshqalarga tarqatuvchi «g‘oyalar laboratoriyasi» rolini bajarmoqda.

1993 yil 29 oktabrda YUNESKOning ‘arijdagi qarorgohida O‘zbekistonni YUNESKOga a’zolikka qabul qilish marosimi bo‘ldi. O‘sha kuni Ulug‘bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994 yil oktabrda ‘arijda Ulug‘bek haftaligi tantana bilan o‘tdi. Xiva va Buxoro YUNESKOning jahon madaniy qadriyatlar ro‘yxatiga kiritildi. Bu ro‘yxatda 411 ta ob’ekt bor. Samarqand, Buxoro, Xivaning me’moriy majmualarini qayta tiklash ishlariga YUNESKO eks’erti qayta tiklovchi me’mor Jovanni Bokkardi O‘zbekistonga tashrif buyurdi va bu boradagi ishlarda yordam ko‘rsatdi.

1994 yil dekabrda res’ublikamizda YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi Tashkil etildi, u idoralararo organ bo‘lib, tarkibiga ta’lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a’zo bo‘ldi.

YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o‘rganish, tiklash va ommalashtirishga katga ahamiyat bermoqda. *«I’ak yo‘li — muloqot yo‘li»* deb

nomlalgan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. Olti jildlik Markaziy Osiyo tarixi tayyorlanmoqda va nashr etilmoqda. 1992 va 1994 yillarda uning ikki jildi nashr etildi. Unda mintaqa mamlakatlari mutaxassislari qatnashmoqda. YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyoni tadqiq qilish xalqaro instituti Tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O‘zbekistondagi rasmiy tashrifi chog‘ida institut tantanali ravishda ochildi. YUNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro mikyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktabrda ‘arijda Amir Temurga bag‘ishlangan xalqaro xaftalik anjuman bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar — Jahon sog‘liqni saqlash Tashkiloti, xalqaro mehnat Tashkiloti, Jahon intellektual mulk Tashkiloti, BMTning bolalar fondi, xalqaro ‘ochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo‘yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya Tashkiloti, Xalqaro Olim’iada qo‘mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa Tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy Tashkilotlar - Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya kor’oratsiyasi, Yevro’a tiklanish va taraqqiyot banki ham ko‘maklashmoqda. Xalqaro savdo markazi (YUNKTAD), tariflar va savdo Bosh bitimi (GA’) bilan hamkorlik qilinmoqda.

O‘zbekiston 1992 yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qator tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro Tashkilot - Yevro’ada xavfsizlik va hamkorlik Tashkiloti (EXHT)ga a’zo bo‘lib kirdi. I. Karimovning 1992 yil 9—10 iyulda bo‘lgan Yevro’ada xavfsizlik va hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etishi, unda nutq so‘zlashi va Kengashning 10 iyulda bo‘lgan majlisida raislik qilishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallayotganligining dalilidir. I.Karimov o‘z nutqida u yoki bu mintaqada tinchlik va barqarorlikni buzishi mumkin bo‘lgan mojarolar keskinlashuvining oldini olish, mojarolarga yo‘l qo‘ymaslik muammolari bilan shug‘ullanuvchi mexanizmni vujudga keltirish, Tashkilot qabul qilayotgan hujjatlarning ta’sirchanligini oshirish, ularning mojarolarning oldini olish, yo‘l qo‘ymaslik ruhida bo‘lishini ta’minlash takliflarini ilgari surdi. 1994 yil sentabr oyining oxirlarida Toshkentda YEXHTning umumiy masalalarga bag‘ishlangan xalqaro anjumani bo‘lib, unda Tashkilot faoliyatining barcha qirralariga oid masalalar ko‘rib chiqildi. YEXHT Toshkentda va Urganchda atrof-muhitni qayta tiklash bo‘yicha seminarlar o‘tkazdi, Orol muammosini hal qilishga ko‘maklashmoqda. 1995 yil iyulda Toshkentda YEXHTning aloqalar bo‘yicha mintaqaviy byurosi ochildi va faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston ko’pgina mintaqaviy Tashkilotlar, chunonchi, Yevro’a Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi Tashkiloti, qo‘shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

1996 yil fevral oyida O‘zbekiston Yevro’a Ittifoqi bilan hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha muzokaralar boshladi. Shu yil iyul oyida Florensiya shahrida Yevro’a Ittifoqi bilan O‘zbekiston o‘rtasida sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi. Bu hujjat O‘zbekiston, Yevro’a Itgifoqi va unga a’zo bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy negizi bo‘lib siyosiy, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi. Yevro’a Ittifoqi bilan hamkorlik O‘zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston bilan Atlantika mamlakatlari Tashkiloti - NATO o‘rtasida o‘zaro hamkorlik mavjud. 1995 yil iyul oyida O‘zbekiston NATOning *«Tinchlik yo‘lida hamkorlik»* dasturiga qo‘shildi. O‘zbekiston bu dasturdagi ishtirokiga o‘z mustaqilligini mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlaridan bahramand bo‘lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarni kengaytirish nuqtai-nazaridan qaraydi. «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturi tomonidan 1995 yilda AQShda, 1997 yili qozog‘iston va O‘zbekistonda o‘tkazilgan harbiy mashqlarda O‘zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zobit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada ko‘tarishga xizmat qildi.

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida sayyoramiz ozon qatlamini muhofaza qilish bo‘yicha Vena Konvensiyasiga, ozon qatlamini kamaytiradigan moddalar haqidagi Monreal ‘rotokoliga, atrof-muhitga ta’sir etuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa dushmanlik maqsadida qo‘llashni taqiqlovchi konvensiyaga, Yadro qurolini tarqatmaslik xaqidagi shartnomaga qo‘shilgan.

Shunday qilib, O‘zbekiston tarixan qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga qo‘shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko‘tarildi.

Dunyodagi yetakchi mamlakatlar bilan o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish – mintaqaviy xavfsizlik asosi.

XX asr yakuniga yetib, xalqaro munosabatlarda kuchlar nisbati o‘zgarib borayotgan bir sharoitda XXI asr boshlandi. Butun insoniyatni, jumladan, o‘zbekistonliklarni ham bugungi davrning asosiy jihatlari tashvishlantiradi.

Dunyoning qiyofasi qanday tusga kirdi? Insoniyat o‘z taraqqiyotining qaysi marrasiga ko‘tarildi? XXI asr O‘zbekiston uchun qanday imkoniyatlarni ochib

beradi yoki qanday sinovlar kutmoqda, uning jahon hamjamiyatidagi o‘rni qanday bo‘ladi? - degan savollar barchani o‘ylantirishi tabiiy. Ushbu masalalarni, O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan bo‘lgan hamkorligi va aloqalari orqali yoritish maqsadga muvofiqdir. Zero, nafaqat O‘zbekiston va boshqa davlatlar orasidagi munosabatlar, balki barcha davlatlarining o‘zaro hamkorligi xalqaro masalalar va muammolarning eng maqbul yechimini to’ishga yordam beradi.

O‘zbekistonning jahon xalqlari tinchligi va havfsizligiga mos tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta’minladi. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan di’lomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular jumlasiga AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, ‘okiston va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, O‘zbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro Tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat Tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq davlatda - AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, ‘okiston va boshqalarda O‘zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

Bu ko‘rsatkichlar esa O‘zbekistonning jahon davlatlari bilan yaxshi munosabatda ekanligi va o‘zining ahamiyatli o‘rniga egaligini ko‘rsatib turibdi.

Yangi Tashkil to’gan mustaqil davlat uchun, o‘z milliy manfaatlariga mos keladigan ‘uxta tashqi siyosiy yo‘lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, di’lomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatish masalalari dolzarb vazifadir. Chunki, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakat xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko’p jihatdan ana shu vazifalarning oqilona hal etishiga bog‘liqdir. Albatta, bu amalga oshirish murakkab bo‘lgan vazifa bo‘lib, ko’p yillar davomida tashqi siyosat yuritish, tashqi dunyo bilan bog‘lanish, davlatlar bilan tashqi savdoni Tashkil etish kabi vazifalarni bajarilishini talab etadi.

Sho‘ro tizimi davrida O‘zbekistonga bevosita tegishli xalqaro munosabatlarga oid ishlar ham markaziy hokimiyat tomonidan amalga oshirilgan, o‘zi esa tashqi olamdan ajratilgan edi. Buning natijasida esa O‘zbekiston tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham jahon di’lomatiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatini biladigan kadrlariga ham ega emas edi. Kadrlarni tayyorlovchi o‘quv yurti ham yo‘q edi.

Vaziyat zudlik bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini takomillantirishni talab qildi. O‘zbekiston rahbariyatiga bu sohadagi ko’p qirrali ishlarni boshdan boshlashga to‘g‘ri keldi.

‘rezident I.A.Karimov "O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li" asarida ta’kidlaganidek, ....«o‘zining xalqaro obro‘-e’tiborini qozonish va mustahkamlash, xalqaro huquqning teng huquqli sub’ekti sifatida o‘zini qaror to’tirish uchun ko’p ishlarni qilish, ba’zida esa umuman boshidan boshlashga ham to‘g‘ri keladi".

O‘zbekistonni xalqaro huquq sub’ekti sifatida belgilaydigan, res’ublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. "O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy tamoyillari to‘g‘risida"gi, "Chet el invesitsiyalari to‘g‘risida"gi, "Xorijiy investitsiyalariga kafolat berish va investorlar to‘g‘risida"gi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida"gi va boshqa qonunlar hamda normativ hujjatlar ana shular jumlasidandir.

## O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash borasidagi siyosati

‘rezident I.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqiyot kafolatlari” asarida havfsizlikni va barqarorlikni ta’minlash muammosini keng va chuqur tahlil etdi. U asosiy strategik muammolarini birlashtirdi, ushbu muammolar mintaqamizning davlat arboblarning e’tiboriga sazovor bo‘lishi shart. Biz o‘zimizni qanday himoyalashimiz kerak, rivojlanish uchun im’ulslarni qaerdan izlash kerak? – degan savollar bugungi kunning eng dolzarb muammolarini aks ettirmoqda. Shu bilan birga, ‘rezident I.Karimov mavjud bo‘lgan havfsizlikka nisbatan tahdidlarning tabiatini, ularning manbalarinii chuqur o‘rganishimizni, mintaqada barqarorlikni saqlash shartlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish zarur ekanligini ta’kidladi.

Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan eng keskin tahdidlar sifatida quyidagilar e’tirof etilishi mumkin:

1. Mintaqaviy mojarolar, ularning asosiy mazmuni etnik millatchilik, harbiy va diniy ayirmachilik. Ushbu mojarolar ayrim davlatlar qo‘lida o‘z manfaatlarini himoyalash va ta’sir ko‘rsatish hamda mintaqalarni qo‘ldan chiqarmaslik yoki strategik kuchlarni o‘z foydasi uchun qaratish kuchli quroliga aylandi.
2. O‘zbekistonning geosiyosiy jihatdan Yevroosiyo qit’asidagi qudratli davlatlar o‘rtasida joylashganligi.
3. Terrorizm, narkobiznes va noqonuniy qurollar savdosi.

4. Yadro quroli muammosi, ushbu qurolga Hindiston va ‘okiston ega, ammo ular o‘rtasida juda ham keskin vaziyat saqlanmoqda, ushbu vaziyat davlatlar o‘rtasida urushga aylanishi mumkin;
5. Ekologik havfsizlik.

Markaziy Osiyo mintaqasida mustahkam tinchlikni o‘rnatish, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash strategiyasi, dastavval, mintaqada barqarorlikni ta’minlash, hamda O‘zbekiston va butun mintaqa havfsizlikni yangi modellarni ishlab chiqish maqsadlar va vazifalar bilan aniqlanadi.

O‘zbekistonning NATO bilan «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturi doirasida hamkorligining natijalari:

-NATO bilan aloqalar dunyo hamjamiyatiga  milliy tashqari va ichki siyosatning tamoyillarini yetkazadi, O‘zbekistonning ichki va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan  tashabbuslarni hayotga tatbiq etish qurolidir;

-NATO doirasidagi konferensiya, seminarlar res’ublikaning eks’ert-informatsion salohiyatini oshiradi. 1998 yilda NATO tadbirlarida 160 dan oshiq O‘zbekiston vakillari ishtirok etdi;

-Tinchlik o‘rnatuvchi va gumanitar harbiy mashqlarda ishtirok (AQShda «Koo’erativ Nagget-95 va 97» va «Koo’erativ Os’rey-96 va 98»; Norvegiyada «Koo’erativ Banners-97»; Olmoniyada «Kombaynd Endevor-98»; O‘zbekistonda AQShning harbiy qismlari ishtirokida «Balans Ultra-96 va 97»)  O‘zbekistonning harbiy askarlarga NATOning tinchlik o‘rnatuvchi rejalar ishlab chiqish jarayoni bilan, ularni tayyorlash, hamda hayotga tatbiq etish bilan tanishtirdi.

-NATO bilan hamkorlik rivojlangan davlatlar bilan harbiy mutaxassislarni tayyorlashda aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi.

-NATO harbiy mashg‘ulotlarda ega bo‘lgan bilimlar Sentrazbat 1997 va 1998 yil mashg‘ulotlarida qo‘llanilgan.

-1999 yilda hamkorlikni individual tadbir doirasida O‘zbekiston va NATO orasida 120 tadbir o‘tkazilgan.

-Sentrazbat-2000 o‘quv mashg‘ulotlariga antiterroristik harakatlar elementi kiritilgan edi. Shunday qilib, mashg‘ulotlar maksimal darajada mintaqadagi bo‘lgan vaziyatga yaqin edi.

MDH doirasida  terrorizmga qarshi harakatlar ham o‘tkaziladi, jumladan, MDH davlatlaring harbiy kuchlarni zabt etishda antiterroristik mashg‘ulotlar. Shu maqsad bilan, MDHning harbiy hamkorlikni muvofiqlashtirish shtabi 1999 yilda

Markaziy Osiyoda «MDHning Janubiy qalqoni-1999», yarim yildan so‘ng «MDHning Janubiy qalqoni-2000» o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazdi. Ushbu mashg‘ulotlarda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston, O‘zbekiston, Armaniston va Belorusiya davlatlarning harbiy kuchlari ishtirok etdi.

«Tinchlik yo‘lida hamkorlik», «Janubiy qalqon» dasturlarida ishtirok etish O‘zbekiston qurolli kuchlarida islohotlar o‘tkazish va ixcham hamda mukammal jihozlangan qurolli kuchlarni yaratishga imkon beradi.

AQSHning Sietl shahrida bo’lib o’tgan lingvistlar anjumanida keltirilgan mahlumotlarga ko’ra, 2050 yilga kelib, hozirda mavjud 6800 tilning yarmi yo’q bo’lib ketishi mumkin. Mavjud jami tillar- ning 6100 tasida (90%) ga’lashadigan kishilarning umumiy soni 100 mingdan oshmaydi. 46 tilning faqat bitgadan, 357 tilning elliktaga yaqin tashuvchisi qolgan, xolos[17].

Mazkur faktlar ham bunday yo’qotishlarning qimmatini anglab yet- gan, ammo ijtimoiy-siyosiy, iqgisodiy muammolar, turli ko’rinishda- gi nizolar iskanjasida qolgan kishilik jamiyati ularning oldini olishda afsuski,ojizlik qilayotganini ko’rsatmoqda.

## SEMINAR MASHG’ULOTLARI:

### 9.Mavzu: O‘zbekiston Xalqaro munosabatlar tizimida.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xalqaro Tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo‘lini tanladi va og‘ishmay shu yuldan bormoqda.

O‘zbekiston Reslublikasi o‘zining hohish-irodasi va taklifiga ko‘ra 1992 yil 2 martda jahondagi eng nufuzli xalqaro Tashkilot- Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. O‘zbekiston BMT Nizomini, xalqaro huquqiy me’yorlarni, davlatlararo muomala qoidalarini, shuningdek, BMT tarkibiga kiruv-chi xalqaro Tashkilotlar talablariga rioya qilishini bildirdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to‘la teng huquqli a’zosi bo‘ldi.

Mamlakatimiz ‘rezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo‘lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27 sentabrda qilgan ma’ruzasi O‘zbekistonni jahonga ko‘hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O‘zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo‘yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish

[17] Қаранг: В XXI веке на Земле исчезнуг 3400 языжов. // «Зеркало XXI», №13 (221), 2004.

va boshqa masalalar bo‘yicha bir qator takliflarni o‘rtaga qo‘ydi.

1993 yil fevralda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasi va BMT rahbarlarining sa’y-harakatlari natijasida BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi mamlakatimizda BMTning Taraqqiyot dasturi, qochoqlar ishi bo‘yicha oliy qo‘mita komissari, Jahon sog‘liqni saqlash Tashkiloti, Aholi joylashish jamg‘armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, Bolalar jamg‘armasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o‘z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. 1993-1997 yillarda BMT vakolatxonasiga boshchilik qilgan Xolid Malikning faol ishtirokida O‘zbekistonda ko’plab xalqaro tadbirlar o‘tkazildi. Chunonchi, Toshkentdagi BMTning qochoqlar ishi bo‘yicha oliy qo‘mitasi komissarining vakili tojik qochoqlarni yurtiga qaytarish, ularga BMTning inson’arvarlik yordamini yetkazish bo‘yicha katta tadbirlarni amalga oshirdi. 1994 yil oktabrning boshlarida BMT vakolatxonasining yordami va ishtirokida Toshkentda bo‘lgan jahon sayyohlik Tashkilotining *«I’ak yo‘li»* xalqaro yig‘ilishi jahon sayyohlik va tijorat ishlarida O‘zbekistonning mavqeini yanada ko‘tardi.

O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida o‘z ifodasini to’di. O‘zbekiston ‘rezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasi minbaridan turib so‘zlagan nutqida Markaziy Osiyoni Yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish g‘oyasini ilgari surgan edi. O‘zbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida BMT doirasyadagi ixtisoslashgan Tashkilotlar bilan hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Jumladan, uning BMT homiyligida ta’lim, fan va madaniyat bilan shug‘ullanuvchi xalqaro Tashkilot — YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 183 davlat a’zo bo‘lgan YuNESKOning bosh maqsadi — barcha xalq-lar kelajagining umumiyligi asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish, hozirgi zamon muammolarini yanada chuqurroq o‘rganishga ko‘maklashishdan iborat. YUNESKO har yili o‘z faoliyati doirasida jahonda 150—200 yirik tadbir o‘tkazadi. YUNESKO har bir davlatdagi ilg‘or tajribalarni o‘rganuvchi va boshqalarga tarqatuvchi «g‘oyalar laboratoriyasi» rolini bajarmoqda.

1993 yil 29 oktabrda YUNESKOning ‘arijdagi qarorgohida O‘zbekistonni YUNESKOga a’zolikka qabul qilish marosimi bo‘ldi. O‘sha kuni Ulug‘bek taval-ludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994 yil oktabrda ‘arijda Ulug‘bek haftaligi tantana bilan o‘tdi. Xiva va Buxoro YUNESKOning jahon madaniy qadriyatlar ro‘yxatiga kiritildi. Bu ro‘yxatda 411 ta ob’ekt bor.

Samarqand, Buxoro, Xivaning me’moriy majmualarini qayta tiklash ishlariga YUNESKO eks’erti qayta tiklovchi me’mor Jovanni Bokkardi O‘zbekistonga tashrif buyurdi va bu boradagi ishlarda yordam ko‘rsatdi.

1994 yil dekabrda res’ublikamizda YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi Tashkil etildi, u idoralararo organ bo‘lib, tarkibiga ta’lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a’zo bo‘ldi.

YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o‘rganish, tiklash va ommalashtirishga katga ahamiyat bermoqda. *«I’ak yo‘li — muloqot yo‘li»* deb nomlalgan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. Olti jildlik Markaziy Osiyo tarixi tayyorlanmoqda va nashr etilmoqda. 1992 va 1994 yillarda uning ikki jildi nashr etildi. Unda mintaqa mamlakatlari mutaxassislari qatnashmoqda. YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyoni tadqiq qilish xalqaro instituti Tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O‘zbekistondagi rasmiy tashrifi chog‘ida institut tantanali ravishda ochildi. YUNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro mikyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktabrda ‘arijda Amir Temurga bag‘ishlangan xalqaro xaftalik anjuman bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar — Jahon sog‘liqni saqlash Tashkiloti, xalqaro mehnat Tashkiloti, Jahon intellektual mulk Tashkiloti, BMTning bolalar fondi, xalqaro ‘ochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo‘yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya Tashkiloti, Xalqaro Olim’iada qo‘mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa Tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy Tashkilotlar - Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya kor’oratsiyasi, Yevro’a tiklanish va taraqqiyot banki ham ko‘maklashmoqda. Xalqaro savdo markazi (YUNKTAD), tariflar va savdo Bosh bitimi (GA’) bilan hamkorlik qilinmoqda.

O‘zbekiston 1992 yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qator tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro Tashkilot - Yevro’ada xavfsizlik va hamkorlik Tashkiloti (EXHT)ga a’zo bo‘lib kirdi. I. Karimovning 1992 yil 9—10 iyulda bo‘lgan Yevro’ada xavfsizlik va hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etishi, unda nutq so‘zlashi va Kengashning 10 iyulda bo‘lgan majlisida raislik qilishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallayotganligining dalilidir. I.Karimov o‘z nutqida u yoki bu mintaqada tinchlik va barqarorlikni buzishi mumkin bo‘lgan mojarolar

keskinlashuvining oldini olish, mojarolarga yo‘l qo‘ymaslik muammolari bilan shug‘ullanuvchi mexanizmni vujudga keltirish, Tashkilot qabul qilayotgan hujjatlarning ta’sirchanligini oshirish, ularning mojarolarning oldini olish, yo‘l qo‘ymaslik ruhida bo‘lishini ta’minlash takliflarini ilgari surdi. 1994 yil sentabr oyining oxirlarida Toshkentda YEXHTning umumiy masalalarga bag‘ishlangan xalqaro anjumani bo‘lib, unda Tashkilot faoliyatining barcha qirralariga oid masalalar ko‘rib chiqildi. YEXHT Toshkentda va Urganchda atrof-muhitni qayta tiklash bo‘yicha seminarlar o‘tkazdi, Orol muammosini hal qilishga ko‘maklashmoqda. 1995 yil iyulda Toshkentda YEXHTning aloqalar bo‘yicha mintaqaviy byurosi ochildi va faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston ko’pgina mintaqaviy Tashkilotlar, chunonchi, Yevro’a Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi Tashkiloti, qo‘shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

1996 yil fevral oyida O‘zbekiston Yevro’a Ittifoqi bilan hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha muzokaralar boshladi. Shu yil iyul oyida Florensiya shahrida Yevro’a Ittifoqi bilan O‘zbekiston o‘rtasida sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi. Bu hujjat O‘zbekiston, Yevro’a Itgifoqi va unga a’zo bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy negizi bo‘lib siyosiy, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi. Yevro’a Ittifoqi bilan hamkorlik O‘zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston bilan Atlantika mamlakatlari Tashkiloti - NATO o‘rtasida o‘zaro hamkorlik mavjud. 1995 yil iyul oyida O‘zbekiston NATOning *«Tinchlik yo‘lida hamkorlik»* dasturiga qo‘shildi. O‘zbekiston bu dasturdagi ishtirokiga o‘z mustaqilligini mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlaridan bahramand bo‘lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarni kengaytirish nuqtai-nazaridan qaraydi. «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturi tomonidan 1995 yilda AQShda, 1997 yili qozog‘iston va O‘zbekistonda o‘tkazilgan harbiy mashqlarda O‘zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zobit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada ko‘tarishga xizmat qildi.

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida sayyoramiz ozon qatlamini muhofaza qilish bo‘yicha Vena Konvensiyasiga, ozon qatlamini kamaytiradigan moddalar haqidagi Monreal ‘rotokoliga, atrof-muhitga ta’sir etuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa dushmanlik maqsadida qo‘llashni taqiqlovchi konvensiyaga, Yadro qurolini tarqatmaslik xaqidagi shartnomaga qo‘shilgan.

Shunday qilib, O‘zbekiston tarixan qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga

qo‘shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko‘tarildi.

Dunyodagi yetakchi mamlakatlar bilan o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish – mintaqaviy xavfsizlik asosi.

XX asr yakuniga yetib, xalqaro munosabatlarda kuchlar nisbati o‘zgarib borayotgan bir sharoitda XXI asr boshlandi. Butun insoniyatni, jumladan, o‘zbekistonliklarni ham bugungi davrning asosiy jihatlari tashvishlantiradi.

Dunyoning qiyofasi qanday tusga kirdi? Insoniyat o‘z taraqqiyotining qaysi marrasiga ko‘tarildi? XXI asr O‘zbekiston uchun qanday imkoniyatlarni ochib beradi yoki qanday sinovlar kutmoqda, uning jahon hamjamiyatidagi o‘rni qanday bo‘ladi? - degan savollar barchani o‘ylantirishi tabiiy. Ushbu masalalarni, O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan bo‘lgan hamkorligi va aloqalari orqali yoritish maqsadga muvofiqdir. Zero, nafaqat O‘zbekiston va boshqa davlatlar orasidagi munosabatlar, balki barcha davlatlarining o‘zaro hamkorligi xalqaro masalalar va muammolarning eng maqbul yechimini to’ishga yordam beradi.

O‘zbekistonning jahon xalqlari tinchligi va havfsizligiga mos tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta’minladi. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan di’lomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular jumlasiga AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, ‘okiston va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, O‘zbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro Tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat Tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq davlatda - AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, ‘okiston va boshqalarda O‘zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

Bu ko‘rsatkichlar esa O‘zbekistonning jahon davlatlari bilan yaxshi munosabatda ekanligi va o‘zining ahamiyatli o‘rniga egaligini ko‘rsatib turibdi.

Yangi Tashkil to’gan mustaqil davlat uchun, o‘z milliy manfaatlariga mos keladigan ‘uxta tashqi siyosiy yo‘lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, di’lomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatish masalalari dolzarb vazifadir. Chunki, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakat xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko’p jihatdan ana shu vazifalarning oqilona hal etishiga bog‘liqdir. Albatta, bu amalga oshirish

murakkab bo‘lgan vazifa bo‘lib, ko’p yillar davomida tashqi siyosat yuritish, tashqi dunyo bilan bog‘lanish, davlatlar bilan tashqi savdoni Tashkil etish kabi vazifalarni bajarilishini talab etadi.

Sho‘ro tizimi davrida O‘zbekistonga bevosita tegishli xalqaro munosabatlarga oid ishlar ham markaziy hokimiyat tomonidan amalga oshirilgan, o‘zi esa tashqi olamdan ajratilgan edi. Buning natijasida esa O‘zbekiston tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham jahon di’lomatiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatini biladigan kadrlariga ham ega emas edi. Kadrlarni tayyorlovchi o‘quv yurti ham yo‘q edi.

Vaziyat zudlik bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini takomillantirishni talab qildi. O‘zbekiston rahbariyatiga bu sohadagi ko’p qirrali ishlarni boshdan boshlashga to‘g‘ri keldi.

‘rezident I.A.Karimov "O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li" asarida ta’kidlaganidek, ....«o‘zining xalqaro obro‘-e’tiborini qozonish va mustahkamlash, xalqaro huquqning teng huquqli sub’ekti sifatida o‘zini qaror to’tirish uchun ko’p ishlarni qilish, ba’zida esa umuman boshidan boshlashga ham to‘g‘ri keladi".

O‘zbekistonni xalqaro huquq sub’ekti sifatida belgilaydigan, res’ublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. "O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy tamoyillari to‘g‘risida"gi, "Chet el invesitsiyalari to‘g‘risida"gi, "Xorijiy investitsiyalariga kafolat berish va investorlar to‘g‘risida"gi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida"gi va boshqa qonunlar hamda normativ hujjatlar ana shular jumlasidandir.

### O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash borasidagi siyosati

‘rezident I.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqiyot kafolatlari” asarida havfsizlikni va barqarorlikni ta’minlash muammosini keng va chuqur tahlil etdi. U asosiy strategik muammolarini birlashtirdi, ushbu muammolar mintaqamizning davlat arboblarning e’tiboriga sazovor bo‘lishi shart. Biz o‘zimizni qanday himoyalashimiz kerak, rivojlanish uchun im’ulslarni qaerdan izlash kerak? – degan savollar bugungi kunning eng dolzarb muammolarini aks ettirmoqda. Shu bilan birga, ‘rezident I.Karimov mavjud bo‘lgan havfsizlikka nisbatan tahdidlarning tabiatini, ularning manbalarini chuqur o‘rganishimizni, mintaqada barqarorlikni saqlash shartlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish zarur ekanligini ta’kidladi.

Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan eng keskin tahdidlar sifatida quyidagilar e'tirof etilishi mumkin:

6. Mintaqaviy mojarolar, ularning asosiy mazmuni etnik millatchilik, harbiy va diniy ayirmachilik. Ushbu mojarolar ayrim davlatlar qo'lida o'z manfaatlarini himoyalash va ta'sir ko'rsatish hamda mintaqalarni qo'ldan chiqarmaslik yoki strategik kuchlarni o'z foydasi uchun qaratish kuchli quroliga aylandi.
7. O'zbekistonning geosiyosiy jihatdan Yevroosiyo qit'asidagi qudratli davlatlar o'rtasida joylashganligi.
8. Terrorizm, narkobiznes va noqonuniy qurollar savdosi.
9. Yadro quroli muammosi, ushbu qurolga Hindiston va 'okiston ega, ammo ular o'rtasida juda ham keskin vaziyat saqlanmoqda, ushbu vaziyat davlatlar o'rtasida urushga aylanishi mumkin;
10. Ekologik havfsizlik.

Markaziy Osiyo mintaqasida mustahkam tinchlikni o'rnatish, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash strategiyasi, dastavval, mintaqada barqarorlikni ta'minlash, hamda O'zbekiston va butun mintaqa havfsizlikni yangi modellarni ishlab chiqish maqsadlar va vazifalar bilan aniqlanadi.

O'zbekistonning NATO bilan «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasida hamkorligining natijalari:

-NATO bilan aloqalar dunyo hamjamiyatiga milliy tashqari va ichki siyosatning tamoyillarini yetkazadi, O'zbekistonning ichki va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslarni hayotga tatbiq etish qurolidir;

-NATO doirasidagi konferensiya, seminarlar res'ublikaning eks'ert-informatsion salohiyatini oshiradi. 1998 yilda NATO tadbirlarida 160 dan oshiq O'zbekiston vakillari ishtirok etdi;

-Tinchlik o'rnatuvchi va gumanitar harbiy mashqlarda ishtirok (AQShda «Koo'erativ Nagget-95 va 97» va «Koo'erativ Os'rey-96 va 98»; Norvegiyada «Koo'erativ Banners-97»; Olmoniyada «Kombaynd Endevor-98»; O'zbekistonda AQShning harbiy qismlari ishtirokida «Balans Ultra-96 va 97») O'zbekistonning harbiy askarlarga NATOning tinchlik o'rnatuvchi rejalar ishlab chiqish jarayoni bilan, ularni tayyorlash, hamda hayotga tatbiq etish bilan tanishtirdi.

-NATO bilan hamkorlik rivojlangan davlatlar bilan harbiy mutaxassislarni tayyorlashda aloqalarni o'rnatishga yordam beradi.

-NATO harbiy mashg'ulotlarda ega bo'lgan bilimlar Sentrazbat 1997 va 1998 yil mashg'ulotlarida qo'llanilgan.

-1999 yilda hamkorlikni individual tadbir doirasida O‘zbekiston va NATO orasida 120 tadbir o‘tkazilgan.

-Sentrazbat-2000 o‘quv mashg‘ulotlariga antiterroristik harakatlar elementi kiritilgan edi. Shunday qilib, mashg‘ulotlar maksimal darajada mintaqadagi bo‘lgan vaziyatga yaqin edi.

MDH doirasida  terrorizmga qarshi harakatlar ham o‘tkaziladi, jumladan, MDH davlatlaring harbiy kuchlarni zabt etishda antiterroristik mashg‘ulotlar. Shu maqsad bilan, MDHning harbiy hamkorlikni muvofiqlashtirish shtabi 1999 yilda Markaziy Osiyoda «MDHning Janubiy qalqoni-1999», yarim yildan so‘ng «MDHning Janubiy qalqoni-2000» o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazdi. Ushbu mashg‘ulotlarda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston, O‘zbekiston, Armaniston va Belorusiya davlatlarning harbiy kuchlari ishtirok etdi.

«Tinchlik yo‘lida hamkorlik», «Janubiy qalqon» dasturlarida ishtirok etish O‘zbekiston qurolli kuchlarida islohotlar o‘tkazish va ixcham hamda mukammal jihozlangan qurolli kuchlarni yaratishga imkon beradi.

AQSHning Sietl shahrida bo’lib o’tgan lingvistlar anjumanida keltirilgan mahlumotlarga ko’ra, 2050 yilga kelib, hozirda mavjud 6800 tilning yarmi yo’q bo’lib ketishi mumkin. Mavjud jami tillar- ning 6100 tasida (90%) ga’lashadigan kishilarning umumiy soni 100 mingdan oshmaydi. 46 tilning faqat bitgadan, 357 tilning elliktaga yaqin tashuvchisi qolgan, xolos[18].

Mazkur faktlar ham bunday yo’qotishlarning qimmatini anglab yet- gan, ammo ijtimoiy-siyosiy, iqgisodiy muammolar, turli ko’rinishda- gi nizolar iskanjasida qolgan kishilik jamiyati ularning oldini olishda afsuski,ojizlik qilayotganini ko’rsatmoqda.

### *9 – Vaziyatli to’shiriq*

### Milliy g’oyani rivojlantirishning institutsional tizimi

Mafkuraviy tarbiya - inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g’oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo’naltirilgan jarayon.

«Ta’lim to’g’risida»gi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qonunlari «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»ning mehyoriy asosi, uni amalga oshirish usuli va mexanizmidir. Kadrlar tayyorlash milliy modelining o’zagi va muhim

---

[18] **Қаранг: В XXI веке на Земле исчезнуг 3400 язьжов. // «Зеркало XXI», №13 (221), 2004.**

xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlar sifatida quyidagi kom’onentlar kiradi: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat.

Mafkuraviy tarbiya jamiyatda, avvalo oila, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, litsey, kollejlar, oliy o’quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatni taqozo qiladi. Uzluksiz ta’lim tizimi mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo’g’indir, zero mafkuraviy maqsadlarni yoshlar ongiga singdirish vazifasi asosan ta’lim roqali amalga oshiriladi.

O’zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning ustuvor yo’nalishlari quyidagilardan iborat:

1) belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o’tkazilishini ta’minlash;

2) milliy istiqlol g’oyasining targ’ibot sifatini muntazam oshirib borish;

3) davr talablaridan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo’larini izlash;

4) bu sohada eski uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalash-tirishga yo’l qo’ymaslik;

5) mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;

6) mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik va majlisbozlik ko’rinishlariga barham berish;

7) mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

Milliy g’oya, mafkuraning targ’ibot-tashviqotini tashkil etishda quyidagi tashkiliy tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Uzluksizlik (milliy mafkurani yoshlarga singdirib borishni beshikdan boshlash kerak, sodda shaklda).

2. Keng qamrovlilik (jamiyat barcha ahzolariga g’oyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish)

3. Bosqichma-bosqichlilik (oila-bog’cha-maktab-kollej, litsey, oliy o’quv yurtlari asosida).

4. Ketma-ketlik (har bir bosqich uchun insonga xizmat qiladigan qadriyatlar asosida)

5. Faollik (ko’proq interaktiv usullardan foydalanish).

6. Ish bilan so’z birligi (nazariya va amaliyot birligi).

7. SHaxsiy ibrat (targ’ibot qiluvchining o’zi shaxsiy hayotda ibrat bo’lishi).

8. Hayotiylik (yutuqlar bilan birga kamchiliklarni ham ko’rsatish).

9. Ilg’or targ’ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish.

10. Mehyoriylik (baland’arvoz, rasmiyatchilik, takrorlanishlarga ko’p ham yo’l qo’ymaslik).

Savollar:

1. “Mafkuraviy tarbiya” tushunchasi, uning mazmuni nimalardan iborat?
2. Mafkuraviy tarbiyaning qanday yo’nalishlari mavjud?

Milliy g’oya va mafkurani targ’ib-tashviq qilishda mutaxassislarning roli qanday?

**Keys №9**

**Bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasi**

Globallashuv - turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlari o’rtasidagi o’zaro tahsir va bog’liqlikning kuchayishidir. Globallashuvga berilgan tahriflar juda ko’p. Frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi tahrifida globallashuv jarayonining 3 o’lchovli ekaniga urg’u beriladi:

1. Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon.
2. Globallashuv - jahonning gomogenlashuvi (bir jinsli) va universallashuvi jarayoni.
3. Globallashuv - milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni.

Rossiyalik A.’arshev globallashuvga quyidagicha tahrif beradi: «Aslida, globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo’shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarini o’zlashtirishdan iborat».

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma’naviyatiga o’tkazishi mumkin bo’lgan ijobiy va salbiy tahsiri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so’zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o’tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. SHu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo’lib uyimni ag’dar-to’ntar qilib tashlashi, o’zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman».

SHuning uchun ham milliy istiqlol g’oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan tahminlab, ayni paytda, «dovullar»dan saqlash omili ekanligini anglash mumkin.

Globallashuv jarayoni murakkab hodisa. Uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma’naviyatiga o’tkazayotgan tahsiri murakkabligi sababli unga nisbatan ham jahonda bir-biriga qarshi, muxolifatda bo’lgan ikki guruh: 1) globalistlar va 2) aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

**1. Globalistlar** - globallashuv tarafdorlaridir. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi.

XX asr o'rtalarida globallashuvning instituttsionlashuvi (tashkil-lashuvi) kuchaygandan keyin bu jarayon tezlashdi. Masalan, Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevro'a taraqqiyoti va tiklanish banki tashkilotlari glabalistlar tahsirida vujudga keldi.

**2. Aksilglobalistlar** - globallashuv muxoliflari bo'lib, ular orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor. MDH hududida aksilglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqda. Bu yerda ular turli anjumanlar, seminarlar o'tkazish uchun to''lanib turadilar.

Aksilglobalistlar faoliyati ham bugungi kunda kuchaydi. Lekin faqat uning salbiy oqibatlarigagina emas, umuman unga qarshi chiqmoqda. Masalan, rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovg'ev «Aksilglobalizm vektorlari» nomli anjumanda shunday degan edi: «Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi ti'dagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmaya'man. Faqat qarshilik!».

Umuman globalashuv «mafkuralashishdan» xoli bo'lishi kerak. Dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensiv-lashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar jadallashib bormoqdi. Bunday sharoitda mafkuraviy vositalar orqali o'z tahsir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo'q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va fundamentalizm, irqchilik va diniy eksteremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Bu hol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda.

## NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ma'naviy barkamol, sog'lom avlod, komil inson tushunchalaridagi mushtaraklik va farq nimada?
2. Turli millat kishilarining ijtimoiy ongi va uning millatlararo munosabatlarning rivojiga ta'siri.
3. Madaniy-ma'naviy hayotning globallashuvi jarayonining moxiyati va xususiyatlari.
4. Millatlarning, madaniyatlarning bir-biriga ta'siri turli xalqlarning, turli millat kishilarining ma'naviy-ahloqiy boyishiga xizmat qilishi.

Adabiyotlar: A1. A12. A17.A18.A22.A24.A36,A38, D3.D10.D11., Q1,Q4, Q15, E1,E2,E9

## 10. Mavzu: Millatlararo munosabatlarning rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning o‘rni.

**Reja:**

**1.** O‘zbekistonning millatlararo munosabatlarini takomillashtirishdagi o‘ziga xos siyosati.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Mustaqil davlatlar bilan tinchlik yo’lida aktinilarni imzolashi. Millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligi.

**3.** Res’ublikamiz millatlar va elatlarning xuquq va erkinliklarini muxofaza qilishga doir xalqaro bitimlarni amalga oshirish va xalqaro maydonda etnik birliklarning xuquqlarini ta’minlash tomonlarini ishlab chiqishi jarayonidagi qatnashuvi.

**Tayanch iboralar:** Integratsiya, mustaqil davlatlar hamkorligi, terrorizmga qarshi barcha kurash, «Turkiston», «6+2» guruhi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Uning hududida 15 ta diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladilar. Yuqoridagi qonunda keltirilganidek, ular Konstitutsiya oldida huquq va majburiyat yuzasidan tengdirlar. Konstitutsiyaning 12-moddasida ta’kidlanishicha, hech qanday mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas. Shunga ko‘ra hech qanday konfessiya boshqalaridan ustun deb qaralishi yoki ularga o‘z ta’sirini o‘tkazishga intilishi mumkin emas.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq diyorimizning barcha fuqarolari haqiqiy erkinligini his qila boshladilar. Ayni vaqtda bu huquq va erkinliklar O‘zbekiston Respublikasining Konchtitutsiyasida o‘z aksini to’gan. Jumladan, Konstitutsiyaning 18-moddasida:

**“O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”**, deyilgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to‘siqlarsiz o‘z dinlariga e’tiqod qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. O‘z vaqtida konstitutsiya fuqarolarning vijdon erkinligi bo‘yicha haq-huquqlarini kafolatlaydi. 31-moddaga asosan:

**“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hech qaysi dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”.**

Konstitutsiyaning mazkur moddasida qayd etilgan tushunchalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va birinchi galda jahon andozalariga to‘liq javob beradigan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda o‘z aksini to’gan.

O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan 2Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining Axborotnomasi, 1991 yil №8, 186-modda; 1993 yil, №9, 334-modda) o‘zgarishi va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri 1998 yilning 1 may kuni res’ublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e’tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat’i nazar, fuqarolarning tengligini ta’minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bohliq munosabatlarni tartibga solib turishgdan iborat. (1-modda).

Huquqiy kategoriya sifatida vijdon erkinligi, bir tomondan, e’tiqod erkinligini, ikkinchi tomondan esa, hech bir dinga e’tiqod qilmaslik huquqini ifoda etadi.

Axloqiy nuqtai nazardan bahs yuritilganda esa, vijdon erkinligi – bu muayyan insonning fikrlash tarzi va shaxsiy ma’naviy e’tifodiga mos hatti-harakat qilish huquqidir.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni har bir fuqaroga uch imkoniyatdan birini hech qanday tazyiqlarsiz, ongli ravishda tanlab olishni ta’minlaydi.

XX asrNing 30-yillaridan buyon terrorizmga qarshi kurashning turli jihatlariga bag’ishlangan 16 ta xalqaro (13 ta asosiy konventsiya va 3 ta qo’shimcha bayonnoma) va 7 ta mintaqaviy shartnoma imzolangan. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 1994 yil 9 dekabrdagi 49/60 sonli «Xalqaro terrorizmga barham berish chora- tadbirlari» to’g’risidagi Qarorida terrorizmga insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlarning «barcha shakli va ko’rinishlari» sifatida tahriflanib, unga qarshi kurash yushalishidagi asosiy halqaro hukuqiy xujjatlargshng ro’yxati keltirilgan.

2006 yilning 8 sentyabrg’ kuni BMT Bosh Assambleyasining 60-sessiyasida Qaror va unga ilova qilingan reja shaklida «Global aksilterroristik strategiya» qabul qilgan. Ushbu hujjatda tashkilotga ahzo davlatlar terrorizmga qarshi

kurashning yagona strategik va o’erativ yondoshuvini shakllantirdilar. Xujjatda terrorizmning barcha davlatlar tomonidan qoralanishi, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash davlatlararo o’zaro hamkorlik, yagona mahlumotlar bazasini yaratish, Internet tarmog’ida innovatsion aksiltarg’ibot ishlari tashkil etish, terrorchilar va ular foydalanadigan materiallarning harakatlanishiga to’sqinlik qilish maqsadida chegaralarni qo’riqlash va bojxona nazorati tizimlarini takomillashtirish kabi yo’nalishlarga urg’u berilgan[19].

## OLMAOTA DEKLARATSIYASI

Mustaqil davlatlar:

Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozogiston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi (RSFSR), Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O‘zbekiston Respublikasi va Ukraina, demok-ratik huquqyy davlat bar’o etish, ular o‘rtasidagi munosabatlar davlat suverenitetini va suveren tenglikni, o‘z taqdirini o‘zi belgilashdan iborat daxlsiz huquqni o‘zarr tan olish va hurmat qilish, huquqiy tenglik va ichki ishlarga aralashmaslik qoidalari, kuch ishlatishdan va kuch ishlatish bilan do‘q qilishdan, iqtisodiy va boshqa har qanday tazyiq usullaridan voz kechish, nizolarni tinch bartaraf etish, inson huquqlari va erkinliklarini, shu jumladan oz sonli millatlarning huquqlarini hurmat qilish, majburiyatlarni hamda hamma e’tirof qilgan xalqaro huquq qoidalari va me’yorlarini halol bajarish asosida rivojlanishini yo‘lga qo‘yishga intilib:

—bir-birining hududiy yaxlitligini hamda mavjud chegaralar buzilmasligini tan olib va hurmat qilib;

— chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan do‘stlik, yaxshi ho‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash xalqlarning tub manfaatlariga mos bo‘lib tushadi hamda tinchlik va xavfsizlik ishiga xizmat qiladi, deb hisoblab;

—fuqarolar tinchligini va millatlararo totuvlikni saqlab qolish uchun o‘z mas’uliyatlarini anglab;

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligani tuzish to‘g‘risidagi Bitimning maqsadlari va qoidalariga sodiq qolib, quyidagilarni bildiradilar:

Hamdo‘stlik qatnashchilarining o‘zaro aloqalari tenglik asosida tuziladigan hamda hamdo‘stlik qatnashchilari o‘rtasidagi bitimlarda belgilanadigan

---

[19] **ООН на страже мира и безопасности во всем мире. Сайт «ООН». 1ЖЬ: ЬЦр://\у\\г\у. ип.ог§/ги/аЬоийт/ Ьоок1е1/ 1еггог18т.8Ь1т1).**

muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali teng huquqlilik qoidasi asosida amalga oshiriladi, mazkur hamdo‘stlik davlat ham emas, davlatlar ustidan turadigan tuzilma ham emas.

Xalqaro strategik barqarorlikni va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida harbiy strategik kuchlarning bir-lashgan qo‘mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat sahlanib qoladi; tomonlar bir-birlarining yadrosiz va (yoki) betaraf davlat maqomiga erishish muddao-sini hurmat qiladilar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi barcha qatnashchilar-ning roziligi bilan sobiq SSR Ittifoqiga a’zo bo‘lgan davlatlarning, shuningdek hamdo‘stlik maqsadlari va qoidalariga sherik bo‘ladigan boshqa davlatlarning unga qo‘shilishi uchun ochiqdir.

Umumiy iqtisodiy makonni, Umumevro’a va Yevro’a-Osiyo bozorlarini vujudga keltirishda va rivojlantirishda hamkorlik hilishga sodiqlik tasdiqlanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bar’o etilishi bilan Sovet Sotsialistik Res’ublikalari Ittifoqi o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Hamdo‘stlikda qatnashuvchi davlatlar o‘z konstitutsiyalaridagi tartib-qoidalarga binoan sobiq SSR Ittifoqining shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqsaga-na, xalqaro majburiyatlarning bajarilishiga kafolat beradilar.

Hamdo‘stlikda qatnashuvchi davlatlar ushbu Deklaratsiya qoidalariga og‘ishmay rioya etish majburiyatini oladilar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlat boshlihlari kengashining qarorida ham unga a’zo bo‘lib kiruvchi barcha mustaqil davlatlar xalqaro Tinchlik va hamdo‘stlikni mustahkamlashga ko‘maklashishni maqsad qilib belgilaganligi alohida ta’kidlangan. Olmaota shahrida 1991 yil 21 dekabr kuni ozarbayjon, arman, belorus, qozoq, qirgaz, moldavan, rus, tojik, turkman, o‘zbek va ukrain tillarida Mustahil davlatlar boshliqlari kengashining ‘rotokoli tuzyldi.

Buvdan tashqari yana Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining muvofiqlashtiruvchi muassasalari to‘g‘risida bitim ham tuzilib, unda qatnashuvchi davlatlar o‘rtasida umumiy manfaatlar sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish bilan bog‘liq masalalarni hal etish ko‘zda tutilgan

## Barrikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi

1995 yil oktabr — 16 noyabrda ‘arijda YUNESKO Bosh konferensiyasining yigirma sakkizinchi sessiyasiga tu’langan Ta’lim, fan va madaniyat masalalari buyicha Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo davlatlar.

### MUKADDIMA

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomidagi: «Biz, Birlashgan Millatlar xalqlari, kelajak avlodlarni urush Xalokatlaridan xalos qilish istagi bilan tulgan, yana bir bor insonning asosiy xuquqlariga, sha’niga va inson qadr-qimmatiga nisbatan ishonchni tasdiqlab va shu maqsadlarda barrikenglikni namoyon qilib va o‘zaro tinch va yaxshi qushnilar singari ahil yashash» xaqida bayon etilgan fikrlarni yodda tutib,

1945 yil 16 noyabrda qabul qilingan YUNESKO Nizomining Muqaddimasida ta’kidlanganidek, «tinchlik insoniyatning intellektual va ma’naviy birdamligiga tayanishi lozim»ligini eslatib,

Inson xuquqlari Butunjaxon Deklaraqiyasida «xar bir inson fikr, vijdon va din erkinligi xuquqiga ega» (18-modda), «e’tiqodlar erkinligi va ularni erkin ifoda qilish» (19-modda) va ta’lim «barcha xalqlar, irqiy va diniy guruxlar o‘rtasida bir-birini tushunish, o‘zaro xayrixoxlik va dustlikka xizmat qilishi kerak»ligini (26-modda) eslatib,

Muayyan xalqaro xujjatlar, jumladan:

Fuqarolik va siyosiy xuquqlar tug‘risidagi xalqaro ‘aktni,

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xuquqlar tug‘risidagi xalqaro ‘aktni,

Irqiy kamsitishning barcha turlariga barxam berish tug‘risidagi xalqaro Konvensiyani,

Genotsid jinoyatlarining oldini olish va unga nisbatan jazolar tug‘risidagi Konvensiyani,

Bola xuquqlari tug‘risidagi Konvensiyani, qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi 1951 yil Konvensiyasi va qochoqlarning maqomiga ta’luqli 1967 yilgi ‘rotokol, shuningdek, shu soxaning mintaqaviy huquqiy xujjatlarni,

Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha turlariga barxam berish tug‘risidagi Konvensiyani,

Zurlash va boshqa shafqatsiz, rayrinsoniy va qadr-qimmatni taxqirlaydigan muomala va qiynoq turlariga qarshi Konvensiyani,

Din va e’tiqodlarga asoslangan xar qanday murosasizlik va kamsitishlarga barxam berish to‘g‘risidagi Deklaratsiyani,

Millati, elati, dini yoki tili nuqtai-nazaridan kam sonli bo‘lgan guruxga mansub shaxslarning huquqla’u to‘g‘risidagi Deklaratsiyani,

Xalqaro terrorchilikka chek qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Deklaratsiyani,

Vena deklaratsiyasi va Inson xuquqlari buyicha Butunjaxon konferensiyasining xarakat Dasturini,

Ijtimoiy taraqqiyot manfaatlari yo‘lida Ko’engagenda bulib o‘tgan oliy darajadagi Butun jaxon konferensiyasining deklaratsiyasi va xarakat Dasturini, Irq va irqchilik bidiatlari to‘g‘risidagi YUNESKO Deklaratsiyasini,

Ta’lim soxasida kamsitishlarga qarshi kurash to‘g‘risidagi YUNESKO Konvensiyasi va Tavsiyanomasini nazarda tutib,

Irqchilik va irqiy kamsitishga qarshi kurash xarakatlarining uchinchi soxasi buyicha ta’lim o‘n yilligi va dunyo tub xalqlarining xalqaro o‘n yilligi maqsadlarini yodda saqlab,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining bag‘rikenglikka bag‘ishlangan yili doirasida YUNESKO Bosh konferensiyasining 27S/5.14 rezolyutsiyasiga muvofits o‘tkazilgan mintaqaviy konferensiyalar tavsiyalarini inobatga olib, shuningdek, a’zo davlatlar tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti yili dasturi bo‘yicha bag‘rikenglikka bag‘shlab o‘tkazilgan boshqa konferensiya Xamda kengashlarning xulosa va tavsiyalarini e’tiborga olib,

keyingi ‘aytlarda milliy, etnik, diniy va til jixatdan kamchilik bo‘lgan guruxlarga, qochoqlarga, ishchi-muxojirlar tabaqalariga va jamiyatlarning ijtimoiy jixatdan kam Ximoyalangan guruxlariga nisbatan murosasizlik xolatlari, zurlash, terrorchilik, ksenofobiya, tajovuzkorona millatchilik, irqchilik, antisemitizm, yotsirash, marginalizatsiya va kamsitishlarning ku’ayganligiga, shuningdek, tinchlik yo‘lidagi sa’yi-xarakatlarga va milliy xamda xalqaro darajada demokratiya taxdidga qarshi erkin fikri va e’tiqodini ifoda etuvchi aloxida shaxslarga ularning uz xuquqlarini amalga oshirishlariga xalal berish maqsadida zo‘ravonlik va kuch ishlatilishiga nisbatan xavotirlik tuyg‘ysini xis etib,

a’zo davlatlarning inson xuuqlarini va barchaga ta’lluqli asosiy erkinliklarni irqiy, jinsiy, zaboniy, milliy, diniy mansubligi yoxud somigi xolatidan qat’iy nazar barcha uchun rivojlantirish xurmatini ta’minlash xamda murosasizlik kurinishlariga qarshi kurashish majburiyatiga aloxida e’tiborni qaratib,

ushbu Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasini qabul qiladilar va tantanali e’lon qildilar.

Jamiyatda barrikenglik ideallarini qaror to’tirish maqsadida barcha zaruratlarni bajarish uchun tayyor turib, bag‘rikenglik nafaqat o‘ta muxim tamoyil, balki tinchlik va barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning zaruriy sharti ekanligidan kelib chiqib, biz quyidagilarni bayon qilamiz:

## 1- MODSA. Bag‘rikenglik tushunchasi

*1.1.* Bag‘rikenglik — bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning aloxidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini Xurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot xamda xur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik

— turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma’naviy burchgina emas, balki, siyosiy va xuquqiy extiyoj xamdir. Bag‘rikenglik — tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

*1.2.* Bag‘rikenglik — yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag‘rikenglik — eng avvalo insonning universal xuquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda xam bag‘rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bohonasi bulib xizmat qilmaydi. Bag‘rikenglikni aloxida shaxslar, guruxlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

*1.3.* Baqrikenglik — inson huquqlarini qaror to’tirish ‘lyuralizm (shu jumladan, madaniy ‘lyuralizm), demokratiya va xuquqning tantanasi uchun ko‘maklashish majburiyatidir. Bag‘rikenglik — aqidabozlikdan, Xaqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson xuquqlari soxasidagi xalqaro-xuquqiy Xujjatlarda o‘rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

*1.4.* Bag‘rikenglikni namoyon qilish inson xuquqlariga extirom bilan xamoxang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bulishni, uz iymon-e’tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e’tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, xar kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkindir va xar kim bu xuquqqa boshqalar xam ega ekanligini tan olmog‘i lozim. U yana shuni anglatadiki, odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra tashqi ko‘rinishi, qiyofasi, o‘zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari farqlanishi e’tirofga loyiqligi barobarida, ular dunyoda yashashga va o‘zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga xaqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

## SEMINAR MASHG'ULOTLARI

### 10. Mavzu; Millatlararo munosabatlarning rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning o'rni.

| 60.Ijtimoiy xamkorlik g'oyasining mazmun mohiyati qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?<br>A) Inson onggi va tushunchalari tizimida hayot xaqidagi falsafiy, siyosiy xuquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarini maqsadli shakllantirish jarayondir<br>V) Murosa falsafasi bo'lib, xilma xil fikrlar va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruxlarning umumiy maqsad yo'lidagi xamjixatligini ta'minlaydi<br>S) Xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va xamjixat bo'lib yashashni anglatadi<br>D) Turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. |

| |
|---|
| 61.Iktisodiy islohatlar birinchi bosqichning eng asosiy yakuni nimada?<br>A)  Iktisodiy va ijtimoiy –siyosiy barqarorlikning ta’minlanishi<br>V) Iktisodiy islohatlar xuquqiy negizning bar’o etilshi<br>S) Jaxon iqtisodiy xamjamiyatiga qo‘shilishi<br>D) Barcha javoblar to‘g‘ri |
| 62.Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?<br>A) Vatan ravnaqi , yurt tinchligi , xalq farovonligi .<br>V) Komil inson , ijtimoiy xamkorlik ,<br>S) Millatlararo totuvlik , diniy tolerantlik<br>D) Barcha javoblar to‘g‘ri |
| 63.Buyuk davlatchilik shovinizm nima ?<br>A) Muayyan davlatning o‘z mavqei va ta’sirini o‘zga xudud va mintaqalarda kuchaytirishga qaratilgan siyosati.<br>V) Muayyan kuchlar tomonidan bo‘ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy xukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta’riflash mumkin<br>S) Jaxon miqyosidagi ijtimoiy –siyosiy, iqtisodiy muamolarini xal qilishda faollik ko‘rsatish<br>D) A va S |
| 64.«Bo‘lib tashla va xukmronlik qil» tamoyilini amalga oshirish usullarini aniqlang?<br>A) Mamlakat ichida ijtimoiy ‘arokandalikni keltirib chiqarishga urinish<br>V) Mintaqa davlatlari o‘rtasida turli ziddiyatlarni yuzaga keltirishga urinish<br>S) Xalqaro maydonda muayayn mamlakat haqida noto‘g‘ri noxolis tasavurlarni shakllantirishga urinish<br>D) Barcha javoblar to‘g‘ri |
| 65.G‘oyaviy mani’ulyatsiya nima?<br>A) Tinchlik  va barqarorlik taraqqiyot g‘oyalari targ‘iboti<br>V) Vayronkor g‘oyalarning vujudga kelishi<br>S) Do‘stlik , tinchlik va bunyodkorlik yo‘lidagi  g‘oyalarni  kamsitish<br>D) g‘arazli maqsadni yashirin tutgan holda kishilarni g‘oyalar ta’sirida boshqarish |
| 66.“Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir” kabi baxosi I.Karimovning qaysi asarida o‘z aksini to’gan<br>A) Amir Temur faxrimiz, g‘ururimiz<br>V) Barkamol avlod orzusi<br>S) Adolat har ishda xamroximiz va dasturimiz bo‘lsin<br>D) Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch |
| 67.Geo’olitik maqsadlar tushunchasining mohiyati nimada? |

| |
|---|
| A) Muayyan davlatning o‘z mavqei va ta’sirini o‘zga xudud va mintaqalarda kuchaytirishga qaratilgan siyosati.<br>V) Muayyan kuchlar tomonidan bo‘ladigan siyosiy , mafkuraviy va iqtisodiy xukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta’riflash mumkin.<br>S) «Geo»-er «siyosat»- davlat , ijtimoiy ish . Davlat va yer bilan bog‘liq masalalar<br>D) Barcha javoblar to‘g‘ri |
| 68.Millatlararo totuvlik g‘oyasini qanday tassavur qilasiz?<br>A) Inson onggi va tushunchalari tizimida hayot xaqidagi falsafiy , siyosiy xuquqiy , diniy, estetik , axloqiy , badiiy, kasbiy qarashlarini maqsadli shakllantirish jarayondir<br>V) Murosa falsafasi bo‘lib , xilma xil fikrlar va qarashlarga ega bo‘lgan , turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruxlarning umumiy maqsad yo‘lidagi xamjixatligini ta’minlaydi<br>S) Xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin , bir vatanda , oliyjanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va xamjixat bo‘lib yashashni anglatadi<br>D) Turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotning belgilaydi, tinchlik va barqarorliknining kafolati bo‘lib xizmat qiladi. |
| 69.Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy axloqiy negizlarini aniqlang?<br>A) Umumsoniy qadriyatlarga sodiqlik<br>V) Xalqimizning ma’naviy merosini mustaxkamlash va rivojlantirish<br>S) Insoning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi va vatan’arvarlik<br>D) Barcha javoblar to‘g‘ri. |
| 70.’rezident I.Karimov farmoniga binoan «Ma’naviyat va ma’rifat» res’ublika jamoatchilik markazi kachon tuzilgan?<br>A) 1992y 1 yanvarda V) 1993y 15iyunda<br>S) 1994y 23a’relda D) 1995y 12martda |
| 71.Mafkuraviy kurashda ko‘zlangan bosh maqsad?<br>A) Inson onggi va qalbini egallash<br>V) Ozod va obod Vatan ,erkin va farovon xayot bar’o etish<br>S) Muayyan g‘oyasi ishontirish<br>D) G‘oyaviy immunitetni shakllantirish |
| 72.Diniy ekstiremizm va fundametalizm g‘oyalarining asosiy maqsadi?<br>A) Diniy qadriyatlarni qayta tiklash<br>V) Mintaqada barqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish.<br>S) Siyosiy xokiyatni qo‘lga kiritish .<br>D) Islom dinining sofligi uchun kurash. |
| 73.Res’ublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi qachon tashkil |

| |
|---|
| to'gan?<br>A) 1992y 2 mart V) 1993y 23 a'rel'<br>S) 1994y 23 a'rel D) 1996y 26 a'rel |
| 74.Jamiyat taraqqiyotidagi xizmat qiladigan bunyodkor g'oyalarni aniqlang?<br>1) Ozodlik 2) Tinchlik 3) Millatchilik 4) Bag'rikenglik 5)Mustabidlik<br>6) Hamkorlik 7)Vatansizlik<br>A) 1,2,3,4 V) 1,2,4,5 S) 1,2,4,6 D) 2,4,5,6 |
| 75.Totemizmning mohiyati nimada?<br>A) Ruhlar mavjudligiga ishonch, hayvonot, o'simlik, jismlarda tabiiy qudrat borligini ilgari surish.<br>V) Olamning asosi bitta deya ta'lim beruvchi yo'nalish.<br>S) Odamlarni hayvonot yoki o'simliklarni muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor e'tiqod qilishdir.<br>D) Uning moxiyati tabiatdagi jonsiz 'redmetlarga sig'inishdir |
| 76.Milliy istiqlol g'oyasining ijtimoiy sohadagi vazifalarini aniqlang?<br>A) Islohatlarni bosqichma – bosqich amalga oshirish, axolining yordamga muxtoj qatlamlarini muhofazalash g'oyasini targ'ib qilish.<br>V) Turli qatlam, millat din vakillari o'rtasidagi uyg'unlikni tamoyilni yanada mustahkamlash<br>S) Kuch va salohiyatni ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikka xizmat qildirish<br>D) Milliy qadriyatlar, til madaniyat diniy e'tiqod urf-odat va an'analarini xurmat qilish |
| 77.Monizm nima?<br>A) Olamning asosi bitta deya ta'lim beruvchi yo'nalish.<br>V) Olamning ibtidosi ham ruhiy, ham moddiy asosga egaligini uqtiradi.<br>S) Olamning asosida ko'p narsalarni yotishi haqidagi g'oyalarni ilgari surish<br>D) Olam mavjudligi masalalarida ruhiy va ilohiy tamoyillarni ustuvor deb bilish |
| 78.Milliy istiqlol g'oyasining siyosiy sohadagi vazifalarini aniqlang?<br>A) Ma'naviyat beshigi oilaning jamiyatdagi mavqeini oshirish<br>V) Yurtdoshlarmizni ma'naviy yangilanish va islohatlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish<br>S) Vatanga,ona zaminimizga sadoqatli , chuqur bilimli va yuksak malakali kadrlarni tarbiyalash<br>D) Barcha javoblar to'g'ri |
| 79. «Ma'rifat» tushunchasi bu …….<br>A) arabcha so'z bo'lib, bilish, bilim, ma'lumot tanishishdir.<br>V) arabcha so'z bulib, akl, ong, idrok, ichki kayfiyatdir. |

S) arabcha so‘z bulib, ma’naviyat degani.
D) forscha Suz bulib, kishining ichki ruxiy xolatini bildiradi.

80.Uzbekiston Respublikasining «Davlat tili tugrisidagi» Konuni kachon kabul kilinganva necha moddadan iborat?
A) 1995yil 22 dekabrda 26 moddadan iborat.
V) 1994yil 22sentabrda, 30 moddadan iborat.
S) 1989yil 21oktabr, 24 moddadan iborat.
D) 1993yil 2 iyun, 24 moddadan iborat.

81.Milliy istiqlol g‘oyasining ma’naviy sohasidagi vazifalarni aniqlang?
A) Ma’naviyat beshigi oilaning jamiyatdagi mavqeini oshirish
V) Yurtdoshlarimizni ma’naviy yangilanish va islohatlar jarayonining faol ishtirok etishi
S) Vatanga ona zaminga sadoqatli , chuqur bilimli va yuksak malakali kadrlarni tarbiyalash
D) Barcha javoblar to‘g‘ri

82.«Oldimizda turgan eng muxim masala, bu milliy istiqlol mafkurasini yaratish va xayotimizga tatbiq etishdir»- Ushbu jumlalar I. Karimovning qaysi asarida keltirilgan?
A) Xushyorlikka da’vat.
V) Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik.
S) Milliy istiqlol mafkurasi–xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.
D) Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang.

83.Idealizm nima?
A) Olamning ibtidosi ham ruhiy, ham moddiy asosga egaligini uqtiradi.
V) Olamning asosida ko’p narsalarni yotishi haqidagi g‘oyalarni ilgari surish
S) Olam mavjudligi masalalarida ruhiy va ilohiy tamoyillarni ustuvor deb bilish
D) Olamning yaratilishi masalalarida moddani ustuvor deb bilish

84. “O‘zbek xalqi dunyo maydonida kuni kecha tasodifan ‘aydo bo‘lib qolgani yo‘q. Biz-boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk madaniyat vorislarimiz” iborasini I.Karimov qaysi asarida aytgan.
A) Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir
V) O‘zbekiston buyuk kelajak sari
S) Tarixiy xotasiz kelajak yo‘q
D) Yuksak malakali mutaxasislar- taraqqiyot omili

85.Quyidagi mutafakkirlardan qaysi biri «Al-muallim as Soniy» («Ikkinchi muallim») degan sharafli nomga ega bo‘lgan?
A) Ibn-Sino V) Farobiy
S) Al-Xorazimiy D) Al-Farg‘oniy

| |
|---|
| 86.Milliy istiqlol g‘oyasining iqtisodiy sohadagi vazifalarini aniqlang?<br>A) Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish g‘oyasini targ‘ib qilish<br>V) Kuchli ijtimoiy muhofaza siyosati yurgizishni targ‘ib qilish<br>S) Iqtisodiyotga xorij sarmoyasini jalb qilishni targ‘ib qilmaslik<br>D) Iqtisodiy globallashuvni cheklash |
| 87.Milliy istiqlol g‘oyasining tarixiy ildizlari qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?<br>1) Xaqqoniy yozilgan tarix 2) Xalq og‘zaki ijodi 3) Idealizm 4) San’at va adabiyot durdonalari 5) Diniy bag‘rikenglik 6) Buyuk mutafakkirlar merosi 7) Qadimiy obidalar 8) Fateshizm<br>A) 1,2,3,5,7 V) 1,2,4,6,7 S) 2,4,5,6,7 D) 2,3,6,7,8 |
| 88.«Turkiy Guliston yoxud axlok» asarida tarbiyaning kaysi 4 ta turlari xakida fikr yuritiladi?<br>A) axlokiy, estetik, kommunistik, irsiy tarbiyalar.<br>V) ijtimoiy tarbiya, oila tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axlokiy tarbiya.<br>S) tarbiya zamoni, badan tarbiya, fikr tarbiyasi, axlok tarbiyasi.<br>D) Mexnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, axlokiy tarbiya, ‘olitexnik tarbiya. |
| 89.’rezident I.Karimov «Mustakil Uzbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axlokiy negizlari» deb atalgan bobida milliy istiklol mafkurasining kuyidagi asosiy tamoillarini: umuinsoniy kadriyatlarga sodiklik, xalkimizning ma’naviy merosini saklash va rivojlantirish; inson uz imkoniyatlarini erkin namoish kilishi, vatan’arvarlik tamoillarini asos kilib oldi. Anna shu milliy istiklol mafkurasining asosiy tamoillari I.Karimovning kaysi asarida berilgan?<br>A) «Uzbekistonning uz istiklol va tarakkiyot yuli» asarida<br>V) «Uzbekiston – bozor munosabatlariga utishning uz yulida» asarida<br>S) «Uzbekiston – kelajagi buyuk davlat» asarida<br>D) «Bunyodkorlik yulida» asarida. |
| 90.Jaxon maydonlarini mafkuraviy jixatdan bo‘lib olishga urinishlar qanday omillar asosida ro‘y beradi?<br>A) Buyuk davlatchilik gegemonizm<br>V) Diniy mansublik asosida va etnik birlik asosida<br>S) Sobiq ijtimoiy-siyosiy va siyosiy birliklarni qayta tiklash asosida<br>D) Barcha javoblar to‘g‘ri |
| 91.Uzbekistonda nechta diniy konfessiya vakillari mavjud?<br>A) 15 ta V) 16 ta S) 10 ta D) 16 ta Ye) 25 ta |

## “MUSTAQILLIK VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR” FANIDAN TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONI

ЛОЙИҲА

# Олий таълим муассасаларида талабалар ўзлаштиришини баҳолаш тизими тўғрисида НИЗОМ

## Умумий қоидалар

1. Мазкур Низом Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида»ги қонунларига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги 343-сон «Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарорига мувофиқ олий таълим муассасаларида талабалар билимини баҳолаш тизимини тартибга солади.

Қонун ҳужжатларига мувофиқ олий таълим муассасаларининг ўзига хос хусусиятларини эътиборга олиб, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан келишилган ҳолда мазкур Низомга қўшимча ва ўзгартиришлар киритилиши мумкин.

2. Низомнинг мақсади талабаларнинг фанларни ўзлаштиришини холис (объектив) ва аниқ баҳоланишини таъминлашдан иборат.

3. Низомнинг асосий вазифалари:

талабалар ўзлаштиришини баҳолаш тизимини соддалаштириш;

талабалар ўзлаштиришини баҳолаш тизимини халқаро тажрибаларга уйғунлаштириш;

фанларни ўзлаштириши бўйича талабалар рейтингини аниқлаш ва семестр (йил) якунлари бўйича эълон қилиш орқали уларнинг илм-фанга бўлган қизиқишини кучайтириш;

профессор-ўқитувчиларнинг фан бўйича талабалар ўзлаштиришини баҳолаш шаклларини белгилашдаги ваколатини кенгайтириш ва масъулиятини ошириш;

ўзлаштиришни баҳолашда ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш.

## Баҳолаш турлари ва шакллари

4. Баҳолаш турлари, шакллари, мезонлари ва намунавий саволлар кафедра мудири тавсияси билан олий таълим муассасаси (факультет)нинг ўқув-услубий кенгашида муҳокама қилинади ва тасдиқланади ҳамда ҳар бир фаннинг ишчи ўқув дастурида машғулот турлари билан биргаликда кўрсатилади.

5. Баҳолаш турлари, шакллари, сони ҳамда мезонлари ҳақидаги маълумотлар талабаларга профессор-ўқитувчилар томонидан фан бўйича биринчи машғулотда эълон қилинади.

6. Талабаларнинг фан бўйича ўзлаштиришини аниқлаш учун қуйидаги баҳолаш турлари ўтказилади:

оралиқ баҳолаш (ОБ) - семестр давомида талабанинг фан ўқув дастурини тегишли тугалланган бўлим(лар)ини ўзлаштиришини баҳолаш усули. ОБ сони (бир семестрда 2 тадан ошмаслиги лозим) ва шакли (суҳбат, ёзма иш, оғзаки сўров, тест ўтказиш, коллоквиум, ҳисоб-графика иши, назорат иши, курс иши, курс лойиҳаси, ижодий топшириқ ва ҳоказо) фан хусусияти ва унга ажратилган умумий соатлар ҳажмидан келиб чиққан ҳолда белгиланади;

якуний баҳолаш (ЯБ) - семестр якунида талабанинг муайян фан бўйича назарий билим ва амалий кўникмаларни ўзлаштиришини баҳолаш усули. У асосан таянч тушунча ва ибораларга асосланган ёзма иш (тиббиёт олий таълим муассасалари учун ёзма иш ёки ОТКС (объектив тизимлаштирилган клиник синов), оғзаки сўров, тест, ижодий иш ва бошқа шаклларда ўтказилади.

7. Баҳолашлар ёзма иш шаклида ўтказилганда, талабанинг ёзма ишларини текшириш идентификация рақамлари бериш орқали амалга оширилади.

Ёзма иш талаба томонидан мустақил равишда ёзилади. Муаллифликни ўзлаштириш (плагиат)га йўл қўйилмайди. Ёзма иш матнидаги ўзганинг муаллифлик ишидан олинган ҳар қандай матнда муаллиф, ишнинг номи ва ишнинг бошқа реквизитларини кўрсатган ҳолда ҳаволалар келтирилиши шарт. Ёзма ишни текширишда плагиат ҳолатлари аниқланиши, шунингдек икки ёки ундан ортиқ ёзма ишнинг мустақил ёзилганлигига шубҳа уйғотадиган даражада ўхшаш бўлиши ушбу барча ёзма ишларга ноль балл қўйиш ёки олдин қўйилган балларни бекор қилишга асос бўлади.

Баҳолашлар бўйича ўтказилган ёзма ишлар 6 ой сақланади ва муддат ўтганидан сўнг ўрнатилган тартибда йўқ қилинади.

8. Ўқув режасидаги фанлар бўйича белгиланган баҳолаш турларини барча талабалар топширишлари шарт. Якуний баҳолашлар жадвали факультет декани томонидан тайёрланиб, баҳолаш бошланишидан бир ой олдин олий таълим муассасаси ректори (проректори) томонидан тасдиқланади.

9. Оралиқ баҳолаш жараёни кафедра мудири томонидан тузилган комиссия иштирокида даврий равишда ўрганиб борилиши мумкин ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, оралиқ назорат натижалари бекор қилиниб, оралиқ назорат қайта ўтказилади.

10. Олий таълим муассасаси раҳбарининг буйруғи билан таълим сифатини назорат қилиш бўлими ёки ўқув-услубий бошқарма (бўлим) бошлиғи раҳбарлигида тузилган комиссия иштирокида якуний назоратни ўтказиш жараёни даврий равишда ўрганиб борилади ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, якуний назорат натижалари бекор қилинади ҳамда якуний назорат қайта ўтказилади.

## Баҳолаш тартиби ва мезонлари

11. Талабаларнинг фанларни ўзлаштириши 5 баллик тизимда баҳоланади.

Малакавий амалиёт, фан (фанлараро) давлат аттестацияси, битирув малакавий иши, шунингдек магистратурада илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик ишлар ҳамда магистрлик диссертацияси бўйича талабалар ўзлаштириши ҳам 5 баллик тизимда баҳоланади.

12. Талабанинг фан бўйича ўзлаштиришини баҳолашда қуйидаги намунавий мезонлар тавсия этилади:

**5 (аъло) баҳо:**
хулоса ва қарор қабул қилиш;
ижодий фикрлай олиш;
мустақил мушоҳада юрита олиш;
олган билимларини амалда қўллай олиш;
моҳиятини тушуниш;
билиш, айтиб бериш;
тасаввурга эга бўлиш.

**4 (яхши) баҳо:**
мустақил мушоҳада юрита олиш;
олган билимларини амалда қўллай олиш;
моҳиятини тушуниш;
билиш, айтиб бериш;
тасаввурга эга бўлиш.

**3 (қониқарли) баҳо**:
моҳиятини тушуниш;
билиш, айтиб бериш;
тасаввурга эга бўлиш.

**2 (қониқарсиз) баҳо**:
дастурни ўзлаштирмаганлик;
фаннинг моҳиятини билмаслик;
аниқ тасаввурга эга бўлмаслик;
мустақил фикрлай олмаслик.

13. Намунавий мезонлар асосида кафедра томонидан муайян фандан баҳолаш мезонлари ишлаб чиқилади ва талабаларга эълон қилинади.

14. Баҳолаш турлари бўйича тузилган саволлар (топшириқлар) мазмуни (оддийдан мураккабгача) баҳолаш мезонларига мувофиқ талабанинг ўзлаштиришини холис (объектив) ва аниқ баҳолаш имкониятини бериши керак. Бунинг учун масъулият фан ўқитувчиси ҳамда кафедра мудирига юклатилади.

Саволлар (топшириқлар) таркибига фан дастуридан келиб чиққан ҳолда назарий материаллар билан бирга мустақил иш, лаборатория ва ҳисоб-графика ишлари, амалий ва семинар машғулотлари материаллари ҳам киритилади.

## Баҳолашларни ўтказиш муддати

15. Баҳолашларни тасдиқланган ўқув жараёни жадвалига мувофиқ деканат томонидан тузилган жадвал асосида фан бўйича ўқув машғулотларини олиб борган профессор-ўқитувчилар ўтказади.

16. Узрли сабабларга (талабанинг касал бўлиши, яқин қариндошлари оиласида фавқулодда ҳолатлар, яшаш жойи билан боғлиқ муаммоли вазиятлар) кўра баҳолашларда қатнашмаган талабаларга, асословчи ҳужжатлар тақдим этилган тақдирда, факультет декани фармойиши билан баҳолашларни шахсий график асосида топширишга рухсат берилади.

17. Биринчи оралиқ баҳолашдан қониқарсиз баҳоланган талаба иккинчи оралиқ баҳолашгача, иккинчи оралиқ баҳолашдан қониқарсиз баҳоланган талаба якуний баҳолашгача қарздорлигини қайта топшириши мумкин.

18. Якуний баҳолашдан 2 (қониқарсиз) баҳоланган талаба академик қарздор ҳисобланади.

Кузги семестр натижалари бўйича қарздор талабаларга навбатдаги семестр якунигача, баҳорги семестр натижалари бўйича қарздор талабаларга янги ўқув йили бошланишига қадар қайта топширишга қўшимча муддат берилади.

Қайта топширишлар сони 2 мартадан ошмаслиги керак. Иккинчи қайта топшириш факультет декани тасдиқлаган комиссия томонидан қабул қилинади.

Қўшимча муддатларда ҳам академик қарздорликни бартараф этмаган талаба факультет декани тавсиясига кўра белгиланган тартибда ректорнинг буйруғи билан курсда қолдирилади.

19. Талаба баҳолаш натижаларидан норози бўлса, фан бўйича баҳолаш тури натижалари эълон қилинган вақтдан бошлаб бир кун мобайнида факультет деканига ариза билан мурожаат этиши мумкин. Бундай ҳолда факультет декани тақдимномасига мувофиқ ректор буйруғи билан 3 (уч) аъзодан кам бўлмаган таркибда апелляция комиссияси ташкил этилади.

Апелляция комиссияси талабаларнинг аризаларини кўриб чиқиб, шу куннинг ўзида хулосасини билдиради.

20. Курсда қолдирилган талаба ўқишини фан(лар)ни ўзлаштирмаган семестр бошидан бошлайди ва мазкур семестрдаги барча фанларни қайта тўлиқ ўзлаштириши шарт.

## Баҳолаш натижаларини қайд қилиш ва таҳлил этиш тартиби

21. Талабанинг фан бўйича якуний баҳоси семестрда белгиланган баҳолаш турлари (ОБ, ЯБ) бўйича олинган ижобий баллар (3, 4, 5)нинг ўртача арифметик миқдори сифатида аниқланади ва яхлитланиб бутун сонларда қайдномa, синов дафтарчаси ва талабалар ўзлаштиришини ҳисобга олиш электрон тизимида шу куннинг ўзида (баҳолаш ёзма иш шаклида ўтказилган бўлса, уч кун муддат ичида) қайд этилади.

Талабанинг “2 (қониқарсиз)” баҳоси синов дафтарчасига қайд этилмайди.

22. Талабаларнинг ўқиш сифатини қиёсий таҳлил қилиш мақсадида ҳар бир фандан олинган баҳолар асосида талабалар рейтинги шакллантирилади.

23. Олий таълим муассасаси деканати семестр охирида ўқитиш натижалари бўйича қуйидаги академик рейтингларни ҳисоблайди:

алоҳида фанларни ўзлаштириш натижалари бўйича талабаларнинг гуруҳ, курс ва факультет миқёсидаги рейтинги;

семестрдаги барча фанларни ўзлаштириш натижалари бўйича талабаларнинг гуруҳ, курс ва факультет миқёсидаги рейтинги;

бир неча семестр давомида ўтилган фанларни ўзлаштириш натижалари бўйича талабаларнинг гуруҳ, курс ва факультет миқёсидаги рейтинги.

24. Ўқув йили якуни бўйича энг юқори рейтинг кўрсаткичига эга бўлган талабалар "Факультет (курс)нинг энг яхши талабалари рўйхати"га киритилади ҳамда факультет декани буйруғи билан моддий ва маънавий рағбатлантиришга тавсия этилади.

Талабаларнинг рейтинг кўрсаткичлари олий таълим муассасаси (факультети) сайтларида ёритилади.

25. Ўқув режасига киритилган (ҳар бир семестр якунидаги фанлар бўйича ўзлаштириш кўрсаткичи ҳисобга олинган ҳолда) фанларнинг 1/4 қисмини камида “4” (“яхши”) баҳога ва қолган 3/4 қисмини ҳамда давлат аттестацияси ва битирув малакавий ишлари (магистрлик диссертацияси)ни “5” (“аъло”) баҳоларга топширган талабаларга имтиёзли диплом берилади.

26. Баҳолаш натижалари кафедра йиғилишлари, факультет ва олий таълим муассасаси Кенгашларида мунтазам равишда муҳокама этиб борилади ва тегишли қарорлар қабул қилинади.

27. Факультет деканати (ўқув-услубий бошқарма)да сақланадиган қайдномалар баҳолаш натижалари бўйича талабага стипендия белгилашда асос бўлиб ҳисобланади.

Талабага имтиёзли диплом белгилашда ҳамда стипендияларни тайинлашда унинг ҳар бир семестр якунидаги фанлар бўйича деканатларда сақланаётган қайдномалардаги ўзлаштириш кўрсаткичи ҳисобга олинади.

28. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида талабалар ўзлаштиришини баҳолаш тизимини илғор хорижий давлатлар олий таълим

тизимида қўлланиладиган баҳолаш тизимига уйғунлаштириш мазкур Низом иловасида келтирилган жадвалга мувофиқ амалга оширилади.

Иловада кўрсатилмаган ҳолатлар бўйича баҳолаш тизимининг мувофиқлик масаласи олий таълим муассасасининг ўқув-услубий бошқармаси (бўлими) томонидан ректор билан келишган ҳолда ҳал этилади ва изоҳ берилади.

## Якуний қоидалар

29. Ушбу Низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ёки бекор қилиш тегишли меъёрий-ҳуқуқий хужжатлар асосида амалга оширилади.

30. Ушбу Низомда белгиланган масалалар бўйича келиб чиққан низолар қонун ҳужжатлари асосида ҳал қилинади.

## “MUSTAQILLIK VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR” FANIDAN FOYDALI MASLAHATLAR

Islom Karimov milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta`riflagan: «Xalqni buyuk kelajak va ulug`vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat`iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma`suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an`analarimizga munosib bo`lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da`vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir ».

«Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» T. «O`zbekiston», 2000 yil. 7 bet.

I.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqiyot kafolatlari” asarida havfsizlikni va barqarorlikni ta’minlash muammosini keng va chuqur tahlil etdi. U asosiy strategik muammolarini birlashtirdi, ushbu  muammolar mintaqamizning davlat arboblarning e’tiboriga sazovor bo‘lishi shart. Biz o‘zimizni qanday himoyalashimiz kerak, rivojlanish uchun im’ulslarni qaerdan izlash kerak? – degan savollar bugungi kunning eng dolzarb muammolarini aks ettirmoqda. Shu bilan birga, ‘rezident I.Karimov mavjud bo‘lgan havfsizlikka nisbatan tahdidlarning tabiatini, ularning manbalarinii chuqur o‘rganishimizni, mintaqada barqarorlikni saqlash shartlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish zarur ekanligini ta’kidladi.

Islom Karimov milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta`riflagan: «Xalqni buyuk kelajak va ulug`vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat`iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma`suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an`analarimizga munosib bo`lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da`vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir. ». «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» T. «O`zbekiston», 2000 yil. 7 bet

O‘zbekiston Respublikasining Konchtitutsiyasi 18-moddasida:

**“O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”**, deyilgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to‘siqlarsiz o‘z dinlariga e’tiqod qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. O‘z vaqtida konstitutsiya fuqarolarning vijdon erkinligi bo‘yicha haq-huquqlarini kafolatlaydi. 31-moddaga asosan:

**“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hech qaysi dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”.**

Konstitutsiyaning mazkur moddasida qayd etilgan tushunchalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va birinchi galda jahon andozalariga to‘liq javob beradigan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda o‘z aksini to’gan.

Mustaqillik yillarida to``’langan tajriba va ijtimoiy hayot rivoji aslida inson, jamiyat g`oya va mafkurasiz yashay olmasligini ko`rsatdi. Zotan, odamzot o`zining ruhi va shuuridagi ko``’dan-ko`` savollarga javob bo`ladigan, uni doimiy faoliyatiga undab turadigan hayotbaxsh g`oyaga hamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Chunki tabiatda, jamiyatda bo`shliq bo`lmagani kabi inson qalbi va ongida ham bo`shliq bo`lmaydi. Jamiyat hayotida sog`lom g`oya ustivor bo`lib turmasa, odamlarning qalbi va ongini yot, zararli g`oyalar egallab, halqning turmush tarzini izdan chiqaradi. Xuddi dunyoning boyligi turli kuchlar o`rtasida talash bo`lganidek, insonlarning qalbi va ongini egallab, ularni o`z qo`lidagi qurolga aylantirish maqsadi ham jahonda har xil tajovuzkor oqim va ta`limotlarni o`zaro kurashga undashi, ayniqsa, bugungi kunda yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Bu orzu-umidlar va intilishlarni amalga oshirish ushbu fanni o`qitishda bir qator talablarga ahamiyat berishni zaruratga aylantiradi.

Mazkur tavsiyalarga amal qilish ushbu fanning mohiyati, tushunchalari, tamoyil va xususiyatlarini atroflicha ochib berishga xizmat qiladi. Bu fan o`qituvchisi amaliy mashg`ulotlar olib borishda o`ta ma`suliyat, alohida kuyinchaklik bilan yondoshib, har bir mashg`ulotni yuqori saviyada olib boradilar.

## “MUSTAQILLIK VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR” FANIDAN NORMATIV HUJJATLAR

## BARRIKENGLIK TAMOYILLARI DEKLARATSIYASI

1995 yil oktabr — 16 noyabrda ‘arijda YUNESKO Bosh konferensiyasining yigirma sakkizinchi sessiyasiga tu’langan Ta’lim, fan va madaniyat masalalari buyicha Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo davlatlar.

### MUQADDIMA

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomidagi: «Biz, Birlashgan Millatlar xalqlari, kelajak avlodlarni urush Xalokatlaridan xalos qilish istagi bilan tulgan, yana bir bor insonning asosiy xuquqlariga, sha’niga VA inson qadr-qimmatiga nisbatan ishonchni tasdiqlab va shu maqsadlarda barrikenglikni namoyon qilib va o‘zaro tinch va yaxshi qushnilar singari ahil yashash» xaqida bayon etilgan fikrlarni yodda tutib,

1945 yil 16 noyabrda qabul qilingan YUNESKO Nizomining Muqaddimasida ta’kidlanganidek, «tinchlik insoniyatning intellektual va ma’naviy birdamligiga tayanishi lozim»ligini eslatib,

Inson xuquqlari Butunjaxon Deklaraqiyasida «xar bir inson fikr, vijdon va din erkinligi xuquqiga ega» (18-modda), «e’tiqodlar erkinligi va ularni erkin ifoda qilish» (19-modda) va ta’lim «barcha xalqlar, irqiy va diniy guruxlar o‘rtasida bir-birini tushunish, o‘zaro xayrixoxlik va dustlikka xizmat qilishi kerak»ligini (26-modda) eslatib,

Muayyan xalqaro xujjatlar, jumladan:

Fuqarolik va siyosiy xuquqlar tug‘risidagi xalqaro ‘aktni,

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xuquqlar tug‘risidagi xalqaro ‘aktni,

Irqiy kamsitishning barcha turlariga barxam berish tug‘risidagi xalqaro Konvensiyani,

Genotsid jinoyatlarining oldini olish va unga nisbatan jazolar tug‘risidagi Konvensiyani,

Bola xuquqlari tug‘risidagi Konvensiyani, qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi 1951 yil Konvensiyasi va qochoqlarning maqomiga ta’luqli 1967 yilgi ‘rotokol, shuningdek, shu soxaning mintaqaviy huquqiy xujjatlarni,

Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha turlariga barxam berish tug‘risidagi Konvensiyani,

Zurlash va boshqa shafqatsiz, rayrinsoniy va qadr-qimmatni taxqirlaydigan muomala va qiynoq turlariga qarshi Konvensiyani,

Din va e’tiqodlarga asoslangan xar qanday murosasizlik va kamsitishlarga barxam berish to‘g‘risidagi Deklaratsiyani,

Millati, elati, dini yoki tili nuqtai-nazaridan kam sonli bo‘lgan guruxga mansub shaxslarning huquqla’u to‘g‘risidagi Deklaratsiyani,

Xalqaro terrorchilikka chek qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Deklaratsiyani,

Vena deklaratsiyasi va Inson xuquqlari buyicha Butunjaxon konferensiyasining xarakat Dasturini,

Ijtimoiy taraqqiyot manfaatlari yo‘lida Ko’engagenda bulib o‘tgan oliy darajadagi Butun jaxon konferensiyasining deklaratsiyasi va xarakat Dasturini, Irq va irqchilik bidiatlari to‘g‘risidagi YUNESKO Deklaratsiyasini,

Ta’lim soxasida kamsitishlarga qarshi kurash to‘g‘risidagi YUNESKO Konvensiyasi va Tavsiyanomasini nazarda tutib,

Irqchilik va irqiy kamsitishga qarshi kurash xarakatlarining uchinchi soxasi buyicha ta’lim o‘n yilligi va dunyo tub xalqlarining xalqaro o‘n yilligi maqsadlarini yodda saqlab,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining bag‘rikenglikka bag‘ishlangan yili doirasida YUNESKO Bosh konferensiyasining 27S/5.14 rezolyutsiyasiga muvofits o‘tkazilgan mintaqaviy konferensiyalar tavsiyalarini inobatga olib, shuningdek, a’zo davlatlar tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti yili dasturi bo‘yicha bag‘rikenglikka bag‘shlab o‘tkazilgan boshqa konferensiya Xamda kengashlarning xulosa va tavsiyalarini e’tiborga olib,

keyingi ‘aytlarda milliy, etnik, diniy va til jixatdan kamchilik bo‘lgan guruxlarga, qochoqlarga, ishchi-muxojirlar tabaqalariga va jamiyatlarning ijtimoiy jixatdan kam Ximoyalangan guruxlariga nisbatan murosasizlik xolatlari, zurlash, terrorchilik, ksenofobiya, tajovuzkorona millatchilik, irqchilik, antisemitizm, yotsirash, marginalizatsiya va kamsitishlarning ku’ayganligiga, shuningdek, tinchlik yo‘lidagi sa’yi-xarakatlarga va milliy xamda xalqaro darajada demokratiya taxdidga qarshi erkin fikri va e’tiqodini ifoda etuvchi aloxida shaxslarga ularning uz xuquqlarini amalga oshirishlariga xalal berish maqsadida zo‘ravonlik va kuch ishlatilishiga nisbatan xavotirlik tuyg‘ysini xis etib,

a’zo davlatlarning inson xuuqlarini va barchaga ta’lluqli asosiy erkinliklarni irqiy, jinsiy, zaboniy, milliy, diniy mansubligi yoxud somigi xolatidan qat’iy nazar barcha uchun rivojlantirish xurmatini ta’minlash xamda murosasizlik kurinishlariga qarshi kurashish majburiyatiga aloxida e’tiborni qaratib,

ushbu Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasini qabul qiladilar va tantanali e’lon qildilar.

Jamiyatda barrikenglik ideallarini qaror to’tirish maqsadida barcha zaruratlarni bajarish uchun tayyor turib, bag‘rikenglik nafaqat o‘ta muxim tamoyil, balki tinchlik

va barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning zaruriy sharti ekanligidan kelib chiqib, biz quyidagilarni bayon qilamiz:

## 2- MODSA. Bag‘rikenglik tushunchasi

2.1. Bag‘rikenglik — bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning aloxidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini Xurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘‘u tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot xamda xur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik — turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma’naviy burchgina emas, balki, siyosiy va xuquqiy extiyoj xamdir. Bag‘rikenglik — tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

2.2. Bag‘rikenglik — yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag‘rikenglik — eng avvalo insonning universal xuquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda xam bag‘rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bohonasi bulib xizmat qilmaydi. Bag‘rikenglikni aloxida shaxslar, guruxlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

2.3. ***Baqrikenglik — inson huquqlarini qaror to’tirish ‘lyuralizm (shu jumladan, madaniy ‘lyuralizm), demokratiya va xuquqning tantanasi uchun ko‘maklashish majburiyatidir. Bag‘rikenglik — aqidabozlikdan, Xaqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson xuquqlari soxasidagi xalqaro-xuquqiy Xujjatlarda o‘rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.***

2.4. Bag‘rikenglikni namoyon qilish inson xuquqlariga extirom bilan xamoxang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bulishni, uz iymon-e’tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e’tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, xar kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkindir va xar kim bu xuquqqa boshqalar xam ega ekanligini tan olmog‘i lozim. U yana shuni anglatadiki, odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra tashqi ko‘rinishi, qiyofasi, o‘zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari farqlanishi e’tirofga loyiqligi barobarida, ular dunyoda yashashga va o‘zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga xaqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

## OLMAOTA DEKLARATSIYASI

**Mustaqil davlatlar:**

Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozogiston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi (RSFSR), Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O‘zbekiston Respublikasi va Ukraina, demok-ratik huquqyy davlat bar’o etish, ular o‘rtasidagi munosabatlar davlat suverenitetini va suveren tenglikni, o‘z taqdirini o‘zi belgilashdan iborat daxlsiz huquqni o‘zarr tan olish va hurmat qilish, huquqiy tenglik va ichki ishlarga aralashmaslik qoidalari, kuch ishlatishdan va kuch ishlatish bilan do‘q qilishdan, iqtisodiy va boshqa har qanday tazyiq usullaridan voz kechish, nizolarni tinch bartaraf etish, inson huquqlari va erkinliklarini, shu jumladan oz sonli millatlarning huquqlarini hurmat qilish, majburiyatlarni hamda hamma e’tirof qilgan xalqaro huquq qoidalari va me’yorlarini halol bajarish asosida rivojlanishini yo‘lga qo‘yishga intilib:

—bir-birining hududiy yaxlitligini hamda mavjud chegaralar buzilmasligini tan olib va hurmat qilib;

— chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan do‘stlik, yaxshi ho‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash xalqlarning tub manfaatlariga mos bo‘lib tushadi hamda tinchlik va xavfsizlik ishiga xizmat qiladi, deb hisoblab;

—fuqarolar tinchligini va millatlararo totuvlikni saqlab qolish uchun o‘z mas’uliyatlarini anglab;

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligani tuzish to‘g‘risidagi Bitimning maqsadlari va qoidalariga sodiq qolib, quyidagilarni bildiradilar:

Hamdo‘stlik qatnashchilarining o‘zaro aloqalari tenglik asosida tuziladigan hamda hamdo‘stlik qatnashchilari o‘rtasidagi bitimlarda belgilanadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali teng huquqlilik qoidasi asosida amalga oshiriladi, mazkur hamdo‘stlik davlat ham emas, davlatlar ustidan turadigan tuzilma ham emas.

Xalqaro strategik barqarorlikni va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida harbiy strategik kuchlarning bir-lashgan qo‘mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat sahlanib qoladi; tomonlar bir-birlarining yad-rosiz va (yoki) betaraf davlat maqomiga erishish muddao-sini hurmat qiladilar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi barcha qatnashchilar-ning roziligi bilan sobiq SSR Ittifoqiga a’zo bo‘lgan davlatlarning, shuningdek hamdo‘stlik maqsadlari va

qoidalariga sherik bo‘ladigan boshqa davlatlarning unga qo‘shilishi uchun ochiqdir.

Umumiy iqtisodiy makonni, Umumevro’a va Yevro’a-Osiyo bozorlarini vujudga keltirishda va rivojlantirishda hamkorlik hilishga sodiqlik tasdiqlanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bar’o etilishi bilan Sovet Sotsialistik Res’ublikalari Ittifoqi o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Hamdo‘stlikda qatnashuvchi davlatlar o‘z konstitutsiyalaridagi tartib-qoidalarga binoan sobiq SSR Ittifoqining shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqsaga-na, xalqaro majburiyatlarning bajarilishiga kafolat beradilar.

Hamdo‘stlikda qatnashuvchi davlatlar ushbu Deklaratsiya qoidalariga og‘ishmay rioya etish majburiyatini oladilar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlat boshlihlari kengashining qarorida ham unga a’zo bo‘lib kiruvchi barcha mustaqil davlatlar xalqaro Tinchlik va hamdo‘stlikni mustahkamlashga ko‘maklashishni maqsad qilib belgilagan-ligi alohida ta’kidlangan. Olmaota shahrida 1991 yil 21 dekabr kuni ozarbayjon, arman, belorus, qozoq, qirgaz, moldavan, rus, tojik, turkman, o‘zbek va ukrain tillarida Mustahil davlatlar boshliqlari kengashining ‘rotokoli tuzyldi.

Buvdan tashqari yana Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining muvofiqlashtiruvchi muassasalari to‘g‘risida bitim ham tuzilib, unda qatnashuvchi davlatlar o‘rtasida umumiy manfaatlar sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish bilan bog‘liq masalalarni hal etish ko‘zda tutilgan.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ‘REZIDENTINING FARMONI

**09.09.1996 y.**

**‘F-1559**

## "MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT" JAMOATChILIK MARKAZI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLAShTIRISh VA SAMARADORLIGINI OShIRISh TO‘G‘RISIDA

Jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol to’tirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Odamlarning o‘zliklarini chuqur anglashini, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishini, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Ammo hanuz joylarda ma’naviyatning mohiyatini, uning olg‘a siljishimiz, farovon jamiyatga tezroq yetishimizdagi qimmatini chuqur idrok etmaslik hollari mavjud. Ayrim katta-kichik rahbarlar eski mustabidlik, zo‘ravonlik mafkurasining sarqitlaridan haligacha qutula olmay, bu borada kechirib bo‘lmaydigan oqsoqlik qilib, ma’naviyatning asl mohiyatini tushunib yetmaslik tufayli unga ikkinchi darajali ish sifatida qaramoqdalar. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarga bo‘lgan bunday e’tiborsizlik kelajagi buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz ro‘yobi uchun mutlaqo ziddir.

Ma’naviyat sohasida olib borayotgan ishlarimizni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida:

1. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor

yo‘nalishi deb hisoblansin. Joylarda ma’naviyat bilan bog‘liq ishlarning amalga oshirilishi uchun butun mas’uliyat shaxsan Qoraqal’og‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat, shahar va tuman hokimlari, res’ublikamizdagi barcha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar birinchi rahbarlarining zimmasiga yuklansin.

Res’ublika "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazining joylardagi bo‘limlari ishini yanada yaxshilash maqsadida hokimliklar ularni ikki oy muddat ichida tegishli bino, zamonaviy jihozlar, trans’ort va texnika vositalari bilan ta’minlasinlar.

2. Yoshlarimiz ongiga ona-Vatanga, buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg‘ularini singdirish maqsadida ularni dunyoni hayratga solgan qadimiy yodgorliklar va mustaqillik davrida bunyod etilgan ulkan inshootlar, ma’rifat maskanlari, yurtimizning go‘zal tabiati bilan muntazam tanishtirib borish uchun mahsus tanishtiruv sayohatlari tashkil etish barcha hokimlar zimmasiga yuklatilsin.

Bu maqsadda hokimliklar va "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi, Madaniyat ishlari vazirligi, "O‘zbekturizm" milliy kom’aniyasi, "Kamolot" yoshlar jamg‘armasi tegishli tavsiyalarni 2 oy muddat ichida ishlab chiqsin va amalga oshirishga kirishsin.

3. Res’ublika "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi, uning Qoraqal’og‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlarini istiqlol g‘oyalarini, milliy qadriyatlarni teran anglaydigan, fidoyi, tashkilotchi, tashabbuskor xodimlar bilan mustahkamlash uchun ularning rahbarlari shu yilning oxiriga qadar qayta sinovdan o‘tkazilsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, hududiy bo‘limlar rahbarlari tegishli hokimliklar tavsiyasiga binoan "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi tomonidan tayinlanadi.

5. Yosh avlodni buyuk an’analarimizga, yuksak ma’naviy qadriyatlarimizga sodiqlik va ‘orloq kelajak egalari ekanliklariga qat’iy ishonch ruhida tarbiyalash maqsadida 1997 yildan boshlab 1 oktabr "O‘qituvchilar va murabbiylar" kuni deb e’lon qilinsin hamda dam olish kuni hisoblansin. Bu bayramda o‘tkaziladigan barcha tadbirlar o‘qituvchilar, murabbiylar, tarbiyachilar, umuman, bolalar bilan ishlashga, ularning sog‘ligini himoyalashga, jismonan va ruhan sog‘lom kamol to’tirishga o‘z hayotini bahshida etgan insonlarni ulug‘lashga bag‘ishlansin.

Vazirlar Mahkamasi bu borada tegishli taklifni Oliy Majlisga kiritsin.

6. Res’ublika "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi nashri - "Tafakkur" jurnalini joylarda keng yoyish uchun mahalliy hokimliklar uning obunasiga har tomonlama yordam ko‘rsatsinlar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi markazning "Ma’naviyat" nashriyotini tashkil etish, bu nashriyotning va "Tafakkur"

jurnalining mualliflik qalam haqi miqdorlarini amaldagidan oshirish masalasini ko‘rib chiqsin va hal etsin.

8. Res’ublika "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazi, uning joylardagi bo‘limlari, xo‘jalik hisobidagi korxonalari hamda "Tafakkur" jurnali nizomida ko‘rsatilgan maqsadlar va vazifalarga qat’iy mos keladigan faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha barcha turdagi soliqlardan besh yil

muddatga ozod etilsin.

9. Toshkent shahar hokimi zimmasiga ikki oy muddatda markazning asosiy binosini milliy uslubda ta’mirlash va zamonaviy jihozlash yuklatilsin.

10. Moliya vazirligi markazga mahsus audio, video, foto va boshqa zarur texnik uskunalar xarid qilish uchun kerakli miqdorda mablag‘ ajratsin.

11. Res’ublika "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazi oshida "Oltin meros" xalqaro hayriya jamg‘armasi tuzilganligi e’tiborga olinsin.

Ushbu Farmonda markazga berilayotgan imtiyozlar uning "Oltin meros" jamg‘armasiga ham taalluqli ekanligi belgilab qo‘yilsin.

Vazirlar Mahkamasi jamg‘armani qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zarur o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni ishlab chiqsin.

13. Ommaviy axborot vositalariga "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazi, uning "Oltin meros" jamg‘armasi faoliyatini keng yoritish, doimiy mahsus ruknlar ochish tavsiya etilsin.

O‘zbekiston teleradiokom’aniyasi markaz bilan hamkorlikda mahsus "Ma’naviyat va ma’rifat" ijodiy guruhini tashkil qilsin, muntazam ko‘rsatuvlar va eshittirishlarni yo‘lga qo‘ysin.

14. Mazkur masalalarni amalga oshirish uchun tegishli idoralar vakillaridan iborat mahsus ishchi guruhi tashkil etilganligi e’tiborga olinsin.

**O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I. Karimov**

MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| 1. | KIRISH…………………………………………………………........... | 3 |
| 2. | 1-MAVZU………………………………………………………......... | 7 |
| 3. | 2-MAVZU………………………………………………………......... | 18 |
| 4. | 3-MAVZU………………………………………………………......... | 32 |
| 5. | 4-MAVZU………………………………………………………......... | 47 |
| 6. | 5-MAVZU………………………………………………………......... | 57 |
| 7. | 6-MAVZU………………………………………………………......... | 68 |
| 8. | 7-MAVZU………………………………………………………......... | 82 |
| 9. | 8-MAVZU………………………………………………………......... | 88 |
| 10. | 9-MAVZU………………………………………………………......... | 101 |
| 11. | 10-MAVZU…..…………………………………………………......... | 119 |
| 12. | Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati…………………………….……… | 128 |
| 13. | Mustaqil ta’lim mavzulari……………………………………......... | 133 |
| 14. | Kurs ishi mavzulari………………………………………………… | 137 |
| 15. | Glosariy…………………………………………….……………….. | 138 |
| 16. | Fan dasturi………………………………………………………......... | 147 |
| 17. | Ishchi o’quv dasturi………………………………………………… | 162 |
| 18. | Tarqatma materiallar…………………………………………......... | 193 |
| 19. | Testlar……………………………………………………………… | 198 |
| 20. | Baholash me’zoni…………………………………………………... | 214 |
| 21. | Qo’shimcha materiallar……………………………………......... | 221 |